

МУҲАММАД АЛ-ХОРАЗМИЙ АВЛОДЛАРИ

Илмий-амалий ва ахборот-таҳлилий журнал
2017 йилда таъсис этилган

2(12)/2020

Таҳририят кенгаши аъзолари		МУНДАРИЖА	
Тешабаев Т.З.	– Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети (ТАТУ) ректори, Таҳририят кенгаши раиси	ДАСТУРИЙ ВА КОМПЬЮТЕР ИНЖИНИРИНГ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ ЗАМОНАВИЙ МУАММОЛАРИ	
Садуллаева Ш.А.	– ТАТУ ўқув ишлари бўйича биринчи проректор, Таҳририят кенгаши раиси ўринбосари	Anarova Sh.A. Investigation of oscillation processes of spatially loaded rods in dynamic	3
Ташев К.А.	– ТАТУ илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректори, Таҳрир кенгаши раиси ўринбосари	Axatov A.R., Nurmamatov M.Q. Shaxsiy ma'lumotlar asosida har bir kishining ijtimoiy ahvolini monitoring qilish va aholi sharoitlarini bashoratlash modellarini ishlab chiqish	6
Носиров Х.Х.	– Ph.D., Бош мухаррир	Нишанов А.Х., Акбаралиев Б.Б., Жўраев Ғ.П. Юрак ишемик касалликлари симптомкомплексларини танлашнинг мослашувчан тасодифий кидирувга асосланган алгоритми	10
Рахимов Б.Н.	– т.ф.д., доц. бош мухаррир ўринбосари	Вотинов К.А., Цырельчук И.Н., Писецкий Ю.В., Маматова Н.М., Абдурашидов А.А., Собитов С.К. Разработка алгоритма для статистической оценки качества интегральных микросхем	16
Мухаррирлар:		Насимов Р.Х. 12 каналли электрокардиография қурилма таъминоти	19
Раджабов Т.Д.	– ф.-м.ф.д., проф., акад.	Зайнидинов Х.Н., Жўраев Ж.Ў. Функцияни интерполяциялашда Хаарнинг бўлак- полиномиал вейвлетлар усули	24
Камилов М.М.	– т.ф.д., проф., акад.	Примова Х.А., Сафарова Л.У. Норавшан тўпламлар назариясидан фойдаланиб сигирларда остеодистрофия касаллик ҳолатини башоратлаш моделини қуриш	29
Бекмуратов Т.Ф.	– т.ф.д., проф.	Усмонов Р.Н., Далиев Ш.К. Численное моделирование двух водоносных горизонтов	32
Мусаев М.М.	– т.ф.д., проф.	Бахрамов С.А. Зайнидинов Х.Н., Қўчқаров М.А. Геофизик сигналларни моделлаштиришнинг сплайн-усули	35
Арипов Х.К.	– ф.-м.ф.д., проф.	Ғуломов Ш.Р. Ганиев А.А. Арипова З.Д. Фильтрация спама с поведенческим черным списком	39
Нишонбоев Т.Н.	– т.ф.д., проф.	Сиддиков И.Х., Юнусова С.Т., Хужаназаров У.О. Нечетко-логическое регулирование процесса сушки хлопка	43
Абдурахмонов К.П.	– ф.-м.ф.д., проф.	Зоҳиров Қ.Р., Шарапова Б.А. Электромиография сигналинини қайд қилишда сирт электродлари жойлашуви-нинг таҳлили	47
Ганиев С.К.	– т.ф.д., проф.	ОПТИК АЛОҚА ТИЗИМЛАРИ, ТЕЛЕКОММУНИКАЦИЯ ТАРМОҚЛАРИ ВА КОММУТАЦИЯ ТИЗИМЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТАМОЙИЛЛАРИ	
Мухамедиева Д.Т.	– т.ф.д., проф.	Siddikov I.X., Hujamatov X.E., Hasanov D.T., Reypnazarov E.N., Toshtemirov T.Q. Telekommunikatsiya tizimlarining avtomatik boshqariluvchi quyosh energiya ta'minotini IOT modellari asosida tadqiq etish	52
Туляганов А.А.	– т.ф.н., проф.	Абдурахманов Р.П., Тоғжиева Ф.К. Моделирование узла доступа мультисервисной сети с учетом самоподобия входящего трафика	59
Исаев Р.И.	– т.ф.н., проф.	Сидиков И.Х., Нигматов З.З. Ҳисоблаш тармоқларининг тармоқлараро тугунларида трафикни бошқаришнинг нейрокатъиймас моделини ишлаб чиқиш	68
Якубова М.З.	– академик (Қозоғистон)	Эшмурадов А.М., Хайтбаев А.Ф., Музафаров Ф.А. Симсиз сенсор тармоқда энергия истеъмолининг қиёсий таҳлили	73
Халиков А.А.	– т.ф.д., проф. (ТГЙТМИ)		
Назаров А.М.	– т.ф.д., проф. (ТДТУ)		
Рахимов Н.Р.	– профессор (Россия)		
Жмуд В.А.	– профессор (Россия)		
Miroslav Skoric	– профессор (Австрия)		
Dzhurakhalov A	– профессор (Белгия)		
Abgarov S.M.	– профессор (Канада)		
Siddikov B.	– профессор (АҚШ)		
Куямакуя К.	– профессор (Австрия)		
Chedjou J.Ch.	– профессор (Австрия)		
Давронбеков Д.А.	– т.ф.д., доц.		
Анарова Ш.А.	– т.ф.д., доц.		
Писецкий Ю.В.	– т.ф.д., доц.		
Нишонов А.Х.	– т.ф.д., доц.		
Муминов Б.Б.	– т.ф.д., доц.		
Рахимов Н.О.	– т.ф.д., доц. (ЎзМУЖФ)		
Рахимов Т.Г.	– т.ф.н., доц.		
Гаврилов И.А.	– т.ф.н., доц.		
Губенко В.А.	– т.ф.н., доц.		
Амирсайдов У.Б.	– т.ф.н., доц.		
Тўраев Ш.Ш.	– и.ф.н., доц.		
Шаҳобиддинов А.Ш.	– Ph.D		
Яхшибаев Д.С.	– Ph.D		
Керимов К.Ф.	– т.ф.н.		
Бердиев А.А.	– бош мухаррир ёрдамчиси		

**РАҚАМЛИ ТЕЛЕВИДЕНИЕ ВА РАДИОЭШИТТИРИШ,
СИМСИЗ ТЕХНОЛОГИЯЛАР ВА РАДИОТЕХНИКАНИ
РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ**

Нигматов Х., Умаров У.А. Определение основных характеристик телекоммуникационной сети с разнотипными каналами связи и изменяющейся структурой	78
Газиева В.А., Туляганова В.А. Анализ нелинейностей элементов, контуров и разработка реверсивного ШИП постоянного тока с запирающимся тиристором	83
Хамидов Х., Дусенов Э. Мобильные сети 5G, задачи и технологии	87
Амиров С.Ф., Жумабоев С.Х. Выявление несимметричности фаз электромагнитными преобразователями тока на магнитомодуляционном эффекте	91
Рахимов Т.Г., Муталова Ш.А. Кўп сонли объектлар тоифаларига эга бўлган тасвирларни таснифлаш алгоритмлари	94
Рахимов Б.Н., Хотамов А., Рахимов Т.Г. Ўлчов антенналари асосида индустриал радиохлакитлар характеристикаларини аниқлаш	98
Beknazarova S.S., Kurbanov S.K. Binolarni rekonstruksiya qilishning lazerli skanerlash usulidan foydalanishda yuzaga keladigan muammolar	101
ИЛМИЙ АХБОРОТЛАР	
Писецкий Ю.В., Цырельчук И.Н., Вотинов К.А., Талипов А.Р., Маматова Н.М., Абдурашидов А.А., Собитов С.К. Программные методы контроля автоматических систем	106
Хотамов А., Эшназаров Н. Мобил алоқа камровини кучайтириш ва кенгайтириш усули	111
Бегимов У.И., Худайкулов С.И., Усмонова Н.А. Моделирование схемы кавитационных течений многофазной жидкости	114
Khakimova Sh. N. Foreign and domestic achievements in the field of it logistics: efficiency of use of automated ERP-systems	116
Kholmonov Sh.Q., Vayjonova L.E., Ulashov.S.R. Principles of Creating Virtual Laboratories in Engineering Education	120
Мамасодиков Ю. Механические и расчетные методы контроля технологических параметров кокона и их оценка	123
Сиддиков И.Х., Абдумаликов А.А., Анарбаев М.А. Назорат ва бошқарув датчигининг ишончилиги ва иш ҳолати кўрсаткичларини тадқиқ этиш	127
Ишдавлетова Э.Т., Кудрявцева Л.В. Оценка эффективности реализации стратегического контроллинга в почтовой связи Узбекистана	132
Зарипов О.О., Мамиров У.Ф., Шукурова О.П. Итерационные алгоритмы регулярной идентификации объектов управления большой размерности самозапуск	136

Муассис:

*Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги
Тошкент ахборот технологиялари
университети*

Манзил:

*100084, Ўзбекистон, Тошкент ш., Амир
Темур кўчаси, 108*

Телефон: 71 238-64-38;

e-mail: alxorazmiy@tuit.uz

Журнал сайти: <http://alxorazmiy.uz>

Босишига рухсат этилди:

Қозғоз бичими 60x84 1/8

Босма табоғи 15,5. Адади 100 нусха

Буюртма рақами №195 “Фан ва

технологиялар Марказининг

босмаҳонаси”да чоп этилди

Тошкент шаҳри Олмазор кўчаси, 171.

Журнал Ўзбекистон Матбуот ва

ахборот агентлигида 2017 йил

22 июнда 0921 рақами билан рўйхатдан

ўтган.

Журнал йилда 4 мартаба

(ҳар чоракда) чоп этилади

ISBN 978–9943–11–665–8

UDK 539.3

Anarova Sh.A.

Investigation of oscillation processes of spatially loaded rods in dynamic

Oscillation processes of spatially loaded rods in linear statement are considered in the paper. Results are presented in the form of graphs. Description of results obtained and comparative analysis of all parameters of the problem set are given.

Keywords: rod, oscillations, spatial load, process of oscillations.

Introduction. Scientific research conducted in the world is aimed at constructing mathematical models, developing computational algorithms for solving linear and geometrically non-linear problems of stress-strain state of rods under spatial loading, creating an automated system for estimating strain processes in rods. In this direction, the most important tasks are: construction of mathematical models that determine the stress-strain state, development of computational algorithms and creation of automated systems for estimating the strain processes of longitudinal-flexural, longitudinal-torsional and flexural-torsional oscillations of the rods under spatial loading. In this connection, the development of mathematical models and algorithms for solving problems of linear and geometrically non-linear rods of complex configuration under spatial loading is urgent.

In the Republic of Uzbekistan, large-scale activities are being carried out on design of rod-type structures and mathematical modeling of computing processes using modern computer technologies for assessing the stress-strain state of structures, as well as on developing technological systems and creating automated software. The Strategy of Actions for Further Development of the Republic of Uzbekistan for 2017-2021 defines the objectives, in particular, "... the implementation of information and communication technologies in economy, social sphere, management systems, ... the development and modernization of road transport, engineering-communication and social infrastructure " [1]

In fulfillment of these tasks, important issues are the development of generalized mathematical models, computational algorithms and the creation of an automated system for solving linear and geometrically nonlinear problems of stress-strain state of rods under spatial loading based on modern information technologies applied in design process.

Statement of the problem. In [2–9], a generalized mathematical model of the statics and dynamics of rods under spatial loading is developed. Displacements of rod points under joint longitudinal, transverse and torsion oscillations are presented in the form [9]:

$$\begin{aligned}
 u_1(x, y, z, t) &= u(x, t) - z\alpha_1(x, t) - y\alpha_2(x, t) + \varphi(y, z) \times \\
 &\times \mathcal{G}(x, t) + a_1(z)\beta_1(x, t) + a_2(y)\beta_2(x, t), \\
 u_2(x, y, z, t) &= v(x, t) + z\theta(x, t), \\
 u_3(x, y, z, t) &= w(x, t) - y\theta(x, t).
 \end{aligned}$$

Here, the number of sought functions reaches nine, and no restrictions are imposed on the external load; variables $u, v, w, \alpha_1, \alpha_2, \theta, \mathcal{G}, \beta_1, \beta_2$ are the functions of spatial variable x and time t .

In [11 - 12], a computational algorithm is developed for calculating the statics and dynamics of rods under spatial loading.

In this paper the problems are solved when the following relations are given [10]:

$$\begin{aligned}
 a_1 &= \psi_1 - z, \quad a_2 = \psi_2 - y, \\
 \psi_1 &= \frac{3z}{2k} \left(1 - \frac{4z^2}{3h^2} \right), \quad \psi_2 = \frac{3y}{2k} \left(1 - \frac{4y^2}{3b^2} \right), \\
 a_1 &= a \left(\frac{5}{4}z - \frac{5}{3}z^3 - z \right), \quad a_2 = b \left(\frac{5}{4}y - \frac{5}{3}y^3 - y \right).
 \end{aligned}$$

Numerical results. Here, as an example, consider a rod with fixed ends, longitudinal force q_1 , transverse forces q_2 and q_3 and moment M .

The following parameter values are used to calculate the rod: Young's modulus $E = 2 \cdot 10^5 \text{ Па}$, Poisson's ratio $\nu_1 = 0,3$ (for steel), length $l = 10 \text{ м}$, insert cross sections $a = 0,02 \text{ м}$, $b = 0,02 \text{ м}$, insert surface loads $q_1 = 0,015 \text{ Н}$, $q_2 = 0,01 \text{ Н}$, $q_3 = 0,02 \text{ Н}$, $M = 0,012 \text{ Н} \cdot \text{м}$.

Results are shown below in the form of graphs. Fig. 1 shows the graphs of longitudinal displacements u along the rod at different moments of time $t = 20 \text{ s}$, 40 s , 80 s . As seen from the graphs at different t along the length of the rod there are different results at different points: at the points near the rod center there appear increasing sinusoidal amplitudes.




Fig. 1. Distribution of longitudinal oscillations $u \times 10^6$ along the length of the rod at $l = 10 \text{ m}$ and at different moments of time

As seen from Fig. 1, at longitudinal displacements u the largest disturbance is formed in the middle of the rod. Further, the displacement values are reduced at the ends of the rod. At $t = 20 \text{ s}$, longitudinal displacements u have the least value, they gradually increase at $t = 40 \text{ s}$ and at $t = 80 \text{ s}$ have the greatest value.

Fig. 2 shows the propagation of transverse oscillations along the length of the rod for boundary conditions of the rigid fixing at two ends in linear statement at different moments of times. As seen from the figure at transverse oscillations v the largest disturbance appears at the ends of the rod and gradually

decreases in the middle of the rod. At $t = 20$ s, transverse oscillations ν have the least value, they gradually increase at $t = 40$ s, and at $t = 80$ s they have the largest value. With increase in time t , transverse oscillations ν at the end points of the rod take on the greatest value and move symmetrically to the maximum value relative to the center of the rod length.




Fig. 2. Propagation of transverse oscillations $\nu \times 10^2$ along the length of the rod at different moments of time $t = 20, 40, 80$ (s)




Fig. 3. Propagation of transverse oscillations along the length of the rod at different moments of time $t = 20, 40$ and 80 (s)

Fig. 3 shows the propagation of transverse oscillations w along the rod for boundary conditions of the rigid fixing of two ends in a linear statement for the moments of time $t = 20$ s, $t = 40$ s и $t = 80$ s. insert s; insert and at $t = 20$ s, transverse oscillations have the least value, they gradually increase at $t = 40$ s, and at $t = 80$ s they have the greatest value. With increasing time t , transverse oscillations w at end points of the rod take on the greatest value and move symmetrically to the maximum value relative to the center of the rod length. The value of transverse oscillations w corresponding to the largest amplitude is observed at the initial time t and at $t = 20$ s near the points of the boundary; at $t = 80$ s near the center they have the greatest value.

Fig. 4 shows the graphs of oscillation propagation of the angle of inclination α_1 along the length of the rod at different moments of time ($t = 20$ s, $t = 40$ s and $t = 80$ s).

According to these graphs, the greatest disturbance of the angle of inclination α_1 appears at the ends of the rod, and it gradually decreases towards the center of the rod.




Fig. 4. Oscillations propagation of the angle of inclination $\alpha_1 \times 10^5$ along the length of the rod at different moments of time $t = 20, 40, 80$ (s)

At $t = 20$ s, the angle of inclination α_1 has the least value, which gradually increases at $t = 40$ s, and at $t = 80$ s it has the greatest value.




Fig. 5. Oscillations propagation of the angle of inclination $\alpha_2 \times 10^2$ along the length of the rod at different moments of time

Fig. 5 shows the graphs of oscillations propagation of the angle of inclination α_2 along the length of the rod at different moments of time ($t = 20$ s, $t = 40$ s and $t = 80$ s). According to the graphs, the angle of inclination α_2 has the greatest disturbance at the ends of the rod and gradually decreases towards the center of the rod. At $t = 20$ s, the angle of inclination α_2 is the least and it gradually increases at $t = 40$ s and at $t = 80$ s it takes the greatest value. According to these graphs, with an increase in the moment of time at two rigidly fixed ends, an increase toward the center of the rod is observed, as well as different values of oscillations at different points of the rod. At $t = 20$ s, the oscillation amplitude is small and only at the boundary points it takes on a non-zero value; at $t = 40$ s and $t = 80$ s, the oscillations amplitude increases, the greatest values are reached at points near the center. As the time increases, the angle of inclination α_2 is negative.

Fig. 6 shows the graphs of oscillation propagation of the angle of torsion θ along the length of the rod at the moments of times $t = 20$ s, $t = 40$ s and $t = 80$ s.

From these graphs it follows that the angle of torsion θ has the greatest disturbance at the ends of the rod, and gradually decreases towards the center of the rod.




Fig. 6. Oscillations propagation of the angle of torsion $\theta \times 10^3$ along the length of the rod at different moments of time

With increasing time, the value of the disturbance gradually increases. At small values of time main oscillations of the rod with fixed ends occur in the boundary region. In the center part a constant value is set. With time the disturbances are transferred closer to the center and the middle part at $t = 40$ s and $t = 80$ s has a constant non-zero value. If the center part of the constant torsion at $t = 20$ s has had a positive value, then with time it takes a negative value.




Fig. 7. Oscillations propagation of the angle of running twist $\mathcal{G} \times 10^2$ along the length of the rod at different moments of time

Fig. 7 shows the graphs of oscillation propagation of the angle of running twist \mathcal{G} along the length of the rod at moments of time $t = 20$ s, $t = 40$ s and $t = 80$ s. The nature of oscillations repeats the pattern of the angle of running twist: with time, the middle part of the constant value decreases gradually. Large oscillations gradually move from the ends of the rod to its center. Difference from Fig. 6 is that the constant longitudinal torsion in the middle part of the rod increases gradually and always remains positive.

The graphs of oscillations propagation of shear angles β_1 and β_2 along the length of the rod at different moments of time qualitatively repeat the graphs in Fig. 6. The intervals of changes of $10^2 \cdot \beta_1$ and $10^2 \cdot \beta_2$ amount to $(-0,0005; 0,0015)$.

In such a way the processes of oscillations of spatially loaded rods are investigated in linear statements.

References

[1] Decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On the Strategy of Actions for further Development of the Republic of Uzbekistan". UP-4947 on 7 February, 2017.

[2] Anarova Sh.A., Yuldashev T., Mathematical Models of Spatially Loaded Rods with Allowance for the Torsion Function and Transverse Shears // TATU Habarlari. - 2014. - № 4 (32). - Pp. 76-86.

[3] Anarova Sh.A., Yuldashev T., Derivation of Mathematical Model of Spatially Loaded Rods with Allowance for the Torsion Function and Transverse Shears // Problems of Computational and Applied Mathematics. - Tashkent, 2015. - № 1. - Pp. 28-40.

[4] Nazirov Sh.A., Yuldashev T., Anarova Sh.A. Derivation of Variation Equations for the Oscillations of Thin-walled Rods under Spatial Loading / Problems of Computational and Applied Mathematics: Scientific Transactions - Tashkent, Center for RPP and APK, 2013. - vol. 129. - Pp.155-166.

[5] Nazirov Sh.A., Anarova Sh.A. Mathematical Model of Oscillations of Spatially Loaded Thin-walled Rods // Modern Problems of Mechanics and Mathematics: Proc. of the International Scientific Conference dedicated to the 85th anniversary of Academician of the National Academy of Sciences of Ukraine Yaroslav Stepanovich Podstrigach and the 40th anniversary of scientific institute in the field of mechanics and mathematics. May 21-25, 2013. - Lvov, 2013. - Pp. 81-83.

[6] Yuldashev T., Anarova Sh.A. Derivation of Variation Equations of Spatially Loaded Rods with Allowance for the Torsion Function and Transverse Shears. Modern Methods of Mathematical Physics and Their Applications: Proc. of the Republican scientific conference with the participation of foreign scientists. April 15-17, 2015. - Tashkent, 2015. - Pp. 244-245.

[7] Yuldashev T., Anarova Sh.A. Mathematical Model of Spatially-loaded Rods Taking into Account the Torsion Function // Radioelectronics, information and telecommunication technologies: problems and development: Proc. of the International Scientific Conference. May 21-22, 2015. - Tashkent, 2015. - Pp. 14-17.

[8] Anarova Sh.A., Nuraliev F.M., Dadenova G. Mathematical Model of Spatially Loaded Rods with Torsion Function and Transverse Shears // International Journal of Technical Research and Applications e-ISSN: 2320-8163, www.ijtra.com Volume 4, Issue 1 (January-February, 2016). - Pp. 22-32.

[9] Kabulov V.K. Algorithmization in the Theory of Elasticity and Deformation Theory of Plasticity. - Tashkent: Fan, 1966. - 391 p.

[10] Anarova Sh.A., Safarov Sh.Sh. Software for Stress-strain State of Rods under Static Loading// Problems of computational and applied mathematics. - Tashkent, 2016. - № 4. - Pp. 20-34.

Anarova Shahzoda Amanbaevna

Doctor of sciences Tashkent university of information technologies named after Muhammad al-Khwarizmi, Associate Professor of Audiovisual Technology

Эл. почта: omon_shoira@mail.ru

Ш.А. Анарова

Исследование колебательных процессов пространственно нагруженных стержней в динамике

В статье рассмотрены процессы колебаний пространственно нагруженных стержней в линейной постановке. Результаты представлены в виде графиков. Дано описание полученных результатов и сравнительный анализ всех параметров поставленной задачи.

Ключевые слова: стержень, колебания, пространственная нагрузка, процесс колебаний.

УДК51-77

Axatov A.R, Nurmatov M.Q.

Shaxsiy ma'lumotlar asosida har bir kishining ijtimoiy ahvolini monitoring qilish va aholi sharoitlarini bashoratlash modellarini ishlab chiqish

Tadqiqot ishida ijtimoiy va mehnat jarayonlarini o'rganish bo'yicha dastlabki ishlar haqida ma'lumotlar berilgan. Modellashirish, mintaqadagi ijtimoiy va mehnat jarayonlarini tahlil qilish, prognozlash va tartibga solish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan matematik modellar tadqiq qilingan. Respublika aholisining yagona ma'lumotlar bazasini yaratish hamda shaxsiy ma'lumotlar asosida har bir kishining ijtimoiy ahvolini aniqlash, aniqlangan ma'lumotlar asosida ijtimoiy ahvolni yaxshilashga tavsiyalarni beruvchi axborot tizimini ishlab chiqish bosqichlari keltirilgan. Tizimning ma'lumotlar bazasini tashkillashtirish sxemasi yaratilgan.

Kalit so'zlar: bandlik, iqtisodiy-matematik modellar, ijtimoiy-iqtisodiy modellar, ma'lumotlar bazasi, axborot xavfsizligi, axborot tizimlari.

Mavzuning dolzarbligi: Hozirgi vaqtda amalga oshirilgan keng ko'lamli islohatlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqoralarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yogga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilib kelinmoqda.

Jamiyatimizdagi tub o'zgarishlarning bosh g'oyasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti muhtaram Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning g'oyasi va bevosita rahbarligida ishlab chiqilgan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi O'zbekiston hayotining ajralmas qismiga aylandi. Harakatlar strategiyasi bu O'zbekiston hayotini yanada yaxshilashning qadamma-qadam rivojlantirish tendensiyasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi tomonidan Xalqaro mehnat tashkilotining 14 ta Konvensiyasi ratifikatsiya qilingan. Ushbu konvensiyalar sirasiga "Majburiy mehnatni tugatish to'g'risida"gi 105-Konvensiya, "Bolalar mehnatining og'ir shakllarini taqiqlash va yo'q qilishga doir shoshilinch choralar to'g'risida"gi 182-Konvensiya kiradi. Respublikamizda qabul qilinayotgan meyoriy hujjatlar ham bu fikrlarimizni tasdiqlaydi, jumladan, O'zbekiston Respublikasining qonuni 2016-yil 22-sentabr № O'RQ-410 mehnatni muhofaza qilish to'g'risida (yangi tahriri). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 may, PQ-3001-son qarori "O'zbekiston Respublikasi bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018 yil 14 iyul, PQ-3856-son qarori "Axoli bandligini ta'minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018 yil 5 martdagi PQ-3584-sonli "O'zbekiston Respublikasi fuqoralarining vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun respublika tashqarisiga transportda chiqish vaqtida xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda "2018 yilda aholi bandligiga ko'maklashish davlat dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018 yil 3 fevraldagi PQ-3506-son Qarorlari. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 oktyabrdagi 799-sonli "O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Jamoat ishlari jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlar qabul qilingan[1,2] Mavjud qonunlar va qarorlar ijrosini ta'minlash maqsadida globallashtirish sharoitida axborot oqimining keskin ortib borishi, bunday ma'lumotlar oqimini qisqa vaqt ichida qayta ishlash muammosi ham ortib bormoqda. Insoniyat olamining shaxsiy ma'lumotlar to'plamini yagona ma'lumotlar bazasiga jamlangan holda qayta ishlash ko'pgina masalalarni hal etish imkoniyatini beradi. Axborotlashgan jamiyatdagi hal

etilishi zarur bo'lgan masalalardan biri - insoniyatning shaxsiy ma'lumotlarga tayanib ijtimoiy holatni shaffof aniqlash hamda mavjud aniqlangan ma'lumotlar asosida har bir kishining ayniqsa, ijtimoiy ahvoli og'ir bo'lgan, nogiron va kam taminlangan aholining bandlik holatini aniqlash, aniqlangan ma'lumotlar asosida aholi ijtimoiy holatini yaxshilashga tavsiyalar berish dolzarb masaladir.

Muammoni o'rganish yo'nalishi va masalaning qo'yilishi: Ijtimoiy va mehnat jarayonlarini o'rganish bo'yicha ishlarning dastlabki bosqichi Shveysariya, Fransiya, Buyuk Britaniya, AQSh, Yaponiyada (G. Akerlof, M. Alle, G. Bekker, S. Komander, J. Yellen, L. Kats, R. Smit, R. Erenberg, M. Harper, S. Speckesser va boshqalar) amalga oshirilgan va bu ishlar hozirgi kungacha davom etmoqda. Ushbu ilmiy ishlar ko'p sonli chuqur nazariy g'oyalarni o'z ichiga oladi, ijtimoiy va mehnat jarayonlarini o'rganishda uslubiy yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo yaxlit ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida ijtimoiy va mehnat jarayonlariga bo'lgan talablar qabul qilinmadi va ularni hozirgi kunda rivojlantirilmogda. O'zbekistondagi transformatsion jarayonlarning eng muhim tarkibiy qismi iqtisodiy va siyosiy institutlardagi tub o'zgarishlardan keyin aholi o'rtasida hayot tarzini yaxshilashning yangi tizimiga o'tish jarayoni amalga oshmoqda. Kichik va shaxsiy tadbirkorlikni rivojlantirish, iqtisodiyotning muvaffaqiyatli tarmoqlarida aholi bandligini ta'minlash. Ko'p sonli murakkab tizim obyektlarini chuqur sifatli o'rganish iqtisodiy-matematik usullar va modellarining zamonaviylarini ishlab chiqish orqali amalga oshirish mumkin. Ammo ijtimoiy o'rganish natijalari O'zbekistonda ham, undan tashqarida ham mehnat jarayonlarida statistika ma'lumotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday jarayonlarda tizimli tahlil usullari va klassik regressiya modellari qo'llaniladi. Shuni ta'kidlash kerakki statistik ma'lumotlarni o'rganishda bir qator qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin [3]

Bunday tizimlardagi foydalanuvchilarning ko'p qiymatli ma'lumotlari asosida murakkab tizim obyektlarini chuqur sifatli o'rganish, mavjud iqtisodiy va matematik usullardan foydalanish hamda zamonaviy modellarni ishlab chiqish va amalga oshirish asosida muammoni hal qilish mumkin bo'ladi. Ijtimoiy va mehnat jarayonlarini o'rganishda statistik usullar muhim ahamiyat kasb etganligi sababli klassik regressiya modellari qo'llaniladi. Statistik ma'lumotlarni o'rganish bir qator qiyinchiliklarga duch kelishi mumkinligini unutmazlik lozim. Ushbu qiyinchiliklarni yengillashtirish uchun noravshan matematik modellardan foydalanish maqsadga muvofiq. Noravshan to'plamlar nazariyasini qo'llashning yangi samarali usullarini xorijlik Bojadziev G., Zimmermann XJ, Zadeh L., Bellman R., Tah X.M, Nedosekin A.O., Bocharnikov V.P.lar ishlab chiqqan, [4-7]

Hozirgi paytgacha noravshan matematik modellar ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish, prognozlash va model-lashtirish sohasida bir qancha ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Lekin hozirgi vaqtda O'zbekiston sharoitida shaxsiy ma'lumotlar asosida har bir kishining ijtimoiy holatini aniqlashning matematik modellarini optimallashtirish va ya-gona axborot tizimi to'liq ishlab chiqilmagan.

Masalaning matematik modelini ishlab chiqish.

Tadqiqotning asosiy maqsadi modellashtirish va mintaqadagi ijtimoiy va mehnat jarayonlarini tahlil qilish, prognozlash va tartibga solish uchun quyidagi muammolarni hal qilish zarur: O'quv obyektining nazariy konsepsiyasini ishlab chiqish, tizim yaratish, iqtisodiy matematik modellarni optimallashtirish olin-gan ma'lumotdan foydalangan holda Samarqand viloyati misolida sinab ko'rish qisqa va o'rta muddatli istiqboldagi ijtimoiy jarayonlar, mehnat jarayonlarining rivojlanish prognozini tuzish uchun modellarni ishlab chiqish kerak.

Amalga oshirilayotgan ishlar natijasida noravshan iqtisodiy va matematik modellar tizimi yaratilishi. Huddudagi ijtimoiy jarayonlar, mehnat jarayonlarining rivojlanishini va o'rganila-yotgan jarayonlar tahlili va prognozini ishlab chiqish jarayonini tartibga solishni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chi-qish uchun quyidagi ilmiy natijalarga erishish lozim:

1. Ijtimoiy va mehnat munosabatlarini o'rganishning ma-tematik modellarini ishlab chiqish, ishlab chiqilgan model-larning mintaqaviy xususiyatlarini inobatga olgan holda o'zaro bog'liqligini tashkil qilish.

2. Yaratilayotgan dasturiy ta'minotda iqtisodiy-matematik modellardan foydalangan holda kiritilayotgan ma'lumotlarni tahlil qilish, prognozlash va tartibga solish jarayonini avtomat-lashtirish. Viloyatdagi ijtimoiy va mehnat jarayonlari, shu jumladan mehnat salohiyati, mehnat bozori faoliyati, ish haqini inobatga olgan holda foydalanuvchiga aniq bir yo'nalish bo'yi-cha kerakli mehnat yo'nalishini taklif qilish.

3. O'rta va uzoq muddatli davr uchun ijtimoiy retrospektiv tahlil va prognoz qilishda iqtisodiy matematik modellardan foy-dalangan holda Samarqand viloyatidagi mehnat jarayonlarini avtomatlashtirish[4]

Hozirgi paytgacha mualliflar tomonidan yaratilgan ijtimoiy va mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi matematik model-larni quyidagi sinflarga ajratiladi.

- **Maxsus matematik modellar**
- **Klassik universal matematik modellar**
- **Yangi universal matematik modellar**

Maxsus matematik modellarga misol bo'lib mualliflar tomonidan oldin ishlab chiqilgan mehnat bozorini shakllantirish va rivojlantirishning imitatsiya modellari tizimi xizmat qiladi. Tizimdagi yettita qiymatli tenglama mehnat bo-zorida ishchi kuch bo'yicha takliflarini shakllantirishni tavsiflaydi, oltita qiymatli tenglama esa ishchi kuchiga extiyojni shakllantirishni akslantiradi. Bunday modellar sinfiga yana bir misol bo'lib mehnat bozoridagi keskinlikni integral baholash modeli xizmat qilishi mumkin.

Hozirgi kunda mehnat bozorini o'rganishda quyidagi mavjud modellardan foydalaniladi:

- mehnat bozorini shakllantirish va rivojlantirish modeli;
- mehnat bozoridagi keskinlikni kompleks baholash modeli,
- qishloq aholisining mehnat bozoridagi jinsi, yoshi, ma'lu-moti darajasi va yashash joyi holatiga bog'liqlikning multinom-inal logistik modellari;
- Chebishev kuchlanishiga bog'liq bo'lgan noaniq chiziqli regressiya modeli mintaqaviy mehnat bozoridagi ijtimoiy-iqti-sodiy va demografik omillardan kelib chiqqan holda, hududning mehnat bozoridagi bo'sh ish o'rinlari sonini aniqlashning noravshan vaqt seriyasi modeli va boshqalar.

Yuqoridagi modellarni hisobga olgan holda natijaviy model quyidagicha bo'ladi:

$$S_t = c_t \cdot (Y_t + W_t + P_t + TS_t + MP_t + B_t) + E_t$$

$$D_t = c_t \cdot (VR_t + NR_t + TD_t + NS_t + P3_t) + E_t$$

Bu yerda:

C_t – t davridagi ishchilar umumiy sonidagi yollangan ish-chilarning ulushi ($t = 1 \dots T$);

Y_t – ish bilan ta'minlashga muhtoj yoshlar soni;

W_t – bola parvarish qilish uchun olingan ta'tildan keying ishga muhtoj bo'lgan ayollar soni;

P_t – ishlashni istagan nafaqaxo'rlar soni;

TS_t – xodimlar aylanmasidan kelib chiqqan ish kuchi;

MP_t – hududga ishlash uchun kelgan odamlar soni (mi-gratsiya);

B_t – bo'shatilgan ishchilar soni;

E_t – hudud iqtisodiyotida band bo'lganlar soni (ish o'rin-larini almashtirganlar);

VR_t – bo'sh ishchilar hisobiga qo'shimcha ishchi kuchi joylarda;

NR_t – yangi ish joylari tufayli ish kuchiga talab;

TD_t – kadrlar almashinuvi tufayli qo'shimcha ishchilarga talab;

NS_t – vafot etgan ishchi kuchi soni;

$P3_t$ – nafaqaga chiqish natijasida bo'shatilgan ish o'rin-larining soni.

Ushbu sinfga tegishli modellarining yana bir namunasi si-fatida mehnat bozori kuchlanishni integral baholash modelini keltirish mumkin:

$$J_H^r = 0,182y_1^r + 0,179y_2^r + 0,148y_3^r + 0,131y_4^r + 0,125y_5^r + 0,112y_6^r + 0,176y_7^r + 0,047y_8^r,$$

Bu yerda:


J_H^r – kuchlanish indeksi; r – tuman va shaxar ko'rsatkichi (o'zbekiston respublikasi uchun $r = 1 - 200$)(30 ta shaxar 170 ta tuman); y_i^r – birlashtirilgan mintaqadagi kuchlanish-ning o'ziga xos ko'rsatkichi (y_1^r – rasmiy ravishda ro'yxatdan o'tgan ishsizlar soni; y_2^r – bitta bo'sh ish joyi uchun ishsiz fuqarolar soni; y_3^r – bir ishchiga hisoblangan o'rtacha oylik ish haqi; y_4^r – izlayotgan ishsizlarning nisbati bir yildan ortiq ishlash; y_5^r – bitta ishchi uchun kechiktirilgan ish haqi bo'yi-cha qarzdorlik miqdori; y_6^r – ishsizlarning umumiy sonida yoshlar ulushi; y_7^r – ish vaqtining qisqartirilgan va ma'muriy ishlarda ishlashi sababli o'zlashtirilmagan vaqt ta'tili; y_8^r – ishsizlarning umumiy sonida ayollar ulushi); y_i^r – mehnat bo-zoridagi keskinlikning xususiy ko'rsatkichlarining nisbiy ahamiyatligi koeffitsiyentlari.

Hozirgi kunda mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan noravshan matematik modellar orasida mintaqadagi ijtimoiy va mehnat jarayonlarida noaniq chiziqli regressiyali ifodalash uchun Chebishev go'yasiga ko'ra, mintaqaviy mehnat bozoriga ijtimoiy-iqtisodiy va demografik omillar bog'liqligini ko'rish mumkin.

Modelning matematik asosi ushbu $Y = f(x_1, x_2, \dots, x_k)$ tenglama bilan ifodalaniladi, bu yerda $f \in \Phi$ – kirishning o'zaro ta'sir mexanizmini tavsiflovchi ba'zi bir oiladan olingan aniq bo'lmagan Φ funktsiya, kirish va chiqish omillarining o'zaro ta'sir mexanizmini tavsiflash ya'ni (x_1, x_2, \dots, x_k) Y – noravshan raqamlibilan bog'liq to'plamning qiymati. Kuzatilayotgan qiymati $y_i \in R$ ga mos $(x_{i1}, x_{i2}, \dots, x_{ik})$ noravshan raqamni aniqlash uchun $Y_i = f(x_{i1}, x_{i2}, \dots, x_{ik})$ funktsiyani ko'rib chiqamiz.

Ikkinchi model ijtimoiy va mehnat jarayonlarining rivojlanish dinamikasini o'rganish uchun ishlab chiqilgan, noravshan vaqt seriyasi usuli yordamida belgilangan hudud mehnat bozorida bo'sh ish o'rinlari sonini aniqlash uchun namuna bo'la oladi.

Yani $\tilde{X}_t = \tilde{X}_{t-\tau} \circ R(t, t - \tau)$ vaqt qatori kompozitsiyasi sifatida qaraladi. Bu yerda $\tilde{X}_{t-\tau}$ qiymati tufayli $\tilde{X}_t - t$ indikatorning qiymati, avvalgi bosqichda ketma-ketliklarni tahlil



1-rasm. Ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash jarayoni.

Yuqorida tasvirlangan 1-rasmda foydalanuvchilarning ma'lum bir turga mansub ma'lumotlari alohida modellar asosida tavsiyalarni ishlab chiqish jarayoni aks ettirilgan. Ishlab chiqilgan model, algoritim va usullar asosida yaratiladigan axborot tizimida Respublikaning har bir aholisining kelajakda sodir bo'lishi mumkin ijtimoiy va iqtisodiy holatini bashorat qilish asosida tavsiyalar berib borish ijtimoiy ahvolning keskin o'zgarishiga olib keladi.

Foydalanuvchi ma'lumotlar bazasini modellashtirish va loyixalashtirishda tarmoq texnologiyalaridan moslashtirish kerak chunki bu tizim tarmoqda ishlashga mo'ljallangan. Mavjud ma'lumotlar asosida foydalanuvchining ijtimoiy holati haqida xulosa qilishning turli modellarini tadqiq qilish mavjud modellarning hudud uchun mosligini tekshirish jarayonini turli pratseuralar yordamida tashkil qilinadi. Ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash uchun zamonaviy kriptografik metodlari tadqiq qilish va ma'lumotlar bazasini shakllantirish jarayonida axborot xavfsizligini taminlashning yangi usullarni taklif qilish va qo'llash[10]

Bu tadqiqot natijasida ishlab chiqiladigan axborot tizim o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yengillashtirish va optimallashtirishga xizmat qiladi hamda ijtimoiy ahvoli og'ir insonlar holatini real vaqt rejimida bartaraf etish imkonini yaratadi.

Kelajakda quyidagi ilmiy natijalarni olish kutilmoqda:

1. Iqtisodiy-matematik modellarni tahlil qilish, dasturlar kompleksini yaratish, yaratilayotgan dasturda mintaqadagi

qilish jarayonida hosil bo'lgan $R(t, t - \tau)$ noaniq munosabatlarning indikatorning t vaqt holatidagi yo'nalishini ko'rsatadi[2]

Shaxsiy ma'lumotlar asosida har bir kishining ijtimoiy holatini aniqlash va bandligini monitoring qilish tizimini loyihalashtirish.

Respublika aholisining yagona ma'lumotlar bazasini yaratish hamda shaxsiy ma'lumotlar asosida har bir kishining ijtimoiy ahvolini aniqlash, unga ijtimoiy ahvolni yaxshilashga tavsiyalarni beruvchi axborot tizimi ishlab chiqiladi.

Axborot tizimini ishlab chiqishda quyidagi bosqichlarni bajarish asosiy vazifa etib belgilanadi:

a) Foydalanuvchi ma'lumotlar bazasini modellashtirish va loyihalashtirish;

b) Mavjud ma'lumotlar asosida foydalanuvchining ijtimoiy holati haqida xulosa qilishning turli modellari va ularni qo'llash yondashuvlarini aniqlashtirish;

c) Ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash uchun zamonaviy kriptografik metodlari asosida axborotlarni himoyalash algoritmlarini ishlab chiqish va qo'llash;

d) Kompyuter tarmoqlarida shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berishning yangi yondashuvlari, usul va algoritmlarini ishlab chiqish hamda qo'llash[11];

Ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash jarayonini shakllantirishning umumiy sxemasi 1- rasmda ko'rsatilgan.

ijtimoiy mehnat jarayonlarini rivojlantirish va tartibga solish. Shu jumladan, mehnat potensialining shakllanishini model-lashtirish, taqsimlash va ishlatilishida jarayonlarni bashorat qilish hamda takliflar berish.

2. retrospektiv tahlil va prognozni qo'llagan holda o'rta va uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan ijtimoiy-mehnat jarayonlarini iqtisodiy matematik modellar yordamida tahlil etish. Xususan, darajalar tahlili va prognozi, dinamikasi va mehnat unumdorligi va ish haqi, talab va taklifning mehnat bozoridagi harakat mexanizmlari, mehnat salohiyatini shakllantirish va undan foydalanish.

3. Mintaqadagi ijtimoiy va mehnat siyosatini takomillashtirish bo'yicha takliflar berish.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda yurtimizda aholi bandligini taminlash bo'yicha aniq bir axborot tizimi modellarni ishlatish va ishlatilayotgan matematik modellarni avtomatlashtirilgan holda ishlatish kerak. Aholi ma'lumotlar bazasini shakllantirishda yoshi, jinsi, mehnatga layoqatligi, egallagan kasbi, ma'lumoti va boshqa parametrlarga etibor

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining qonuni "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida (yangi tahriri)" 2016-yil 22-sentabr № O'RQ-410

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 iyul, PQ-3856-son qarori "Axoli bandligini ta'minlash bo'lasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida".

3. И. В. Пономарев, Е. Д. Родионов, Л. В. Родионова // Сборник трудов Всероссийской конференции по математике "МАК-2016". Материалы молодежной прикладной IT школы "Математическое моделирование в экологии, агро-экологии и природопользовании", Изд-во АлтГУ, 2016. - С. 152–154.

4. Пономарев, И., Родионов, Е., & Родионова, Л. (2016). Математическое моделирование социально-трудовых процессов. Труды семинара по геометрии и математическому моделированию, (2), с. 65-69.

5. Wojadziev G., Wojadziev M. Fuzzy Sets, Fuzzy Logic, Applications. - World Scientific Pub Co. - 1996.

6. Tah N.M., Carr V. A proposal for construction project risk assessment using fuzzy logic. Construction Management & Economics. — 2000. — Vol. 18, no. 4.

7. Бочарников В.П. Fuzzy-технология: Математические основы. Практика моделирования в экономике. — СПб. : Наука - РАН, 2001.

8. Zimmerman H.-J. Fuzzy Set Theory and its Applications. Dordrecht: Kluwer Academic Publishers. - 1996. - 315 p.

9. Гулов А.В., Пономарев И.В. Моделирование численности вакансий на рынке труда Алтайского края // Известия Алтайского государственного университета. - 2014. - №1/2. - С. 81-85.

10. Ахатов А., Назаров Ф. Проектирование баз данных системы автоматизированного мониторинга, анализа и прогнозирования показателей процессов оплаты образовательных контрактов. // "Фан ва технологиялар таракқиети"

Бухоро Мухандислик Технологиялари Институту илмий журнали. -2018.№ (4). [128-134]

A
R
A
x

Axatov Akmal Rustamovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti fizika filiali direktor o'rinbosari

v

Nurmamatov Mehridin Qahramonovich

Samarqand davlat univrsiteti Axborotlashtirish texnologiyalari kafedrasida assistenti

El. pochta: mehridinnur@gmail.com

r

m

a

m

t

o

v

h

o

h

o

h

o

h

o

h

o

h

o

h

o

h

o

h

o

h

o

h

o

h

o

h

o

h

o

h

o

h

o

h

o

h

o

h

o

h

o

h

o

h

o

h

o

h

o

h

o

h

o

h

o

h

УДК 004.8, 519.254

Нишанов А.Х., Акбаралиев Б.Б., Жўраев Ғ.П.

Юрак ишемик касалликлари симптокомплексларини танлашнинг мослашувчан тасодифий қидирувга асосланган алгоритми

Маълумотларга дастлабки ишлов беришда, айниқса, тимсолларни аниқлаш муаммосида объектларни таснифловчи информатив белгилар мажмуасини аниқлаш ва синфлаштириш муҳим масала ҳисобланади. Келтириб ўтилган масалаларни ҳал қилиш бўйича бир қатор усул ва алгоритмлар таклиф этилганлигига қарамай, бу йўналишда ўз ечимини кутиб турган муаммолар талайгина. Бунга сабаб, таклиф этилган ёндашувларнинг аксарияти тадқиқот объект моҳияти, унинг белгилари сони, белгиларнинг қабул қилиши мумкин бўлган қийматлари тури, ўқув танланма ҳажми ва хоказоларга кучли боғлиқ бўлиб, келтириб ўтилганларга нисбатан маълум бир талаблар мавжуд. Бундан ташқари, ҳар бир усул ёки алгоритм белгиларни танлаб олишнинг информативлик мезони ва танлаб олинган танламанинг сифатини белгилаб берувчи ҳал қилувчи коидани тўғри танланганлигига кучли боғлиқ бўлади. Шуларга боғлиқ равишда кўплаб усул ва алгоритмларнинг самарадорлиги ва ишончилиги турғун эмас.

Қуйида таклиф этилаётган мослашувчан қидирув алгоритми қайсидир маънода универсалдир, чунки, бунда белгилар турли турдаги қийматларни қабул қилиши мумкин ҳамда белгилар мажмуасини танлаб олиш учун таклиф этилаётган информативлик мезони, айнан, синфлаштиришдаги хатоликни камайтиришга асосланган. Бундан ташқари, белгиларни танлаб олишда фойдаланилган эҳтимоллик вектори объектларни муҳим белгиларини танланмадан ўринсиз чиқариб юборилишини олдини олади. Мазкур алгоритм орқали юрак ишемик касалликлари таркибига кирувчи зўриқиш стенокардияси, ўткир миокард инфаркти ва миокард инфарктнинг аритмик шакли билан оғриган беморларнинг диагностик маълумотларига дастлабки ишлов берилган. Бунда беморлардаги клиник белгилар, симптомлар асосида касалликни симптокомплексларни танлаб олиш ва синфлаштириш масаласи тадқиқ қилинган. Тадқиқот натижалари келтириб ўтилган.

Таянч иборалар: маълумотларга дастлабки ишлов бериш, информативлик мезони, симптокомплекс, белгиларни танлаш, синфлаштириш хатолик коэффициенти, мослашувчан қидирув.

Кириш

Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти маълумотларига кўра, барча ўлим ҳолатларининг 56 фоизи юрак-қон томир тизими касалликлари оқибатида келиб чиқади. Европа мамлакатларида юрак-қон томир касалликлари йилига 4,3 млн (48%) аҳоли ўлимига сабабчи бўлмоқда.

Давлат статистика қўмитаси хабарига кўра, Ўзбекистон Республикасида 2019 йилнинг январь-июнь ойларида вафот этган фуқароларнинг 62,1 фоизи ҳолатда айнан қон айланиш тизими касалликлари сабаб қилиб кўрсатилган [1]

Юрак-қон томир тизимига кирувчи ва энг кенг тарқалган касалликлардан бири бу юрак ишемик касаллигидир (ЮИК). Бундан ташқари, юрак-қон томир касалликлари билан вафот этаётганларни 40% улуши айнан ЮИКга тегишли бўлиб қолмоқда [2]

Соҳа мутахассисларини таъкидлашча “Даволашнинг самарадорлиги ва хасталик оқибати ўз вақтида ташхисни аниқлашга, зудлик билан жадал даво кўрсатиладиган хонага ётқизишга, юрак-қон томир системаси ҳолатига ва хасталикнинг клиник кўринишига нисбатан даволаш воситаларини эрта қўллашга бевоқифа боғлиқ. Бемор камида 24 соат ўринда ётиши шарт, чунки пассив ҳолат миокарднинг кислородга бўлган эҳтиёжини камайтиради, шикастланиш соҳаси кенгайишига қаршилик кўрсатади, ҳар хил асоратлар ривожланишининг олдини олади, шикастланган миокардда репаратив (чандикланиш) жараёни тезлаштиради. 2-куни ўринда пассив ҳаракатга руҳсат берилади. Агар асоратлар кузатилмаса, 3-куни ўринда ўтириш мумкин” [3]

Юқоридагилардан кўриниб турибдики, ушбу турдаги касалликларда тўғри ташхис қўйиш ва тезкор қарор қабул қилиш энг муҳим вазифалардан бири бўлиб ҳисобланади. Бу эса соҳага ривожланган математик аппарат ва ахборот коммуникация технологияларини кенг жорий қилиш нақадар лозимлигини кўрсатади.

Одатда, кўплаб амалий масалаларни ҳал қилишда, тадқиқот жараёни моделини (математик, физик, технологик, ва ҳоказо) қуриш ва тадқиқот объектлари бошланғич маълумотлар базасини шакллантириш ҳамда объектларни таснифловчи характеристик белгиларни аниқлаш муҳим ҳисобланади.

Мазкур масалаларни ижобий ва ишончли ҳал қилиш соҳа мутахассислари томонидан тақдим этилган ўқув танланма сифати билан чамбарчас боғлиқ бўлади. Чунки, барча амалга ошириладиган илмий изланишлар берилган ўқув танланма объектлари хосса ва хусусиятларига таянган ҳолда олиб борилади.

Таҳлиллар натижаси шуни кўрсатадики, кўпинча, объект ва жараёнлар мураккаб тузилишга эга бўлиб, уларни ифодаловчи математик моделларни қуриш ўта мураккаб ёки умуман иложи йўқ. Бундай вазиятларда тақдим этилган маълумотларни қайта ишлаш, яъни уларга дастлабки ишлов бериш лозим бўлади. Масалан, бизга объектлар тўплами берилган бўлсин. Агар бу тўплам ичидан шу тўплам хусусиятларини етарлича аниқликда ифодалаб берувчи объектларни танлаб олиш имконияти мавжуд бўлса, у ҳолда берилган объектларни барчасини тадқиқ қилишга зарурат бўлмайди. Айнан, шу танлаб олинган объектлар ўқув танланмани ташкил қилади. Ўқув танланма объектлари бўйича барча маълумотлар соҳа мутахассислари томонидан тақдим этилади.

Ҳар бир объект ўзига хос «белги»лар тўплами билан тавсифланиб, улар сон, сифат кўрсаткич ва ёки функционал боғлиқлик кўринишда бўлиб, объектни турли хил хусусиятларини ифодалайди.

Маълумотларга дастлабки ишлов беришда тимсолларни таниб олиш назарияси ва амалиёти муҳим аҳамият касб қилиб, унинг асосини тадқиқот объекти бўйича ўқув танланма ташкил этади.

Тадқиқот ишончилиги ва самарадорлигини ошириш учун ўқув танламанинг муқамаллигини аниқлаш муҳим ҳисобланади. Бу йўналиш бўйича амалга оширилган бир

катор ишларни келтириб ўтиш мумкин, масалан, ўқув танланма маълумотларини таҳлил ва интеграция қилиш [4-8], ўқув танланма объектларини параметрлари кесимида нормаллаштириш [9-14], ўқув танланма асосида эталон жадвалини шакллантириш [15-21], объектларни таснифлаб берувчи информатив белгилар мажмуасини танлаш [22-27], информатив белгилар фазосида синф объектлари, белгилар ва синфларнинг муҳимлик даражаларини аниқлаш [25-27], синфлаштириш [28-33]

Умуман олганда, маълумотларга дастлабки ишлов бериш бўйича мавжуд илмий ишланма ва эришилган ютуқлар таҳлили шуни кўрсатмоқдаки, уларнинг бирортасини ҳам қатъий равишда бир қийматли афзал деб бўлмайди. Сабаби уларни бевосита амалий масалаларга тадбиқ қилиб қутилган натижани олиш имконияти ҳозирча етарли эмас. Чунки, уларнинг қўллари тадқиқот объекти, унинг белгилари сони, белгиларнинг қабул қилиши мумкин бўлган қийматлари, ўқув танланма ҳажми ва хоказолар бўйича маълум бир талабларни талаб этади. Бундан ташқари, ҳар бир усул ёки ёндашув белгиларни танлаб олишнинг информативлик мезони ва танлаб олинган танламанинг сифатини белгилаб берувчи ҳал қилувчи қоидага боғлиқ бўлади. Шуларга боғлиқ равишда қўлаб усул ва ёндашувларнинг самарадорлиги ва ишончилиги турғун бўлмайди. Шу билан бирга уларни амалга ошириш мавжуд техник воситаларга ҳам боғлиқ бўлади. Бундай мулоҳазалардан келиб чиққан ҳолда, шуни айтиш мумкинки, аниқ бир усулни танлаш қўйилган тайин бир масала ва мавжуд амалий имкониятларга боғлиқ равишда амалга оширилади.

Мақолада, келтириб ўтилган баъзи муаммоларни ҳал қилиш учун, қуйидаги илмий тадқиқотларни амалга ошириш назарда тутилган:

- тадқиқот объектларини таснифловчи информатив белгилар мажмуасини танлаш;
- синфлаштириш самарадорлиги ва ишончилигини бошланғич ҳолатга нисбатан ошириш;
- нотўғри синфлаштирилган объектларни аниқлаш ва таҳлил қилиш;
- соҳа мутахассислари томонидан ЮИК бўйича тақдим этилган беморларнинг диагностик маълумотларига (анамнез, физикал, лаборатор ва инструментал текширув) дастлабки ишлов бериш;
- беморлардаги клиник белгилар ёки симптомлар асосида касалликни симптокомплексларни танлаб олиш;
- ЮИК беморларини “зўриқиш стенокардияси”, “ўткир миокард инфаркти” ва “аритмик шакл” тоифаларига синфлаштириш.

Масаланинг математик таснифи

Фараз қилайлик, ўқув танланма объектлари қуйидаги кўринишида ифодаланган бўлсин:

$$X = \cup_{p=1}^r X_p, X_p \cap X_q = \emptyset, p \neq q, p, q = \overline{1, r},$$

$$X_p = \{x_{pi}; i = \overline{1, m_p}\}, \quad (1)$$

бу ерда x_{pi} – p – синф объекти, r – ўқув танланмадаги синфлар сони, m_p эса p – синфдаги объектлар сони.

Ҳар бир x_{pi} объект N та белги орқали таснифланган бўлсин, яъни $x_{pi} = (x_{pi}^1, x_{pi}^2, \dots, x_{pi}^N)$. Демак, $\exists D (\dim(D) = N)$ мавжудки, $\forall x_{pi} \in D$. Бундай ҳолда D белгилар фазосини намоён қилади.

Берилган ўқув танланма объектлари $x_{11}, x_{12}, \dots, x_{1m_1}, x_{21}, x_{22}, \dots, x_{2m_2}, \dots, x_{r1}, x_{r2}, \dots, x_{rm_r}$ информатив белгилар мажмуасини (ИБМ) танлаш масаласини ечиш учун қуйидаги ёрдамчи N ўлчовли λ векторлар тўплами аниқлаб олинади:

$$\Lambda = \{\lambda = (\lambda^1, \lambda^2, \dots, \lambda^N): \lambda^j \in \{0,1\}, j = \overline{1, N}\}. \quad (2)$$

Ёрдамчи λ векторнинг асосий вазифаси $D|_{\lambda} = \{(\lambda^1 x_{pi}^1, \lambda^2 x_{pi}^2, \dots, \lambda^N x_{pi}^N), (p = \overline{1, r}, i = \overline{1, m_p})\}$ орқали таххислаш ва синфлаштириш масаласи учун муҳим бўлган ИБМни аниқлаб олиш ҳисобланади. Бу ерда λ векторнинг бирга тенг бўлган компоненталарига мос келувчи белгилар ажратиб олинаётган қисм фазода ИБМни англатса, нолга тенг бўлган компоненталарига мос белгилар эса ажратиб олинаётган ИБМда иштирок этмаслигини билдиради.

Таъриф 1. Берилган $\lambda = (\lambda^1, \lambda^2, \dots, \lambda^N)$ вектор ℓ узунликка эга дейилади, агар $\sum_{j=1}^N \lambda^j = \ell$ бўлса.

Барча ℓ узунликка эга λ векторлар тўпламини Λ^{ℓ} орқали белгилаб оламиз. У ҳолда қуйидагилар ўринли бўлади:

$$\Lambda = \cup_{\ell=1}^N \Lambda^{\ell}, \Lambda^{\ell} \cap \Lambda^{\eta} = \emptyset, \ell \neq \eta, \ell, \eta = \overline{1, N},$$

$$\Lambda^{\ell} = \{\lambda: \sum_{j=1}^N \lambda^j = \ell, \lambda^j \in \{0,1\}, j = \overline{1, N}\}. \quad (3)$$

Бу ерда Λ^{ℓ} ва Λ тўпламдаги λ векторлар сони мос равишда қуйидагича бўлади:

$$|\Lambda^{\ell}| = C_N^{\ell} = \frac{N!}{\ell!(N-\ell)!} \quad (4)$$

$$|\Lambda| = \sum_{\ell=1}^N C_N^{\ell} = 2^N - 1. \quad (5)$$

Таъриф 2. Агар $\lambda \in \Lambda^{\ell}$ ўринли бўлса, у ҳолда λ вектор ℓ информатив вектор деб аталади.

Таъриф 3. Агар $D|_{\Lambda^{\ell}} = \{(\lambda^1 x_{pi}^1, \dots, \lambda^N x_{pi}^N), (p = \overline{1, r}, i = \overline{1, m_p}): \lambda \in \Lambda^{\ell}\}$ ўринли бўлса, у ҳолда $D|_{\Lambda^{\ell}}$ информатив белгилар фазоси дейилади.

Тимсолларни аниқлаш масалаларида ўқув танланма объектларининг бир белгилар фазосидан бошқа белгилар фазосига ўтганда ўзларини қандай тутиши муҳим ҳисобланади. Бу хусусият синфлаштириш масаласини ечганда яққол намоён бўлади. Янги белгилар фазосида синфлаштириш масаласи ҳал қилинаётганда баъзи объектлар ўз синфларини йўқотиб бошқа синфга ўтиб қолиши мумкин, яъни

$$\exists x \in X, \lambda \in \Lambda^{\ell}, \mu \in \Lambda^{\eta}, \ell \neq \eta \text{ учун}$$

$$x|_{\lambda} \in X_p, x|_{\mu} \in X_q, p \neq q. \quad (6)$$

ℓ информатив λ векторга нисбатан синфлаштиришдаги хатоликлар коэффицентини $\theta(\ell)|_{\lambda}$ ва ўз синфини топа олмаган, яъни нотўғри синфлаштирилган объектлар сонини $\kappa(\ell)|_{\lambda}$ орқали белгилаб оламиз. Синфлаштиришдаги хатоликлар коэффицентини билан нотўғри синфлаштирилган объектлар сони орасидаги боғлиқликни қуйидагича аниқлаймиз

$$\theta(\ell)|_{\lambda} = \frac{\kappa(\ell)|_{\lambda}}{M}, \quad (7)$$

бу ерда $M = \sum_{p=1}^r m_p$ – ўқув танланмадаги объектларнинг умумий сони.

Эслатма. Агар айнан қайсидир синф (синфлар) объектлари бошқа синфга ёки аксинча, бошқа синф объектлари шу синф (синфлар)га адашиб ўтиб қолмаслиги муҳим бўлса, у ҳолда синфлаштиришдаги хатоликлар коэффицентини аниқлашда синфларни муҳимлилик даражасини ҳам эътибор олиш лозим бўлади.

Фараз қилайлик, X_p синф объектини бошқа синфга адашиб ўтиб қолмаслик муҳимлилик даражаси - α_p ва аксинча бошқа синф объектини бу синфга адашиб ўтиб қолмаслик муҳимлилик даражаси - β_p бўлсин. У ҳолда X_p

синф учун нотўғри синфлаштирилган объектлар сонини муҳимлилик даражасига кўра қуйидагича аниқлаш мумкин

$$\kappa(\ell)|_{\lambda}(X_p) = \alpha_p \cdot t_p^{out}|_{\lambda} + \beta_p \cdot t_p^{in}|_{\lambda},$$

бу ерда t_p^{out} ва t_p^{in} мос равишда X_p синфдан хато чиқиб кетган ва қўшилиб қолган объектлар сони.

У ҳолда ℓ информатив белгилар фазосида (7) куйидагича аниқланади:

$$\theta(\ell)|_{\lambda} = \frac{\kappa(\ell)|_{\lambda} + \alpha_p \cdot t_p^{out}|_{\lambda} + \beta_p \cdot t_p^{in}|_{\lambda} - (t_p^{out}|_{\lambda} + t_p^{in}|_{\lambda})}{m}. \quad (8)$$

Таъриф 4. $D|_{\Lambda^{\ell}}$ информатив белгилар фазоси учун $\lambda \in \Lambda^{\ell}$ вектор оптимал дейилади, агар $\forall \mu \in \Lambda^{\ell}$ да $\theta(\ell)|_{\lambda} \leq \theta(\ell)|_{\mu}$ ўринли бўлса.

Таъриф 5. Агар $\theta(\ell) = \min_{\lambda \in \Lambda^{\ell}} \theta(\ell)|_{\lambda}$ бўлса, у ҳолда $D|_{\Lambda^{\ell}}$ информатив белгилар фазосида синфлаштиришдаги хатоликлар коэффиценти $\theta(\ell)$ га тенг дейилади.

$\theta(\ell)$ ва $\kappa(\ell)$ ($\ell = \overline{1, N}$) ларни ҳисоблаш учун объектлар орасидаги яқинлик (ўхшашлик) функцияси ва назорат объектини олдиндан берилган синфларнинг қайси бирига тегишли эканлигини аниқлаш, яъни тимсолларни аниқлаш тилида айтадиган бўлсак, ҳал қилувчи қоида зарур бўлади. Тадқиқот объектлари учун яқинлик функцияси ва ҳал қилувчи қоида куйидагича аниқлаб оламыз [5]

Фараз қилайлик, $\forall x = (x_1, x_2, \dots, x_N), y = (y_1, y_2, \dots, y_N) \in D$ объектлар (векторлар) ва $\varepsilon_1, \varepsilon_2, \dots, \varepsilon_N, \varepsilon$ – мусбат сонлар берилган бўлсин. $\nabla(x, y)$ орқали куйидаги шартларни қаноатлантирмайдиган тенгсизликлар сонини белгилаб оламыз

$$|x_1 - y_1| \leq \varepsilon_1, |x_2 - y_2| \leq \varepsilon_2, \dots, |x_N - y_N| \leq \varepsilon_N. \quad (9)$$

У ҳолда яқинлик функцияси куйидаги кўринишга эга бўлади

$$\rho(x, y) = \begin{cases} 1, & \text{агар } \nabla(x, y) \leq \varepsilon \\ 0, & \text{агар } \nabla(x, y) > \varepsilon. \end{cases} \quad (10)$$

Умуман олганда, берилган $\lambda \in \Lambda^{\ell}$ вектор учун яқинлик функцияси куйидагича аниқланади

$$\rho(x, y)|_{\lambda} = \begin{cases} 1, & \text{агар } \nabla(x, y)|_{\lambda} \leq \varepsilon|_{\ell} \\ 0, & \text{агар } \nabla(x, y)|_{\lambda} > \varepsilon|_{\ell} \end{cases} \quad (10')$$

бу ерда $\nabla(x, y)|_{\lambda}$ – (9) да λ векторни бирга тенг бўлган компонентларига мос тенгсизликларни бажарилмайдиганлар сони, $\varepsilon|_{\ell}$ – мусбат сон бўлиб, информатив белгилар фазоси ўлчамига мос равишда берилади.

$$\mathfrak{R}(x)|_{\lambda} = \begin{cases} p, & \text{агар } \Gamma_p|_{\lambda} - \Gamma_q|_{\lambda} \geq \delta, q \neq p, q = \overline{1, r} \\ 0, & \text{бошқа барча ҳолларда} \end{cases} \quad (11)$$

бу ерда $\Gamma_q|_{\lambda} = \sum_{y \in X_q} \rho(x, y)|_{\lambda}$, δ – олдиндан берилган бирор бир мусбат сон.

(11) орқали аниқланган $\mathfrak{R}(x)|_{\lambda}$ функция ҳал қилувчи қоида бўлиб, унинг қиймати тақдим этилган x объектни λ векторга нисбатан қайси синфга тегишли эканлигини ифодалайди.

Кўриниб турибдики, $\kappa(\ell)|_{\lambda}$ қиймати (11) ёрдамида аниқланади.

Юқорида келтириб ўтилган тушунчалардан фойдаланган ҳолда тадқиқот иши учун қўйилган асосий мақсадни математик қўйилишини куйидагича ифодалаб оламыз:

Математик қўйилиши. $\ell \ll N$ учун $\theta(\ell) \leq \theta(N)$ шартни қаноатлантирувчи $\lambda \in \Lambda^{\ell}$ оптимал вектор ва $\kappa(\ell)|_{\lambda}$ аниқлансин.

Ўқув танланма объектлари белгиларини танлаб олиш учун эҳтимоллик вектори $p_v = (p_v^1, p_v^2, \dots, p_v^N)$ киритиб олайлик, бу ерда p_v^j – j -чи белгини танлаб олиниш эҳтимоллиги; v – p_v эҳтимоллик вектори тартиби.

Фараз қилайлик, $\lambda \in \Lambda^N$ ва $v = 1$ да $p_v = (p_v^1, p_v^2, \dots, p_v^N)$ учун $p_v^j = \frac{1}{N}; j = \overline{1, N}$ бўлсин. Маълумки, агар $\mu \in \Lambda^k$ бўлса, у ҳолда $\lambda - \mu \in \Lambda^{N-k}$ бўлади.

Юқорида аниқланган формулалар орқали $\kappa(N-k)|_{\lambda-\mu}$, $\theta(N-k)|_{\lambda-\mu}$ ва $\theta(k)|_{\mu}$ қийматлари ҳисобланади.

Барча $\mu \in \Lambda^k$ векторлар учун куйидаги шарт текширамыз

$$\theta(N-k)|_{\lambda-\mu} \leq \theta(N)|_{\lambda}. \quad (12)$$

(12) шартни қаноатлантирувчи ҳар бир μ векторга мос белгилар эҳтимолликлари $\lambda - \mu$ векторга мос келувчи белгиларнинг эҳтимолликларига тенг тақсимлаб берилади, яъни $p_{v+1}(\mu) = p_v + \frac{(p_v, \mu)}{N-k} * p_v|_{\lambda-\mu} - p_v|_{\mu}$. Бунинг натижасида маълум бир белгиларнинг келгуси танланмада иштирок этиш эҳтимоллиги ортади, баъзи белгиларнинг эса иштирок этиш эҳтимолликлари камайди.

$$p_{v+1} = \frac{1}{T} \sum_{\mu} p_{v+1}(\mu), \quad (13)$$

бу ерда T – (12) шартни қаноатлантирувчи μ векторлар сони.

Э j_1, j_2, \dots, j_N индекслар кетма-кетлиги топиладики, $p_{v+1} = (p_{v+1}^1, p_{v+1}^2, \dots, p_{v+1}^N)$ эҳтимоллик вектори компоненталари учун куйидагилардан бири ўринли бўлади:

$$p_{v+1}^1 \geq p_{v+1}^2 \geq \dots \geq p_{v+1}^{j_{N-k}} > p_{v+1}^{j_{N-k+1}} \geq \dots \geq p_{v+1}^{j_N} \quad (14)$$

$$p_{v+1}^{j_1} \geq \dots \geq p_{v+1}^{j_{N-k-t}} = \dots = p_{v+1}^{j_{N-k}} = \dots = p_{v+1}^{j_{N-k+t}} > p_{v+1}^{j_{N-k+t+1}} \geq \dots \geq p_{v+1}^{j_N}, \quad (15)$$

бу ерда t ва l мусбат сонлар.

Агар (14) бажарилса, у ҳолда $\exists (!) \eta = (\eta^1, \eta^2, \dots, \eta^N) \in \Lambda^k$ учун $\eta^j = \begin{cases} 1, & j \in \{j_{N-k+1}, j_{N-k+2}, \dots, j_N\} \\ 0, & \text{акс ҳолда} \end{cases}$.

Фараз қилайлик, эҳтимоллик вектор компоненталари учун (15) ўринли бўлсин, у ҳолда $\xi = \max_{\mu \in \Lambda^k} \theta(k)|_{\mu}$ топилиши лозим. Бу ерда $\Lambda^{*k} = \{\mu \in \Lambda^k | \mu^{j_{k+t+1}} = \mu^{j_{k+t+2}} = \dots = \mu^{j_N} = 1\}$.

Агар $p_{v+1} = (p_{v+1}^1, p_{v+1}^2, \dots, p_{v+1}^N)$ эҳтимоллик вектори учун (14) ўринли бўлса, у ҳолда $\eta \in \Lambda^k$ векторга, акс ҳолда $\xi \in \Lambda^k$ векторга мос келувчи белгилар информатив белгилар фазосидан чиқарилади.

Демак, мос равишда $\Lambda^N \xrightarrow{\eta \in \Lambda^k} \Lambda^{N-k}$ ёки $\Lambda^N \xrightarrow{\xi \in \Lambda^k} \Lambda^{N-k}$ бўлади, яъни N ўлчамли белгилар фазосидан $N-k$ ўлчамга ўтилади.

Мазкур жараён информатив белгилар фазоси ўлчами ℓ га тенг бўлгунга қадар такрорланади. Такрорланишлар натижасида, агар $k \geq N - \ell$ ҳолат кузатилса, у ҳолда $k = N - \ell$ деб олинади.

Натижавий $\lambda \in \Lambda^{\ell}$ оптимал векторга мос равишда $\kappa(\ell)|_{\lambda}$ (11) орқали аниқланди.

Амалий масалалар ҳал қилинаётганда k учун $k \ll \ell$ шарт ўринли бўлиши мақсадга мувофиқ бўлиб, одатда, $k = 3 \div 5$ деб олиш тавсия этилади.

Куйида $\mu \in \Lambda^k$ векторларни танлаб олишни келтириб ўтамыз.

Маълумки, $\mu \in \Lambda^k$ тўпلامда k информатив векторлар сони $\frac{N!}{k!(N-k)!}$ га тенг бўлади.

Иш унумдорлигини ошириш мақсадида мазкур векторларни танлашнинг қатъий кетма-кетлигини куйидагича аниқлаб олиш мумкин.

μ векторлар учун, шартли равишда,

$$\mu_1 = \left\{ \underbrace{0, 0, \dots, 0}_{N-k}, \underbrace{1, 1, \dots, 1}_k \right\}$$

$$\frac{\mu_{\frac{N!}{k!(N-k)!}} = \left\{ \underbrace{1, 1, \dots, 1}_k, \underbrace{0, 0, \dots, 0}_{N-k} \right\}$$

деб олинсин. У ҳолда мазкур векторлар кетма-кетлигини куйидагича аниқлаш мумкин.

Бунинг учун, умумий ҳолда, l - ўринда турган векторни билган ҳолда $l + 1$ - ўринда келадиган векторни аниқлаш старли.

Умуман олганда, l - ўринда турган $\mu_l = (\mu_l^1, \mu_l^2, \dots, \mu_l^N)$ вектор компонентлари бўйича куйидагича ҳолатлар бўлиши мумкин:

1-ҳолат. қиймати 1 га тенг бўлган компоненталари кетма-кет жойлашган, яъни қиймати 1 га тенг бўлган ихтиёрий иккита компонента орасида қиймати 0 га тенг компонента мавжуд эмас;

2-ҳолат. қиймати 1 ёки 0 бўлган компоненталар ихтиёрий, яъни аралаш жойлашган.

Дастлаб 1-ҳолатда навбатдаги вектор кўриниши қандай бўлишини кўриб чиқамиз.

$\mu_l = (\mu_l^1, \mu_l^2, \dots, \mu_l^N)$ вектор компоненталари индекси бўйича кичик индексдан бошлаб компонентаси қиймати 1 га тенг компонента топилади ва мазкур компонента битта олдинги компонента билан ўрин алмаштирилади, яъни агар топилган компонента индекси j бўлса, у ҳолда $j - 1$ даги билан ўрин алмаштирилади. Қолган барча қиймати 1 га тенг компоненталар $N - k$ га ўнг сурилади, яъни

$$\mu_l^1 = 0, \dots, \mu_l^j = 0, \mu_l^{j+1} = 1, \mu_l^{j+2} = 1, \dots, \mu_l^{j+k} = 1, \mu_l^{j+k+1} = 0, \dots, \mu_l^N = 0 \Rightarrow$$

$$\mu_{l+1}^1 = 0, \dots, \mu_{l+1}^{j-1} = 0, \mu_{l+1}^j = 1, \mu_{l+1}^{j+1} = 0, \dots, \mu_{l+1}^{N-k+2} = 0, \mu_{l+1}^{N-k+1} = 1, \dots, \mu_{l+1}^N = 1$$

Энди 2-ҳолатни кўриб чиқайлик. Бунда 1-ҳолатдан фарқли равишда жараёни компоненталарнинг энг катта индексдан (N) бошлаймиз. Биринчи навбатда $\mu_l^j = 0, \mu_l^{j+1} = 1$ шартни қаноатлантириувчи энг катта индекс аниқланади ва уларни ўрни алмаштирилади, яъни $\mu_l^j = 1, \mu_l^{j+1} = 0$ ҳамда $j + 2$ дан бошлаб қиймати 1 га тенг бўлган компоненталар барчаси N индексдан бошлаб қайта жойлаштирилади, яъни,

$$\mu_l^1 = *, \dots, \mu_l^j = 0, \mu_l^{j+1} = 1, \dots, \mu_l^{j+q} = 1, \mu_l^{j+q+1} = 0, \dots, \mu_l^N = 0 \Rightarrow$$

$$\mu_{l+1}^1 = *, \dots, \mu_{l+1}^{j-1} = *, \mu_{l+1}^j = 1, \mu_{l+1}^{j+1} = 0, \dots, \mu_{l+1}^{N-q} = 0, \mu_{l+1}^{N-q+1} = 1, \dots, \mu_{l+1}^N = 1.$$

Таклиф этилаётган усул алгоритми

1-қадам. Бошланғич маълумотлар: X - ўқув танланма; X_p ($p = \overline{1, r}$) - синфлар; r - синфлар сони; k, ℓ, N .

2-қадам. $\lambda \in \Lambda^N$ учун $\kappa(N)$ ва $\delta = \theta(N)|_\lambda$ ҳисобланади; Нотўғри синфлаштирилган объектлар фиксирлаб қўйилади.

3-қадам. $i = k$

4-қадам. $v = 1$ да $p_v = (p_v^1, p_v^2, \dots, p_v^N)$ учун $p_v^j = \frac{1}{N}; j = \overline{1, N}$ қийматлар ўзлаштирилади.

5-қадам. Барча $\mu \in \Lambda^i$ векторлар учун $\theta(N - i)|_{\lambda - \mu}$ ва $\theta(i)|_\mu$ лар ҳисобланади.

6-қадам. Барча μ вектор учун: агар $\theta(N - i)|_{\lambda - \mu} \leq \delta$ ўринли бўлса, $p_{v+1}(\mu) = p_v + \frac{(p_v, \mu)}{N - i} * p_v|_{\lambda - \mu} - p_v|_\mu$ деб ўзлаштирилади.

7-қадам. $p_{v+1} = \frac{1}{T} \sum_{\mu} p_{v+1}(\mu)$ ҳисобланади, бу ерда $T - p_{v+1}(\mu)$ векторлар сони. $p_v = (p_v^1, p_v^2, \dots, p_v^N)$ вектор учун (14) ёки (15) ҳолатлар текширилади ва шунга мос равишда $\Lambda^N \xrightarrow{\eta \in \Lambda^i} \Lambda^{N-i}$ ёки $\Lambda^N \xrightarrow{\xi \in \Lambda^i} \Lambda^{N-i}$ амалга оширилади.

8-қадам. $N = N - i$ ва $\lambda = (1, 1, \dots, 1) \in \Lambda^N$ деб янги қиймат ўзлаштирилади.

9-қадам. Агар $i \leq N - \ell$ бўлса, у ҳолда 3-қадамга қайтилади.

10-қадам. Агар $i \geq N - \ell$ бўлса, у ҳолда $i = N - \ell$ деб олинади ва 5-қадам қайтилади.

11-қадам. Чикиш параметри: λ оптимал вектор.

Таклиф этилган алгоритм тадбиқи:

Юрак ишемик касалликлари симптокомплексларини танлаш масаласи

Куйида таклиф этилаётган алгоритм ёрдамида соҳа мутахассислари томонидан ЮИК бўйича тақдим этилган беморларнинг диагностик маълумотлари, яъни, айнан, беморлардаги клиник белгилар ёки симптомлар (анамнез, физикал, лаборатор ва инструментал текширув) асосида касалликни симптокомплексларни танлаб олиш ва синфлаштириш (ташҳислаш) масаласини кўриб чиқамиз. Бу ерда клиник белги ёки симптомлар турли турга тегишли бўлиб, улар сон қиймат ва сифат кўрсаткичларига эга.

ЮИК бўйича мутахассислар томонидан тақдим этилган ўқув танланма бўйича маълумотлар 1-жадвалда келтириб ўтилган.

1-жадвал

т/р	синфлар	Беморлар (объект) сони	Клиник белги ёки симптомлар (белги) сони	синф таснифи
1	X_1	140	62	зўриқиш стенокардияси
2	X_2	120	62	ўткир миокард инфаркти
3	X_3	40	62	Аритмик шакл

Кўйилган масалага таклиф этилаётган алгоритмни тадбиқ қилиш натижасида ташҳислаш ишончилиги ортган, клиник белги ва симптомлар сонини 62 тадан 10 тагача камайтиришга эришилди. $\ell = 10$ да янги яхши натижа берувчи 7 та симптокомплекслар аниқланди. Танлаб олинган симптокомплекслар куйидаги жадвалда келтирилган.

2-жадвал

1.	$X_1, X_7, X_{16}, X_{22}, X_{27}, X_{36}, X_{41}, X_{51}, X_{57}, X_{62}$
2.	$X_1, X_7, X_{22}, X_{27}, X_{36}, X_{41}, X_{44}, X_{51}, X_{57}, X_{62}$
3.	$X_1, X_7, X_{22}, X_{27}, X_{36}, X_{41}, X_{47}, X_{51}, X_{57}, X_{62}$
4.	$X_1, X_7, X_{10}, X_{22}, X_{27}, X_{36}, X_{41}, X_{51}, X_{57}, X_{62}$
5.	$X_1, X_7, X_{22}, X_{27}, X_{34}, X_{36}, X_{41}, X_{51}, X_{57}, X_{62}$
6.	$X_1, X_2, X_7, X_{22}, X_{27}, X_{36}, X_{41}, X_{51}, X_{57}, X_{62}$
7.	$X_7, X_{22}, X_{27}, X_{34}, X_{36}, X_{41}, X_{47}, X_{51}, X_{57}, X_{62}$

Хулоса

Ушбу ишда маълумотларга дастлабки ишлов беришнинг асосий масалаларидан бўлган информатив белгилар мажмуасини танлаш муаммоси мослашувчан кидирув орқали ҳал қилинган. Таклиф этилаётган алгоритм объект белгилари қийматлари турларига боғлиқ эмас.

Синфлаштириш ишончилигини ошириш мақсадида ИБМни танлаш учун информативлик мезони сифатида синфлаштиришдаги хатолик коэффициенти ва объект белгиларининг эҳтимоллик вектори олинган. Белгиларни танлаб олишда фойдаланилган эҳтимоллик вектори объектларни муҳим белгиларини танланмадан асоссиз чиқариб юборилишини олдини олади.

Таклиф этилган алгоритм асосида ишлаб чиқилган дастурдан фойдаланиб юрак ишемик касалликлари таркибига кирувчи зўриқиш стенокардияси, ўткир миокард инфаркти ва миокард инфарктнинг аритмик шакли билан оғриган беморларнинг диагностика маълумотларига дастлабки ишлов бериш, хусусан, беморлардаги клиник белгилар ёки симптомлар асосида касалликни симптокомплексларни танлаб олиш ва синфлаштириш масалалари ҳал қилинди.

Дастур орқали танлаб олинган симптокомплекслар ёрдамида беморларни синфлаштириш масаласи, ўқув танланма эталон жадвали объектларига нисбатан 100% аниқликни кўрсатди.

Олинган натижалар соҳа мутахассислари томонидан ижобий баҳоланди.

Адабиётлар

- [1] <https://kun.uz/news/2019/08/08/yurak-qon-tomir-kasalliklarini-davolash>
- [2] <https://bakulev.ru/patients/articles/drugie-zabolevaniya-serdtsa-i-sosudov/ishemicheskaya-bolezn-serdtsa-simptomu-i-lechenie>
- [3] “Даволашда юқори технологияларни қўллаш” модули бўйича ўқув-услубий мажмуа //ТТА ҳузуридаги педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази, Тошкент 2017 йил.
- [4] Лбов Г.С. Методы обработки разнотипных экспериментальных данных//Новосибирск: Наука, Сибирское отделение, 1981. - 160 с.
- [5] Журавлев Ю.И. Избранные научные труды. –М: Издательство Магистр, 1998. – 420с.
- [6] Zhang, L., Luo, M., Liu, J., Li, Z., Zheng, Q. Diverse fuzzy c-means for image clustering //Pattern Recognition LettersVolume 130, February 2020, Pages 275-283.
- [7] Santra, D., Basu, S.K., Mandal, J.K., Goswami, S. Rough set based lattice structure for knowledge representation in medical expert systems: Low back pain management case study//Expert Systems with ApplicationsVolume 145, 1 May 2020, Номер статьи 113084
- [8] Xiong, Y., Zuo, R. Recognizing multivariate geochemical anomalies for mineral exploration by combining deep learning and one-class support vector machine// Computers and GeosciencesVolume 140, July 2020, 104484
- [9] Li, P., Cheng, H. Track recognition algorithm based on neural network for rail transit//International Journal of Computers and Applications 2020.
- [10] Gai, J., Shen, J., Wang, H., Hu, Y. A Parameter-Optimized DBN Using GOA and Its Application in Fault Diagnosis of Gearbox//Shock and Vibration, Volume 2020, 2020, Номер статьи 4294095
- [11] Raja, P.S., Thangavel, K. Missing value imputation using unsupervised machine learning techniques/Soft Computing 24(6), с. 4361-4392,2020.
- [12] Wang,D., Tian,F., Yang,S.X., Jiang,D., Cai,B. Improved deep CNN with parameter initialization for data analysis of near-infrared spectroscopy sensors/Sensors (Switzerland) Volume 20, Issue 3, 1 February 2020, Номер статьи 874, 20(3),874, 2020.
- [13] Basiri,M.E., Kabiri,A. HOMPer: A new hybrid system for opinion mining in the Persian language/Journal of Information ScienceVolume 46, Issue 1, 1 February 2020, Pages 101-117.
- [14] Lou, P., Jimeno Yepes, A., Zhang, Z., Li, C., Wren, J. BioNorm: Deep learning-based event normalization for the curation of reaction databases/BioinformaticsVolume 36, Issue 2, 15 January 2020, Pages 611-620.
- [15] Si, L., Xiong, X., Wang, Z., Tan, C. A Deep Convolutional Neural Network Model for Intelligent Discrimination between Coal and Rocks in Coal Mining Face/Mathematical Problems in Engineering Volume 2020, 2020, Номер статьи 2616510
- [16] Fu, S., Liu, X. A new method to solve the problem of facing less learning samples in signal modulation recognition/Eurasip Journal on Wireless Communications and Networking Volume 2020, Issue 1, 1 December 2020, 8.
- [17] Wei, D., Chen, T., Li, S., Zhao, Y., Li, T. Adaptive dictionary learning based on local configuration pattern for face recognition/Eurasip Journal on Advances in Signal Processing Volume 2020, Issue 1, 1 December 2020, 20.
- [18] Ala’raj, M., Majdalawieh, M., Abbod, M.F. Improving binary classification using filtering based on k-NN proximity graphs/Journal of Big Data, Volume 7, Issue 1, 1 December 2020, 15.
- [19] Mishra, G., Vishwakarma, V.P., Aggarwal, A. Constrained L1-optimal sparse representation technique for face recognition/Optics and Laser TechnologyVolume 129, September 2020, 106232.
- [20] Kibbey, T.C.G., Jabrzemski, R., O’Carroll, D.M. Supervised machine learning for source allocation of per- and polyfluoroalkyl substances (PFAS) in environmental samples/ChemosphereVolume 252, August 2020, Номер статьи 126593
- [21] Shen, Z., Man, Z., Cao, Z., Zheng, J. A new intelligent pattern classifier based on structured sparse representation/Computers and Electrical EngineeringVolume 84, June 2020, Номер статьи 106641
- [22] Nishanov A.Kh., Djurayev G.P., Kasanova M.Kh. Improved algorithms for calculating evaluations in processing medical data // National Institute of Science Communication and Information Resources (NISCAIR)-India, 2019,-3158-3165.
- [23] Kamilov M., Nishanov A., Beglerbekov R. Modified stages of algorithms for computing estimates in the space of informative features // International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (2019) 8(6)
- [24] Nishanov A. Avazov E. Akbaraliyev B. Partial selection method and algorithm for determining graph-based traffic routes in a real-time environment// International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (2019) 8(6) 696-698 ISSN: 22783075.
- [25] Emary E. Zawbaa H. Hassanien A. Binary ant lion approaches for feature selection// Neurocomputing. 2016 vol: 213. DOI 10.1016/j.neucom.2016.03.101. ISSN 18728286.
- [26] Zhuang, J., Hou, C., Tang, Y., Zhong, Z., Luo, S. Assessment of external properties for identifying banana fruit maturity stages using optical imaging techniques/Sensors (Switzerland), 19(13),2910, 2019.
- [27] Scott, G.J., Anderson, D.T. Importance-weighted multi-scale texture and shape descriptor for object recognition

in satellite imagery/International Geoscience and Remote Sensing Symposium (IGARSS)

6351632, с. 79-82.2012.

[28] Yong Z. Dun-wei G. Wan-qiu Z. Feature selection of unreliable data using an improved multi-objective PSO algorithm// Neurocomputing. 2016 vol: 171. DOI 10.1016/j.neucom.2015.07.057. ISSN 18728286.

[29] Zhang Y. Gong D. Sun X. Guo Y. A. PSO-based multi-objective multi-label feature selection method in classification// Scientific Reports. 2017 vol: 7 (1). DOI 10.1038/s41598-017-00416-0. ISSN 20452322.

[30] Mafarja M. Mirjalili S. Hybrid binary ant lion optimizer with rough set and approximate entropy reducts for feature selection// Soft Computing. 2019 vol: 23 (15). DOI 10.1007/s00500-018-3282-y. ISSN 14337479.

[31] Nishanov A.Kh., Turakulov Kh.A., Turakhanov Kh.V. A decision rule for identification of eye pathologies // Biomedical Engineering (1999) 33(4) 178-179.

[32] Nishanov A. Kh., Turakulov Kh.A., Turakhanov Kh.V. A decisive rule in classifying diseases of the visual system // Meditsinskaia tekhnika (1999) (4) 16-18.

[33] Nishanov A. Ruzibaev O. Tran N. Modification of decision rules 'ball Apolonia' the problem of classification// 2016 International Conference on Information Science and Communications Technologies, ICISCT 2016 (2016). DOI: 10.1109/ICISCT.2016.7777382.

Нишанов Ахрам Хасанович

Мухаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети(ТАТУ) “Ахборот технологияларининг дастурий таъминоти” кафедраси профессори, т.ф.д.

e-mail: nishanov_akram@mail.ru.

Акбаралиев Бахтиёржон Бакирович

Мухаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети(ТАТУ) “Дастурий инжиниринг факультети” декани, т.ф.н.,

e-mail: b.akbaraliiev@tuit.uz

Жўраев Ғуломжон Примович

Мухаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги Ахборот-

коммуникация технологиялари илмий инновацион маркази, мустақил изланувчи.

e-mail: jurayev_g@bk.ru.

Nishanov A.Kh., Akbaraliyev B.B., Juraev G.P.

A flexible search-based algorithm for selection of coronary heart disease symptom complexes

Selection a set of informative features and object classification are very important issues in data pre-processing, especially, in the problem of pattern recognition. Although a number of methods and algorithms have been proposed to address these problems there are still many unresolved problems in this area. Reason for this that most of the proposed approaches are strongly related to the nature of the research object, the number of its features, the type of values that can be taken by features, the size of the sample, etc., and there are certain requirements for all these. In addition, each method or algorithm is strongly dependent on the correct choice of the decision rule that determines the informative criteria of the feature selection and the quality of the chosen selection. Due to this, the efficiency and reliability of many methods and algorithms are not stable.

The proposed a flexible search-based algorithm is somewhat universal, because the features can take on different type of values, and the proposed informative criteria for selecting a set of features is based on the minimization of the classification error. In addition, the probability vector used in the selection of features prevents the inappropriate omission of important features of the objects.

This algorithm was used to pre-process the diagnostic data of patients with coronary heart diseases which include angina pectoris, acute myocardial infarction and arrhythmic myocardial infarction. This research was done on selection and classification of disease symptom complexes based on the clinical signs and symptoms in patients studied. The results of the study are presented.

Keywords: data pre-processing, informative criteria, symptom complex, feature selection, classification error coefficient, flexible search.

УДК 330.59; 004.382

Вотинов К.А., Цырельчук И.Н., Писецкий Ю.В., Маматова Н.М., Абдурашидов А.А., Собитов С.К.

Разработка алгоритма для статистической оценки качества интегральных микросхем

Фактический уровень надежности технических средств не всегда удовлетворяет предъявляемым к ним требованиям с точки зрения обеспечения заданной эффективности системы в целом. На практике надежность ИС закладывается при проектировании, обеспечивается в процессе изготовления и поддерживается при эксплуатации. Применение диагностирования отказов в сложной технической системе резко повышает надежность системы и, в частности, такой показатель надежности, как коэффициент готовности. Наиболее перспективным методом диагностирования и прогнозирования отказов являются проверяющие тесты. В данной статье рассмотрен «логарифмический» тест, который проверяет взаимное влияние произвольной пары ячеек, а также его алгоритм. Представлены и объяснены блок-схемы рассматриваемого алгоритма в целом и его второго шага в частности.

Ключевые слова: Интегральные микросхемы, оценка качества, логарифмический тест, алгоритм проверки памяти.

Современный этап научно-технического развития характеризуется широким внедрением различных технических устройств, выполненных на интегральных системах нового поколения. Регулярное усложнение решаемых ими задач, а также повышение ответственности выполняемых функций выдвинули на первый план проблему обеспечения высокой надежности и эффективности сложных систем, использующих подобные устройства. Особую актуальность эта проблема приобретает в современных системах телекоммуникаций, для которых рассматриваемый аспект является наиболее важным.

Фактический уровень надежности технических средств не всегда удовлетворяет предъявляемым к ним требованиям с точки зрения обеспечения заданной эффективности системы в целом.

На практике надежность ИС закладывается при проектировании, обеспечивается в процессе изготовления и поддерживается при эксплуатации. Таким образом, определяющим фактором является технология изготовления, затем обеспечение требуемого уровня качества и надежности комплектующих компонентов и материалов при изготовлении, что требует непрерывный технологический контроль и за тем обеспечение бесперебойной работы аппаратуры на ИС при воздействии различных условий эксплуатации, что также должно сопровождаться эксплуатационным контролем и носить прогнозирующий и диагностирующий характеры.

Применение диагностирования отказов в сложной технической системе резко повышает надежность системы и, в частности, такой показатель надежности, как коэффициент готовности. Однако, методы диагностирования требуют аппаратную избыточность и выбор информативного параметра контролируемой системы.

Наиболее перспективным методом диагностирования и прогнозирования отказов являются проверяющие тесты. Для этой цели в статье предложены этапы построения тестов и краткое их содержание.

Повышение степени интеграции кристаллов ОЗУ, рост объема памяти ставят новые условия для тестирования БИС ОЗУ. Увеличение плотности размещения элементов в кристалле и особенности технологии изготовления БИС обусловили появление новых типов неисправностей, характерных для БИС ОЗУ.

Основными видами неисправностей, характерными для БИС ОЗУ, являются:

1. Неспособность к переключению ячейки матрицы;
2. Неспособность к хранению информации ячейкой;
3. Неверная работа дешифратора строк и столбцов;
4. Взаимное влияние ячеек.

Так как наибольшую проблему представляет проверка взаимного влияния ячеек памяти, то более подробно рассмотрим этот вид неисправности. Сложность задачи, растущая с увеличением объема ОЗУ, реализованного в одном кристалле, вынуждает уделять особое внимание этой проблеме. Оптимальным для этой цели среди известных тестов является так называемый «логарифмический» тест, который проверяет взаимное влияние произвольной пары ячеек в соответствии со следующим порядком действий:

Шаг 1. Начальное заполнение матрицы: запись в i и j ячейки "1".

Шаг 2. Запись в i "0", считывание из j "1".

Шаг 3. Запись в j "0", считывание из i "0".

Шаг 4. Запись в i "1", считывание из j "0".

Шаг 5. Запись в j "1", считывание из i "1".

Шаг 6. Запись в j "0", считывание из i "1".

Шаг 7. Запись в i "0", считывание из j "0".

Шаг 8. Запись в j "1", считывание из i "0".

Шаг 9. Запись в i "1", считывание из j "1".

Последовательность действий, реализованная на шагах 2-9, является минимальной, позволяющей проверить все возможные переходы между состояниями ячеек памяти.

Алгоритм логарифмического теста основан на последовательном разбиении проверяемой области памяти на сегменты и проверки влияния ячеек одного сегмента (i -ячейки), на ячейки другого сегмента (j -ячейки), выполнением шагов 1-9. Известен подход, позволяющий проверить по логарифмическому алгоритму память объемом $2N$ (N -число разрядов адреса). При этом на первом этапе вся проверяемая область памяти разбивается на два сегмента. Все ячейки одного сегмента являются ячейками i , другого - ячейками j . Выполняются шаги 1-9. На втором этапе каждый из сегментов, в свою очередь, делится на два сегмента с ячейками i и j , с последующим выполнением шагов 1-9. На третьем этапе вся область делится на восемь сегментов и т.д. Деление повторяется до тех пор, пока размер сегмента не станет равен одной ячейке. Таким образом, проверяется взаимное влияние произвольной пары ячеек независимо от конкретной топологии кристалла.

Однако указанный способ выделения сегментов довольно сложен. Предлагаемая модификация теста позволяет упростить его реализацию и сократить время проверки памяти произвольного размера. В данном случае разбиение на сегменты основано на фиксации определенного разряда двоичных кодов адреса. При этом память делится на сегменты i и j : если разряд зафиксирован в "0" - это сегмент i , если в "1" - j .




Рис.1. Блок-схема алгоритма проверки памяти.

На первом этапе фиксируется младший разряд кодов адресов. Проверяемая область памяти делится на сегменты, равные одной ячейке. Выполняется проверка в соответствии с шагами 1-9. На втором этапе фиксируется второй разряд. Область памяти делится на сегменты, равные двум ячейкам. На третьем этапе фиксируется третий разряд и т.д., до тех пор, пока сегменты не станут равны $2N$ и Q (ласти $2N$).

Блок-схема алгоритма проверки памяти (рис. 1) отражает последовательность действий:

- численные значения адреса начала \tilde{A}_H и конца \tilde{A}_K проверяемой области памяти заносятся соответственно в регистры A_H и A_K . Параметру присваивается значение $000...01_2$, что соответствует разбиению области памяти на сегменты, равные одной ячейке;
- выполняются шаги 1-9;
- изменяются размеры и сравниваются с граничным значением A_K ;
- при невыполнении неравенства $2t < A_K$ алгоритм заканчивает работу.




Рис.2. Блок-схема алгоритма выполнения шага 2, где 1 – Брак УУ; 2 – Брак ОЗУ

Часто возникает ситуация, когда микросхемы памяти, признанные годными после выполнения эффективных тестов, составленных по сложным алгоритмам, оказываются неработоспособными в составе блоков вычислительных комплексов. Поэтому введем в этот тест модификацию, ко-

торая заключается в использовании на 2 шаге дополнительного теста “запись-считывание” для диагностирования дефектов устройства управления БИС ОЗУ. Изменения в алгоритме заключаются в выполнении проверки считывания единицы и нуля при подаче на входы БИС во втором - прямому коду считываемых данных. Данный метод позволяет

УДК 004.048

Насимов Р.Ҳ.

12 каналли электрокардиография қурилма таъминоти

Ушбу мақола ADS1298 асосида 12-каналли электрокардиограф (ЭКГ) қурилма таъминотини ишлаб чиқиш ва Андроид платформасида ишловчи смартфон билан симсиз интерфейс орқали боғланиш жараёнига бағишланади. ADS1298 - 24 бит резолюцияли аналог-рақамли ўзгартиргич (АРЎ), кам қувватли, паст шовкинли, ички мультиплексорли, паст частотали аналог ва рақамли филтларга асосланган қурилма бўлиб, у кўп-каналли ЭКГ қурилмаларини арзон ва кичик ўлчамларда ишлаб чиқиш жараёнини қўллаб қувватлайди. Ушбу ишнинг натижаларини келажакда портатив ЭКГ қурилмаларини ишлаб чиқиш жараёнига қўллаш мумкин.

Калим сўзлар: Аналог-рақамли ўзгартириш, электрокардиограф, электрод, интерфейс, микроконтроллер.

ЭКГ сигнали – юрак касалликларига ташхис қўйиш учун муҳим бўлган маълумотларни ўз ичига олганлиги ўз исботини топганидан бошлаб, бу қурилма инсонларнинг юрак-қон томир касалликларига ташхис қўйиш ва даволаш жараёни учун нафақат кардиология мутахассислари балки барча турдаги шифохоналарда бирламчи восита бўлиб колди [1] Айни вақтда бир ёки кўп каналли ЭКГ иловалари компьютер, планшет, смартфон, смартвоч ва бошқа турдаги гаджетларнинг платформаларга мослаб кенг миқёсида ишлаб чиқарилмоқда.


Сўнги йилларда смартфон қурилмаларининг аънавий тиббиёт хизматлари билан интеграцияланиб бориши натижасида, маълум турдаги тиббиёт хизматлари смартфонларда жорий этилди. Шунингдек, Интернет хизматлари орқали смартфон фойдаланувчиларига реал вақтда шифокор билан боғланиш ва масофадан туриб ЭКГ асосида юрак-касалликларига ташхис қўйиш имконияти ишлаб чиқилмоқда. Охирги 10 йиллар давомида смартфон базасида соғломлаштириш платформаларининг турлари ва қўллаб қувватлайдиган хизматлари кенгайиб бормоқда. Улар смартфон платформалари орқали инсонларнинг юрак-қон томир касалликларини масофадан мониторинг қилиш, олинган маълумотларга асосан қарор қабул қилиш ва хулосалаш имкониятиларини тақдим этмоқда. Бу нафақат ривожланаётган ёки ривожланиши кўрсаткичлари паст бўлган давлатларда балки, ривожланган мамлакатларда ҳам шифокор-бемор нисбатини камайишига олиб келмоқда.

Дунё аҳолиси орасида юрак етишмовчилиги асосий муаммо бўлиб бораётган бир пайтда, арзон, кичик ўлчамли ЭКГларга эҳтиёж ортиб бормоқда. Одатда, асосий юрак касалликларига ташхис қўйишда кўп-каналли ЭКГдан фойдаланилади ва ҳозир шакли, ўлчами, стандарти, нархи, платформаси, технологияси, ташхис қўйиш имкониятлари турлича ЭКГлар мавжуд.

2012 йилдан бошлаб аънавий ЭКГ дастурлари тўлиқлигича смартфонда жорий этилганидан кейин, реал вақтда шифокорлар масофадан туриб инсонларнинг ЭКГ маълумотларини олиш, шарҳлаш, юрак-қон томир касалликларини таҳлил қилиш ва ташхис қўйиш имкониятига эга бўлмоқдалар[2] Шунингдек, смартфонлар учун ЭКГ иловали, веб сервисли ва шифокор хулосасига асосланган ташхис қувватли дастурлар ишлаб чиқилмоқда. Смартфонга асосан ЭКГ қурилмаларини ишлаб чиқиш билан юрак касалликларига ташхис қўйиш дастурларни яратиш ва юрак касалликларининг белгиларини олдиндан аниқлаш, барвақт ташхис қўйиш, даволаш ва йилдан йилга юрак касалликлари сабаб ортиб бораётган ўлим кўрсаткичларини камайтириш мумкин.


Ушбу мақола кичик ўлчамли, имконияти кенгайтирилган, арзон, ҳаммабоп ва масофадан шифокор билан боғланиш имкониятига эга бўлган ЭКГ қурилмасини ишлаб чиқишга бағишланади. Шунингдек, чет

мамлакатларда ишлаб чиқарилган, сотувда мавжуд бўлган ва изланишларда синовдан ўтказилаётган ЭКГ қурилмаларининг имкониятлари ўрганиб чиқилди [3] ЭКГ қурилмасини ишлаб чиқишда смартфон билан симсиз ишлаши ва қурилманинг ўлчамини кичик бўлишига аҳамият берилди, 1-расм.



1-расм. ЭКГ қурилмаси

Таклиф этилаётган ЭКГ қурилма-таъминоти 4та асосий қисмдан ташкил топади: электродлар, АРЎ, микроконтроллер ва HC-05 Bluetooth модули, 1-расм.




2-расм. Электродларни тананда жойлашиш тартиби

ЭКГ сенсорлари (электродлар) - тери юзасига жойлаштиришга мослаштирилган бўлиб, улар орқали кичик вольтлардаги потенциаллар фарқи ўлчанади. Сенсорлардан келган сигналларга ишлов бериб, уларни визуал ҳолатда экранда кузатиш мумкин. ЭКГ қурилмаси 10та электроддан (фақат 8таси ЭКГ сигналларни олиш учун хизмат қилади) фойдаланилди. Тана бўйлаб электродларнинг жойлашиши қуйидаги 2-расмда келтирилгани каби амалга оширилди: ўнг қўл (RA), чап қўл (LA), чап оёқ (LL), ўнг оёқ (RL) ва бта кўкрак қафаси (V1-V6), 2-расмда келтирилган. Таъкидлаш лозимки электродларни тананинг мускулли қисмида жойлаштириш интерференция даражасини ошишига, тананинг мускулсиз қисмида жойлаштириш сигналнинг сифати даражасини тушишига сабаб бўлади.

1. Кабель ва электрод. ЭКГ қурилмасини лойиҳалаш ва ишлаб чиқиш мақсадлари учун Европа ва Америка стандартлари асосидаги CON-TEC фирмасининг поливинилхлоридли кабель ва электродлари танланди.


Ушбу кабелли электродлар қўйилган техника хавфсизлиги қондалари асосида ишлаб чиқилган. Шунингдек, коррозия ва ишқаланиб ёниб кетиш каби ҳолатлар инобатга олинган [4]

2. APЎ. Кўп каналли ЭКГ қурилмасини ишлаб чиқишда аналог сигналлар тўпламини рақамли кўринишга ўзгартириш учун мос APЎ чипини танлаш муҳим ҳисобланади. APЎ резолуция талабларига боғлиқ равишда икки хил ёндашувга асосланади [5] Ҳар иккала ёндашув асосида лойиҳалаштирилаётган қурилма таъминоти батарея орқали қувватлантирилади.



Биринчи ёндашувда APЎ 16-бит резолуциядан кичик ва бундай ҳолатда, юқори коэффициентли паст шовкинли кучайтиргичдан фойдаланилади. Бу усулда кучайтиргич одатда керакли сигналларни шовкин билан бирга қўшиб кучайтиради, 3-расм (а). Юқори кучайтириш омили сабабли, шовкин даражаси паст бўлади.

Иккинчи ёндашув паст коэффициентли кучайтиришга асосланган бўлиб, резолуцияси 24 битли бўлади ва тизимнинг умумий шовкин даражасига қараганда ҳар доим кучайтиргичнинг шовкин даражаси паст бўлади, 3-расм (б).



3-расм. APЎ резолуциялари: (а) 16-битли юқори шовкинли ва (б) 24-битли паст шовкинли

Ҳар иккала ёндашувда сигналнинг сифати талаб даражасида сақланиб қолсада, танланган усул лойиҳалаштирилаётган қурилмани содда ва арзон кўринишда ишлаб чиқишга сезиларли таъсир кўрсатади. Бироқ резолуцияси 16-битдан кичик бўлган APЎ асосидаги ЭКГ қурилмасини киришидан олдин юқори ва паст частотали филтрлардан фойдаланиш зарур.

Биринчи ёндашув билан таққослаганда иккинчи ёндашувда қурилма содда ва фойдаланилган элементларнинг сони нисбатан кам бўлади. Қўшимча қилиб, иккинчи ёндашувда тизим мослашувчанлиги юқори частотали адаптив филтр ва режектор филтри каби рақамли сигналларни ўзгартирувчи алгоритмлар билан ишлаш имконияти ошади.

Кўп каналли ЭКГ қурилмаларини кичик ҳажмда лойиҳалаш ва содда кўринишда ишлаб чиқиш учун талаб этиладиган APЎ чиплари Texas Instrument (TI), Analog Devices (AD) ва ST microelectronics (ST) каби машҳур компаниялар томонидан ишлаб чиқилмоқда ва айни вақтда сотувда мавжуд. Қуйида ҳар бир ташкилот махсулотларининг имкониятлари қиёсий таҳлил қилинади.

ADS129x. TI компанияси томонидан таклиф этилган ADS129x оиласига мансуб ADS1294, ADS1296, ADS1298 ва ADS1299 қурилмалари асосида стандарт бўлган махсус

кўп-каналли ЭКГ қурилмаларини ишлаб чиқишга мўлжалланган. Бу қурилмаларнинг охири сони қўллаб қувватлаши мумкин бўлган каналлар сонини англайди. TI қурилмалари масалан 24 битли резолуция сигма делта ($\Sigma\Delta$) конвертор ёрдамида APЎ жараёни сониясига 32000 ёки 16 битли резолуцияли сониясига 8000 дискрет частота билан аналог сигнални рақамли кўринишга ўзгартиради. 24-битли ёки 16-битли APЎ чиплари резолуцияси ва дискрет частотасининг тезлиги билан фарқланади. ADS1298 чипида 8та канал, ўрнатилган RLD (Right-Leg Drive) ва WCT (Wilson Central Terminal) мавжуд.

ADAS1000-x. Ушбу чип AD компанияси томонидан таклиф этилган бўлиб, у 3 ва 5-каналли ЭКГ қурилмасини лойиҳалашни қўллаб қувватлайди. Қурилманинг дискрет частотасининг энг юқори тезлиги сониясига 128 минг дискрет частотани узатишни қўллаб қувватлайди. Қурилмада дастурлаштирилган ички паст частотали филтр мавжуд бўлиб, у 2 кГц ли маълумотни узатиши учун қўшимча 40 Гц, 150 Гц, 250 Гц ва 450 Гц га дастурий созланиши мумкин. Ушбу қурилмани TI қурилмалари билан таққослаганда резолуцияси ва каналлари сони чекланган, кўп каналли замонавий ЭКГ қурилмалари ишлаб чиқиш имкониятига эга эмас [6]

1-жадвал

Кўп-каналли ЭКГ учун APЎ чипларининг таҳлили

Қурилма	Оғиш коэффициенти (дБ)	Сигнал-шовкин нисбати (дБ)	Кучайтириш коэффициенти	Ички қаршилик (Ω)	Қувват истеъмоли
ADS119x	105	97	1, 2, 3, 4, 6, 8, 12	1G	17.5 mW
ADS129x	115	112	1, 2, 3, 4, 6, 8, 12	1G	17.5 mW
ADAS1000-x	110	100	-	10G	41 mW
HM301D	100	72	8, 16, 32, 64	50G	NA

HM301D. ST компаниясининг таклиф APЎ чиплари кўпи билан 3-каналли ЭКГ қурилмаларини ишлаб чиқишни

қўллаб қувватлайди. Юқоридаги кўриб чиқилган қурилмалар билан таққосланганда, бу чипда кўплаб

чекланишлар мавжуд. Масалан, резолюцияси кичик, 3-каналли электрокардиографдан юқори бўлганларини ишлаб чиқиш учун мос эмас ва электромагнит интерфейси мавжуд эмас. Аммо ЭКГ иловалари учун стандарт ҳисобланган ўрнатилган RLD ва WCT мавжуд [7] Қуйидаги 1-жадвалда юқорида кўриб чиқилган АРЎ чипларининг таҳлили ва бошқа муҳим бўлган баъзи хусусиятлари келтирилган.

3. Atmega16. микроконтроллеридан ЭКГ қурилмасида маълумотларни сенсорлардан олиш, ишлов бериш ва узатиш жараёнларини ҳамда бошқа периферик қурилмаларни бошқариш ва назорат қилишда фойдаланилади.

Atmega16 микроконтроллери ADS1298 ва HC-05 қурилмалари билан юқори тезликда маълумот алмашишни қўллаб қувватловчи иккита SPI (Serial Peripheral Interface) интерфейслари орқали боғланган. SPI ва ADS1298 чипи ўртасида кетма-кет алоқа синхронизация тизими таъминланади. Барча алоқа жараёнларида синхронизация ҳеч бўлмаганида минимум бўлишига эътибор берилди.

4. Bluetooth HC-05. ЭКГ қурилмасини смартфон билан боғловчи модул бўлиб, симсиз алоқа давомида кетма-кет алоқа усули орқали маълумот алмашилади. HC-05 частота полосаси ва маълумотларни қабул қилиб/узатиш ISM (Industrial, Scientific and Medical) оралиғига мос келади, яъни 2.4ГГц. Бу оралик частота халқаро электралоқа иттифоқининг радио регламенти томонидан белгиланган радиоалоқа частота диапазони ҳисобланади [8] Шунингдек, бу оралик ишлаб чиқариш, фан ва тиббиёт соҳаларида олиб борилаётган илмий тадқиқот ишланмалари учун махсус ажратилган. Шунингдек, HC-05 маълумот узатиш тезлиги асинхрон режимда кўпи билан 2.1 Мбитс/ 160 Кбитс ва синхрон режимда эса 1 Мбитс/ 1 Мбитс бўлади.

Маълумки, бугунги кунда кичик ўлчамли ЭКГ қурилмалари турли ярим ўтказгичларни ишлаб чиқарувчилар томонидан таклиф этилган рақамли тайёр элементлар асосида йиғилмоқда ва дастурланмоқда. Шунингдек, замонавий смартфонлар билан интеграцияланувчи тиббиёт қурилмалари ва дастурларини FDA (Food and Drug Administration) ташкилотининг стандарт талабига мувофиқ ишлаб чиқариш устида изланиш олиб борилмоқда, FDA тиббиёт талабига мос келиши ёки келмаслигига боғлиқ сертификат беради [9]

Умуман олганда ҳар бир соҳадаги, хусусан тиббиётда ҳам ишлаб чиқарилаётган қурилмаларда доим биринчи қадам сигнални таниб олиш ва унга ишлов бериш қадамидир. Аналог интерфейсли ЭКГ тизимлари учун ҳам биринчи қадам айнан шундай. Биринчи қадам сигнали ЭКГ қурилмасининг киришида ҳосил бўлади. Одатда, ЭКГ сигнали уч қисмдан ташкил топади: дифференциал, электроднинг дифференциал аралашмалари ва босқич сигналлари.

Дифференциал сигнал электродлар орқали олинган $\pm 5\text{mV}$ ва 0.05Гц-150Гц оралиғи билан чегараланган сигналлар кўринишида ҳосил бўлади. Дифференциал сигнал миқдори интерфейснинг динамик диапазон талабига ва сигналнинг частотаси интерфейснинг ўтказувчанлик қобилияти талабига мос келади.

Дифференциал сигналдан ташқари электроднинг интерфейси кўшимча 300mV атрофида доимий токни беради. Ушбу ток асосий сигналга қўшилиб кетмаслигини олдини олиш лозим ва бу икки хил усулда амалга оширилади. Тизимда фойдаланилган АРЎ қурилмасида фойдаланилган филтрлар турига боғлиқ равишда кўшимча ҳосил бўлган сигнал бутунлай ўчирилади ёки асосий сигналга қўшилиб кетишини олди олинади [10]

Сигналнинг частотаси - тизимнинг филтрлари учун талаб этиладиган 3дБ частотани қирқиб олишни таъминлайди. ЭКГ сигналларига ишлов беришдаги энг асосий муаммоли вазият шундан иборатки, электродлардан келаётган асл сигнал одатда ҳаракат артефактлари ва кардиостимулятор импульсларининг шовкинлари орқали таъсирланади. Одатда кардиостимулятор импульслари қурилма ёки дастурий таъминот орқали аниқланади ва филтрланади. Филтрлашнинг дастурий ёндашув усулида юқори частотали ўтказувчанлик қобилиятига эга ташқи интерфейс ва юқори частотали дискретизацияли АРЎ жараёни талаб қилинади. Бу усулнинг авзаллиги, кардиостимулятор импульсларининг динамик ўзгаришига мослаб дастурни ҳам ўзгартириш мумкин бўлади.

Юқоридаги кўриб чиқилган ишлардан хулоса қилиш мумкинки, кичик ўлчамли ва арзон ЭКГ қурилмасини ишлаб чиқишда АРЎ учун энг мос чип ADS1298 танланди. Тиббиётда кичкина ўлчамли, кам қувват талаб қиладиган, арзон, кўп каналли ЭКГ қурилмаларини ишлаб чиқишда ADS1298 чипи энг яхши ечим экани таҳлидан аниқланди. 12-каналли ЭКГ сигналларини ҳосил қилиш кетма-кетлиги 2-жадвалга мувофиқ амалга оширилади.

4-расм (а)да ADS1298 асосидаги 12-каналли ЭКГ қурилма-таъминотининг Proteus муҳитидаги симуляция модели ва (б)да ишлаб чиқилган прототип кўриниши келтирилган.


ADS1298 асосида 12-каналли ЭКГ сигналлари 2-расмда кўрсатилган тартибда 10 та электродлардан келаётган сигналлар орқали, шулардан 8 таси ЭКГ сигналлари учун ишлатилади, олинади. Электродлардан қабул қилинган ва ADS1298 орқали узатилган 8 та канал ахборотидан 2-жадвалда келтирилган тартибда 12-каналли ЭКГ сигналлари ҳосил қилинади.

2-жадвал


ЭКГ каналларини ҳисоблаш

ADS1298 қурилма каналлари	Ҳосил қилинган каналлар
1 (V6)	$V6=V6-WCT$
2 (I)	$I=LA-RA$
3 (II)	$II=LL-RA$
4 (V2)	$V2=V2-WCT$
5 (V3)	$V3=V3-WCT$
6 (V4)	$V4=V4-WCT$
7 (V5)	$V5=V5-WCT$
8 (V1)	$V1=V1-WCT$
9 (III)	$III=II-I$
10 (aVR)	$aVR=-(II+I)/2$
11 (aVL)	$aVL=-(I-II)/2$
12 (avF)	$avF=-(I-II)/2$

ADS1298 чипидан келаётган 8та канал ахборотининг умумий ҳажми $2^4 \times 8 = 2^4 \times 2^3 = 2^7$ га тенг. Бу ахборотни $2^7 \times 50/8 = 838\ 860\ 800$ ёки $838\ 860\ 800/1024 = 819200$ Кбайт ёки 800 Мбайт кўринишида тасвирлаб, 16 санок системасига ўтказганда сониясига умумий маълумот ҳажми $800/2^{16} = 0,0122$ Мб тенг бўлади. ЭКГ қурилмасини лойihalаш учун танланган Bluetooth HC-05 қурилмасининг умумий ўтказувчанлик қобилияти 2.1 Мбитс бўлиб, АРЎ қурилмаси орқали ҳосил бўлган рақамли ахборотни симли узатиш/қабул қилиш учун қуйилган талабга тўлиқ мос келади.



(a)



(б)

4-расм. (а) ЭКГ қурилма-таъминотининг симуляция модели (б) ЭКГ қурилма-таъминоти

Хулоса. Смартфон билан интеграцияланувчи кичик ўлчамли ва арзон 12-каналли ЭКГ қурилма таъминотини лойиҳалаш ва ишлаб чиқиш амалга оширилди. Смартфон билан симсиз уланишни қўллаб қувватловчи ушбу 12-каналли ЭКГ қурилмасини ишлаб чиқиш жараёнида энг муҳим бўлган АРУ қурилмалари ўрганилди ва қиёсий таҳлил қилинди. Таклиф этилаётган қурилманинг кичик ўлчамда ва арзон нархларда ишлаб чиқиш жараёнига алоҳида эътибор берилди.

Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлигининг давлатга тегишли бўлган ва хусусий тиббиёт муассасаларида фойдаланилаётган деярли барча ЭКГ қурилмалари хорижий мамлакатлардан импорт қилинади. Ўзбекистон бозорига олиб кирилаётган ҳаққон қурилмалар асосан стационар ҳолатлар учун мўлжалланган ва мобил кўринишли симсиз кўп-каналли ЭКГ қурилмалари сотувда деярли мавжуд эмас, асосан буюртма асосида етказиб берилади.

Таклиф этилаётган 12-каналли ЭКГ қурилмасини нафақат барча Соғлиқни сақлаш вазирлигининг тасаруфидаги муассасаларда жорий этиш мумкин, балки эҳтиёж туғилганида мустақил фойдаланувчилар ҳам уй шароитида ҳам спорт машғулотларида фойдаланишлари мумкин. Шунингдек, ушбу қурилмани такомиллаштириб

суткали холтер сифатида ҳам ишлаб чиқишни йўлга қўйиш мумкин.

Энг муҳими смартфон ЭКГ қурилма-дастурий воситасини стандарт кўринишда ишлаб чиқиш йўлга қўйилса, ЭКГ фойдаланувчилари масофадан туриб реал вақтда шифокорга маълумотларни жўнатишлари ва ушбу маълумотлар асосида шифокорлар қарор қабул қилишлари ва касалликка ташхис қўйишлари мумкин бўлади. Қўшимча қилиб айтганда, яқин келажакда мобил соғломлаштириш платформасини ишлаб чиқишда ушбу ишнинг натижаларидан фойдаланиш мумкин.

Адабиётлар

[1] Harrison. Principios de Medicina Interna. 16° Ed. McGrawHill Interamericana, 2006
 [2] <http://www.ti.com/general/docs/lit/getliterature.tsp?baseLiteratureNumber=sbaa160>
 [3] Nguyen HH, Silva JNA. “Use of smartphone technology in cardiology”, Trends in Cardiovascular Medicine, 1;26(4), pp. 376-386, 2016
 [4] <https://www.gimaitaly.com/DocumentiGIMA/Manuali/EN/M33223EN.pdf>
 [5] <http://www.ti.com/product/ADS1298>
 [6] <https://www.analog.com/en/products/adas1000.html>

#product-overview

[7] www.st.com/content/ccc/resource/sales_and_marketing/promotional_material/flyer/6b/b5/11/8d/60/32/48/bb/564.pdf/files/564.pdf/jcr:content/translations/en.564.pdf

[8] ITU-R recommendation is Recommendation ITU-R SM.1056-1: Limitation of radiation from industrial, scientific and medical (ISM) equipment.

[9] Bharath Raj Kidambi, Aayush Kumar Singal, and Sai Krishna Reddy, "Smart phone electrocardiogram – Bridging the gap," Journal of the Practice of Cardiovascular Sciences, 2018.

[10] International Electrotechnical Commission, IEC 60601-2-25 Medical electrical equipment. Part 2: Particular requirements for safety, including essential performance, of recording and analyzing single channel and multichannel electrocardiographs, Edition 2.0, 2011

Рашид Ҳамид ўғли Насимов

Катта ўқитувчи, "Компьютер тизимлари" кафедраси,
Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот
технологиялари университети (ТАТУ)
Эл. почта: rashid.nasimov@gmail.com

R.H. Nasimov

12-leads electrocardiography hardware

This paper is devoted to the development of 12-leads ECG device based on the ADS1298 and the process of connecting to an Android smartphone via a wireless interface. The ADS1298 is a 24-bit analog-to-digital converter (ADC), low-power, low-noise, internal multiplexer, low-pass analog filter and digital filter-based device that supports the development of a multi-channel ECG device at low prices and small size. The results of this work can be applied to the development of portable ECG devices in the future.

keywords: analog-to-digital conversion, electrocardio-graph, electrode, interface, microcontroller.

УДК 681.328.518.5

Зайнидинов Х.Н., Жўраев Ж.Ў.

Функцияни интерполяциялашда Хаарнинг бўлак- полиномиал вейвлетлар усули

Ушбу мақолада функцияни Хаарнинг бўлак- ўзгармас ва бўлак- чизик вейвлетларида рақамли ишлаш алгоритми ишлаб чиқилди ҳамда интерполяциялаш хатолигини баҳолаш натижалари келтирилди. Хатоликни баҳолашда функцияни бўлак- ўзгармас, бўлак- чизик вейвлетларининг абсолют хатолиги ва нисбий хатолиги дастур натижасига асосан келтирилди. Маълумки функцияни бўлак- ўзгармас вейвлетлари ёрдамида ўзгартириш натижасида ортонормал вейвлетлар ҳосил қилинади, натижада функция графиги бўйлаб хатоликлар кескин ошиб кетади, бу хатоликларни камайтириш мақсадида бўлак- чизикли вейвлетлардан фойдаланилди ва натижада хатоликларни камайтиришга эришилди.

Калит сўзлар: вейвлет ўзгартириш, интерполяция, интерполяциялаш хатолиги, Хаар вейвлети, бўлак- ўзгармас вейвлет, бўлак- чизикли вейвлет.

Кириш

Реал объектлардан олинган сигналларнинг моделларини куриш учун гармоник функциялардан кенг фойдаланилади. Бунинг сабаби, реал объектлардан олинган кўплаб сигналларни синусоида ва косинусоида тебранишларининг комбинацияси билан ифодалаш мумкин, бунинг учун Фурье таҳлил аппарати қўлланилади. Натижада кийинчалик частота функцияларига ўтилади. Шу билан бирга, функцияни синусоида ва косинусоида функциялари билан ифодалаш кўпгина имкониятларни яратади. Ҳар қандай ортогонал вейвлетларнинг тўлиқ тизимини Фурье қаторига мос келадиган қаторларга ёйиш учун қўлланилиши мумкин [6]

Ҳозирги вақтда вейвлетлардан тасвирларни таниб олиш масалаларида, турли хил сигналларни, масалан, нутқни қайта ишлаш ва синтез қилиш вақтида, табиатдаги ҳар хил расмларни таҳлил қилишда (кўзнинг рангдор пардаси, буйракнинг рентгенографияси, булутнинг ёки сайёра сиртининг сунъий йўлдош расмлари ва бошқалар бўлиши мумкин) гирдобсимон майдонларнинг хусусиятларини ўрганишда ва бошқа ҳолларда фойдаланилмоқда [2]

Хаар-вейвлетининг тўлқин чизиклари функция графиги билан бирга вақт ўқи бўйлаб чўзилади. Хаар-вейвлетининг графиги кўп ҳолларда функция бўйлаб бир томонлама тўлқин чизиклар шаклида функцияга яқинлашади, бу эса баъзи бир сигналларни сиқишда яхши натижа беради. Унинг математик талқини-тўлқин ҳолатларини турли хил частотада таҳлил қилишга имкон беради. Хаар-вейвлет функцияси графигининг амплитудаси нолгача пасайиб тебранувчи тўлқинларни ҳосил қилади.

Асосий қисм. Хаар вейвлетининг тез ўзгартириш алгоритмлари мавжуд бўлиб, унинг ортогонал вейвлетлари амалий масалаларни ечишда кенг қўлланилади. Ортогонал Хаар вейвлети куйидагича ифодаланади [4]:

$$har_k(x) = har_{pj}(x) = \begin{cases} +1 & x \in h_{pj}^- \\ -1 & x \in h_{pj}^+ \\ 0 & x \in h_{pj} \end{cases}$$


Хаар базислари [2]да вейвлет сифатида қаралган. Хаар вейвлетлари икки сабабга қўра мутахассислар эътиборини жалб қилади:

1. Иккилик сегментларнинг умумий сонига нисбатан (берилган аниқлик билан) яқинлашиш учун зарур бўлган коэффициентлар сонини камайтириш.

2. Коэффициентларни ҳисоблаш жараёнида "узун" операциялар йўқлиги. Фақат қўшиш, масштаблаш ва ўзгартириш операцияларидан фойдаланилади.

Хаар бўлак- ўзгармас вейвлетларининг камчилиги функция яқинлашишда хатоликларнинг ошиб кетиши, яъни 0,1% аниқликни таъминлаш учун функциянинг бир қанча коэффициентларини хотирада сақлашни талаб этишидир.

Хотирада сақлаш талаб этиладиган коэффициентлар сонини камайтириш ва "силлиқлик" кўрсаткичларини яхшилайдиган усулларини қидириш вейвлетларнинг юқориқоқ даражасига ўтишни тақазо қилади. Уларнинг энг оддийлари бўлак-чизик вейвлетларидир, улар Хаар-вейвлетининг бўлак- ўзгармас вейвлетларини интеграллаш натижасида ҳосил қилинади.



1-расм а) Бўлак- ўзгармас, б) Хаар бўлак- чизик вейвлетлари.

1. а.-расмда Хаарнинг бўлак- ўзгармас вейвлетлари $har(x)$, ва 1.б-расмда Хаарнинг бўлак- чизик вейвлетлари келтирилган $hain(x)$.

Сигналларни вейвлет ўзгартириш жараёни икки кўринишдаги функциялардан фойдаланишга таянади: вейвлет функция ва масштаблаш функцияси, яъни улар битта оналик вейвлет $\psi(t)$ - ни сигнал бўйлаб вақт бўйича силжитиш b ва вақт масштабни a ўзгартириш йўли билан курилади:

$$\psi_{ab}(t) = \frac{1}{\sqrt{|a|}} \psi\left(\frac{t-b}{a}\right), \quad (a, b) \in R, \quad \psi(t) \in L^2(R)$$

Сигналларга рақамли ишлов беришда сигналларнинг деталларини ва локалик хусусиятларини ажратиш учун вейвлет функциялардан, сигналларни аппроксимациялаш учун эса масштаблаш функциясидан фойдаланилади. Вейвлет функцияларни танлашда уларнинг силлиқлик, ташувчи ўлчами ва қийматларининг нолга тенг ҳолатлари сони каби тавсифларига алоҳида эътибор қаратилган.

V^0 -деб, барча $[0, 1]$ ораликда ўзгармас функциялар тўпламини, яъни чизикли векторлар тўпламини белгилаймиз.

$$\phi(t) = \phi_{0,0}(t) = \begin{cases} 1, & 0 \leq t < 1 \\ 0, & \text{акс холда} \end{cases} \quad (1)$$

$i = 0$ бўлгандаги масштаблаш функцияси.

V^1 -тўпam $\left[0, \frac{1}{2}\right]$ ва $\left[\frac{1}{2}, 1\right]$ интервалда ўзгармас бўлган функциялар тўплами бўлиб, у чизикли векторларни ҳосил қилади. Масштаблаш функцияси эса V^1 -тўпamга тегишли бўлиб, унинг вейвлет функциялари сифатида қаралади:

$$\phi_{1,0}(t) = \phi(2t) = \begin{cases} 1, & 0 \leq t < \frac{1}{2} \\ 0, & \text{акс холда} \end{cases},$$

$$\phi_{1,1}(t) = \phi(2t-1) = \begin{cases} 1, & \frac{1}{2} \leq t < 1 \\ 0, & \text{акс холда} \end{cases} \quad (2)$$

$i = 1$ бўлгандаги масштаблаш функцияси.

Ушбу функция $[0, 1]$ интервалда, $\left[0, \frac{1}{2}\right]$ ва $\left[\frac{1}{2}, 1\right]$ интервалларда ҳам ўзгармасдир. Шунинг учун V^0 тўпamнинг ҳар бир элементи V^1 -тўпamнинг ҳам элементидир, яъни $V^0 \subset V^1$ муносабат ўринлидир. V^2 тўпamни ҳам шунга ўхшаш аниқлаймиз. $V^2 - \left[0, \frac{1}{4}\right], \left[\frac{1}{4}, \frac{1}{2}\right], \left[\frac{1}{2}, \frac{3}{4}\right], \left[\frac{3}{4}, 1\right]$ интервалга қарашли функциялар тўплами. Худди шундай V^n масштаблаш функциялар тўплами яъни,

$$\phi_{n,j}(t) = \phi(2^n t - j), \quad j = 0, 1, \dots, 2^n - 1$$

$$0 \leq 2^n t - j < 1, \quad \frac{j}{2^n} \leq t < \frac{j+1}{2^n}$$

$$\phi_{n,j}(t) = \begin{cases} 1, & \frac{j}{2^n} \leq t < \frac{j+1}{2^n} \\ 0, & \text{акс холда} \end{cases}, \quad j = 0, 1, \dots, 2^n - 1 \quad (3)$$

$$V^0 \subset V^1 \subset \dots \subset V^n \subset \dots$$

$i = n$ бўлгандаги масштаблаш функцияси, бу ерда,

$$0 \leq 2^n t - j < 1, \quad \frac{j}{2^n} \leq t < \frac{j+1}{2^n} \quad \text{масштаблаш}$$

функцияларининг ўзгариш интервалидир, $\phi_{n,j}(t)$ -лар

V^n га қарашли масштаблаш функцияларидир, унда скаляр кўпайтма киритилган векторлар тўплами мавжуд, демак бу тўпamлар Эвклид фазосини ташкил қилади. Бизнинг ҳолатда скаляр кўпайтма сифатида

$$(f, g) = \int_0^1 f(t)g(t)dt \quad (4)$$


кўринишни оламиз, бу формула ёрдамида C_n - масштаблаш функциялари коэффицентлари аниқланади.

У ҳолда

$$\phi_{n,j}(t) = \sqrt{2^n} \phi(2^n t - j), \quad j = 0, 1, \dots, 2^n - 1$$

(3) ва (4) кўринишлардан фойдаланиб, Хаар вейвлетининг коэффицентлари топилади:

$$C_n = \int_0^1 \phi_n(x) f(x) dx \quad (5)$$




2-расм. Функцияни бўлак- ўзгармас вейвлетларида интерполяциялашнинг блок схемаси.

Хаар вейвлетининг коэффициентларини топиш формуласи.

$$f(x) \cong \sum_{n=0}^{\infty} C_n \phi_n(x) \quad (6)$$

$f(x)$ бўлак-ўзгармас вейвлетларида интерполяцияланувчи функция. Мисол учун $f(x) = x^2$ функцияни бўлак-ўзгармас вейвлетларида интерполяциялашни блок схемаси 2-расмда келтирилган.

2-расмда келтирилган блок-схема асосида C++ Builder дастурлаш тилида ёзилган дастур натижаси 2-расмда келтирилган.



3-расм - функцияни Хаарнинг бўлак-ўзгармас вейвлетларида интерполяциялаш натижаси.

Кўпгина амалий масалаларни ечишда бўлак-ўзгармас вейвлетларнинг имкониятлари етарли эмас, шу билан бирга бўлак-ўзгармас вейвлетларнинг интерполяция хатолиги бўлак-чизикли вейвлетларнинг интерполяция хатолигидан катта, шу боис бўлак-чизикли вейвлетларга ўтиш мақсадга мувофиқдир. Мавжуд адабиётлар таҳлили шуни кўрсатадики, бўлак-чизикли Хаар-вейвлетини коэффициентларини аниқлаш алгоритми мавжуд эмас, шунинг учун ҳам бу турдаги вейвлетлар кенг қўлланилмаган.

Бўлак-чизикли Хаар вейвлетини яқинлаштириш кетма-кетлиги:

$$f(x) \cong \sum_{k=0}^{n-1} C_k h_{aink}(x) \quad (7)$$

бу кетма-кетликнинг камчилиги C_k -коэффициентларни тез ҳисоблаш алгоритмининг йўқлигидир.

Ушбу камчиликни вейвлет сплайнни қўллаш орқали йўқотиш мумкин. Агар параболик сплайннинг иккинчи тартибли ҳосиласини олсак, $f(x)$ функция $[0,1]$ оралиқда интерполяцияланувчи, ва сплайн тугун нукталарида кадамларнинг ўзгариши билан функция бўлак-ўзгармас бўлади, ҳамда бўлак-ўзгармас ортогонал вейвлетларни ҳосил қилади.


Масалан, Хаар вейвлетидан фойдаланиб сплайннинг ҳосиласини ёзамиз:

$$S_2''(x) \cong \sum_{k=0}^{n-1} C_k h_{ark}(x) \quad (7.1)$$

интеграллаш ҳақидаги теоремага кўра:

$$S_2'(x) = 2^p \int_0^x S_2''(u) du = \sum_{k=0}^{n-1} C_k h_{aink}(x) + S_2'(0) \quad (8)$$

параболик сплайннинг иккинчи тартибли ҳосиласини ортогонал Хаар вейвлетларининг коэффициентлари, $h_{ain}(x)$ -вейвлетларига нисбатан сплайннинг биринчи тартибли ҳосиласини коэффициентлари эканлиги маълум бўлди. Йиғиндидаги чизикли қисмининг коэффициенти $x=0$ нуктада $S_2(x)$ сплайннинг биринчи тартибли ҳосиласининг қиймати сифатида олинади.



4-расм. Функцияни бўлак-чизик вейвлетларида интерполяциялашнинг блок схемаси.

Агар сплайн-функция сифатида параболик В-сплайн олинса $y = f(x)$ функцияни сплайн орқали қуйидагича ифодалаш мумкин:

$$f(x) \cong b_{-1}B_{-1}(x) + b_0B_0(x) + b_1B_1(x) \quad (9)$$

бу ерда $f(x)$ -интерполяцияланувчи функция, $B_i(x)$ -параболик базисли сплайн, b_i -коэффициентлар бўлиб, улар қуйидагича ҳисобланади:


$$b_i = \frac{1}{8}(-f_{i-1} + 10f_i - f_{i+1}) \quad (10)$$

ёки функциянинг биринчи тартибли ҳосиласи В-сплайннинг биринчи тартибли ҳосиласи орқали қуйидагича ифодаланади:

$$f'(x) \cong b_{-1}B_{-1}'(x) + b_0B_0'(x) + b_1B_1'(x) \quad (9.1)$$

Мисол учун $f(x) = x^2$ функцияни Хаарнинг бўлак-чизик вейвлетларида интерполяциялашнинг блок-схемаси 3-расмда келтирилган.

Ушбу блок-схема асосида C++ Builder дастурлаш тилида ёзилган дастур натижаси 4-расмда келтирилган.



5-расм. $f(x) = x^2$ -функцияни бўлак-чизик вейвлетларида интерполяциялаш натижаси.

Бўлак-ўзгармас ва бўлак-чизик вейвлетларида интерполяциялаш хатолигини келтирамиз. $[a, b]$ да аниқланган $f(x)$ узлуксиз функция берилган бўлсин [2] $[a, b]$ сегментни

$$a \leq x_0 < x_1 < \dots < x_i < \dots < x_n \leq b$$

тугун нуқталарга ажратиб оламиз.

$$h = x_{i+1} - x_i = \text{const} \quad (11)$$

h - туғун нуқталар орасидаги масофа.

Хар хил даражали полиномлар учун интерполяциянинг методик хатоликларини аниқлаш формулалари мавжуд. Масалан, нолинчи даражадаги полиномлар учун (бўлак-ўзгармас функциялар учун) хатоликни баҳолаш формуласи қуйидагича ифодаланади:

$$|P(x) - f(x)| \leq \frac{1}{2} \max |f'(x)| h$$

Биринчи даражадаги полиномлар учун (бўлак-чизик вейвлетлар учун) хатоликни баҳолаш формуласи:

$$|P(x) - f(x)| \leq \frac{1}{8} \max |f''(x)| h$$

Функцияни бўлак-ўзгармас вейвлетларида интерполяциялашнинг абсолют ва нисбий хатоликларини баҳолашни келтирамиз:

$$\Delta_1 = \max_{a \leq x \leq b} |f(x_i) - \text{har}(x_i)| = 0.130900$$

$$\delta_1 = \frac{|f(x_i) - \text{har}(x_i)|}{f(x_i)} = 0.139122 \quad (13)$$

Δ_1 - бўлак-ўзгармас вейвлетнинг абсолют хатолиги

δ_1 - бўлак-ўзгармас вейвлетнинг нисбий хатолиги

Функцияни бўлак-чизик вейвлетларида интерполяциялашнинг абсолют ва нисбий хатоликларини баҳолашни келтирамиз:

$$\Delta_2 = \max_{a \leq x \leq b} |f(x_i) - \text{hain}(x_i)| = 0.009099$$

$$\delta_2 = \frac{|f(x_i) - \text{hain}(x_i)|}{f(x_i)} = 0.009672 \quad (14)$$

Δ_2 - бўлак-чизик вейвлетнинг абсолют хатолиги

δ_2 - бўлак-чизик вейвлетнинг нисбий хатолиги

Хулоса

Хаар-вейвлет ўзгартириш ёрдамида $y = f(x)$ функцияни бўлак-ўзгармас ва бўлак-чизик вейвлетларида интерполяциялаш моделини қуриб унинг хатоликларини баҳолаш амалга оширилди. Натижада (13) ва (14) формулалардан кўриш мумкинки, Хаарнинг бўлак-чизик вейвлетларида интерполяциялашнинг хатолиги бўлак-ўзгармас вейвлетларида интерполяциялашнинг хатолигидан 14,4 мартага кичик эканлиги маълум бўлди, хулоса қилиш мумкинки, функцияни интерполяция қилиш жараёнида бўлак-чизик вейвлетларидан фойдаланиш яхши натижа берар экан. Ушбу усулдан сигналларга рақамли ишлов бериш, сигналларни сиқиш, филтрлаш, ўзгартириш ва сигналлардан шовкинларни ажратиш масалаларини ечишда ижобий натижалар олиш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар

- [1] Акимов П.А., Мозгалева М.Л., “Некоторые элементы кратномасштабного вейвлет-анализа. часть 2. анализ и синтез”, Вестник МГСУ, 2012, № 8, 60–65
- [2] Астафьева Н.М. Вейвлет-анализ: Основы теории и примеры применения // Успехи физических наук, 1996, т.166, № 11. С. 1145–1170.
- [3] Ахметханов Р.С., Дубинин Е.Ф., Куксова В.И., “Применение вейвлет-преобразований для анализа экспериментальных данных”, Проблемы машиностроения и автоматизации, 2012, №4, 39–45
- [4] Зайнидинов Х.Н. Методы и средства обработки сигналов в кусочно полиномиальных вейвлетах. // «Ташкент», 2015. 70 стр.
- [5] Зайнидинов Х.Н., Сплайны в задачах цифровой обработки сигналов //Ташкентский университет информационных технологий-Т.: «Fan va texnologiya», 2015, 208 с.
- [6] Зайнидинов Хакимжон Насридинович, Атаджанова Мукаддас Пулатовна, Жиянбеков Хуршидбек Равшанбекович, “ Многопроцессорная вычислительная структура для выполнения быстрых спектральных преобразований в двумерных базисах”, автоматика и программная инженерия, Новосибирск. 2016. 38-42 стр.
- [7] Куликов Г.Б., Семеновых В.Н., “Методика диагностики технического состояния систем привода полиграфического оборудования с использованием вейвлет-преобразования”, Известия высших учебных заведений. проблемы полиграфии и издательского дела, 2012, № 4, 032–040
- [8] Патрикеев И.А., Фрик П.Г., Вейвлет-томография в условиях шума // Мат. моделирование систем и процессов. Пермь: ПГТУ. –1997. Вып.5, с. 86-924.
- [9] Прохоров С.А., Столбова А.А. Вейвлет-преобразование нерегулярных процессов без восстановления пропущенных отсчетов // Перспективные информационные технологии (ПИТ 2017): тр. Междунар. науч.-технич. конф. Самара, 2017. С. 154–156.
- [10] Фрик П.Г., Вейвлет-анализ и иерархические модели турбулентности: Препринт/ИМСС Уор РАН. Пермь, 19925.

[11] Amit Kumar and RajnishManwall, 'WAVELET BASED COMPRESSI- ON OF BIOLOGICAL IMAGES', International Journal of data and network security, Volume 3-No-1, ISSN23191236, February 2011.

[12] BakhtadzeN., Sakrutina E., "Applying the Multi-Scale Wavelet-Trans-form to the Identification of Non-linear Time-varying Plants", IFAC PAPERSONLINE,49:12 (2016),1927–1932

[13] Perov D.V., Rinkevich A.B., "Localization of Reflec-tors in Plates By Ultrasonic Testing With Lamb Waves", *Russ. J. Nondestr. Test.*, 53:4 (2017), 265–278.

[14] Sukharev A.L., "Variability of the Extragalactic Radio Sources 3C 446- and BI Lac in the Centimeter Wavelength Range", *Astrophysics*, 58:1 (2015), 1–13

[15] TurovskyYa. A., KurgalinS. D., VahtinA. A., Bor-zunovS. V., BelobrodskyV. A., "Event-related brain potential investigation using the adaptive wavelet recovery method", *BI-OPHYSICS*, 60:3 (2015), 443.

[16] ZayniddinovHakimjon, Madhusudan Singh, DhananjaySingh Poly- nomial Splines for Digital Signal and Systems. LAMBERT Academicpublishing, Germany, 2016, 208.p.

Зайнидинов Хакимжон Насриддинович

т.ф.д, проф, Муҳаммад ал-Хоразмий номидагиТошкент ахборот технологиялари университети (ТАТУ),

E-mail: tet2001@rambler.ru

Жўраев Жонибек Ўктамович

докторант, Самарқанд давлат университети (СамДУ),

E-mail: jurayevju@mail.ru

Zaynidinov X.N., JurayevJ.U.

Interpolation of functions using Piecewise constant and Piecewise linear Haar

Abstract. In this article, we developed an algorithm for the numerical processing of the Haar wavelet function Piecewise-constant and Piecewise-linear, as well as the results of estimating the interpolation error. In the error estimation function, Piecewise constant and Piecewise linear integral non-linear brackets were based on the results of the program. It is known that as a result of the change of function from Piecewise constant and Piecewise linear, that wavelet to errors in the graph of functions that are used to minimize errors, that wavelet Piecewise constant and Piecewise linear.

Keywords. wavelet transform, interpolation, error interpolation, Haar wavelet, Piecewise constant wavelet, Piecewise linear wavelet.

УДК 519.71(575.1)

Примова Х.А., Сафарова Л.У.

Норавшан тўпламлар назариясидан фойдаланиб сигирларда остеоидistroфия касаллик ҳолатини башоратлаш моделини қуриш

Ветеренария соҳасида касаллик турларини ва юзага келиш сабабларини аниқлаш ҳамда мақсадли даволаш усулларини такомиллаштириш сифатини оширишда компьютерли ташхислаш тизимлари учун норавшан тўпламлар назариясидан фойдаланиш қулай имконият яратади. Ушбу мақолада норавшан тўпламлар назариясидан фойдаланилган ҳолда қорамолларда иккиламчи остеоидistroфия касаллигининг сабаблари, ривожланиш хусусиятлари, клиник белгилари пайдо бўлиш эҳтимолини башоратлашнинг норавшан модели қурилган. Мақолада ишлаб чиқилган норавшан моделни чизикли дастурлаш масаласига келтириб ечиш мумкинлиги кўрсатилган. Ушбу модел ташхиснинг мураккаб алгоритмловчи масалаларини ечишда намоён бўлувчи норавшан экспертли тизимларнинг содда тизимлар олдидаги устуворликларини умумлаштириш асосида регрессион таҳлил қарорларни қабул қилишда вазиятни моделлаштиришга имкон беради.

Калит сўзлар: норавшан моделлар, остеоидistroфия касаллиги, қарор қабул қилиш, башоратлаш модели.

Кириш. Ҳозирги кунда башорат қилиш ва муқобил ташхис қўйиш масалаларини янги ахборот-коммуникацион технологиялар ёрдамида математик усуллардан фойдаланиш муҳим масалалар ҳисобланади. Касаллик турларини ва юзага келиш сабабларини эрта аниқлаш ҳамда мақсадли даволаш усулларини такомиллаштириш мукамал даволаш сифатини оширишда компьютерли ташхислаш тизимларини такомиллаштиришда сезиларли натижаларга эришилди. Шулар билан бир қаторда ҳайвоннинг касалликларига эрта ташхис қўйиш имконини берувчи мазкур тизимларни такомиллаштириш талаб этилмоқда.

Модда алмашинуви бузилишлари билан ўтадиган касалликлар асосан углеводлар – ёғлар ва оқсиллар алмашинуви бузилишлари устунлиги билан ўтадиган касалликлар, минерал моддалар алмашинуви бузилиши устунлиги билан ўтадиган касалликлар, микроэлементлар етишмовчилиги ёки ортикчалиги оқибатида келиб чиқадиган касалликлар, витаминлар алмашинуви бузилиши устунлиги билан кечадиган касалликлар бўлиши мумкин.

Шу қаторда жараённинг мумкин бўлган ривожланиши ҳайвонларга узоқ муддат кислоталик даражаси юқори ерларда етиштирилган озикаларнинг берилиши, рационда минерал моддаларнинг (макро ва микроэлементлар) етишмаслиги, қанд-оқсил нисбатининг 0,8:1 дан паст бўлиши оқибатида жигарнинг гликоген синтезлаш функциясининг бузилиши, гиперкетонемия, кетонурия, кетонлактая, қонда гемоглобин, эритроцитлар, умумий оқсил, азот ва мочевина миқдорларининг камайиши, ўта концентрат типда озиклантиришда улар таркибидаги сульфат ва фосфор кислоталарнинг кўплаб қонга ўтиши (интоксикация), қонда кетон таначалари миқдорининг кўпайиши, жигарнинг ўт ҳосил қилиш ва ажратиш функциясининг бузилиши ва гликоген захирасининг камайишини юзага келтиради [2, 3] Ушбу ҳолатлар касаллик авж олиш ҳолатини таснифлайди.

Сигирлар рационда оқсилли озикаларнинг ортикча ва қанд-оқсил нисбатининг 0,7-0,79 дан паст бўлиши ҳамда мис, кобальт, рух, марганец каби микроэлементлар етишмовчилигида ҳайвонлар жигарида дистрофик ўзгаришлар ривожланиши, шунингдек, эндоген рахит, иккиламчи остеоидistroфия каби минерал моддалар алмашинуви бузилишида касалликлар ривожланади [1,2]

Ушбу мақолада тақдим этиладиган усул ва моделлаштириш бошқа тегишли касалликларни назорат қилишни такомиллаштириш бўйича кейинги тадқиқотлар учун имкониятлар очади.

Мумаммонинг ўрганилганлиги. Кўпчилик олимлар ўзларининг илмий ишларини ҳайвонларда кетоз, алиментар ва иккиламчи остеоидistroфия, витамин ва минерал моддалар алмашинуви бузилиши касалликларини ўрганишга бағишлаган бўлиб, соғин сигирлар иккиламчи остеоидistroфиясининг этиологияси, ривожланиш механизмлари, диагностикаси, даволаш ва олдини олиш усуллари тўғрисида турлича хулосага келишган [2,3,6]

Қорамолларда иккиламчи остеоидistroфия касаллигининг тарқалиши, сабаблари, ривожланиш хусусиятлари, клиник белгилари, диагностикаси, даволаш ва гуруҳ усулида олдини олиш чора-тадбирлари тўғрисидаги адабиёт маълумотлари етарли даражада бўлсада Республикаимизнинг янгича тартибда иш юритаётган фермер хўжаликлари шароитида четдан келтирилиб парваришланаётган қора-ола зотли сигирларда бу касалликнинг тарқалиши, сабаблари, ривожланиш хусусиятлари, клиник белгилари, диагностикаси, даволаш ва гуруҳ усулида олдини олиш математик моделлаштириш жараёни кўрилмаган. Республикаимизда бугунги кунда янгича тартибда иш юритаётган фермер хўжаликлар парваришляётган сигирларда бу касалликнинг тарқалиши, сабаблари, ривожланиш хусусиятлари, клиник белгилари, диагностикаси, даволаш ва гуруҳ усулида олдини олиш математик моделлаштириш жараёни кўрилмаган. Республикаимизда бугунги кунда янгича тартибда иш юритаётган фермер хўжаликлар парваришляётган сигирларда бу касалликнинг тарқалиши, сабаблари, ривожланиш хусусиятлари, клиник белгилари, диагностикаси, даволаш ва гуруҳ усулида олдини олиш математик моделлаштириш жараёни кўрилмаган. Республикаимизда бугунги кунда янгича тартибда иш юритаётган фермер хўжаликлар парваришляётган сигирларда бу касалликнинг тарқалиши, сабаблари, ривожланиш хусусиятлари, клиник белгилари, диагностикаси, даволаш ва гуруҳ усулида олдини олиш математик моделлаштириш жараёни кўрилмаган.

Норавшан тўпламлар назарияси инсон фикрлашига яқин моделлаштириш, таснифлаш ва маълумотлар таҳлили каби масалаларни ҳал этишда лингвистик термлар орқали табиий тилда баён этилган ахборотлардан фойдаланади [6] Норавшан тўпламлар назарияси йўналиши бўйича ҳорижда Л.Заде, Е.Мамдани, М.Сугено, Р.А.Алиев, ҳамда Ўзбекистонда интеллектуал гибрид тизимларни, саноатда юмшоқ ҳисоблаш тизимларига асосланган, ноаниқлик шароитида қарорлар қабул қилиш, норавшан тўпламлар назарияси, норавшан мантиқ хулосалари усулларини ишлаб чиқишда Ф.Б.Абуталиев, Т.Ф.Бекмуратов, Д.Т.Мухамедиева, М.А.Раҳматуллаевларнинг илмий ишларида ўз аксини топган [7]

Шу билан бирга, норавшан тўпламлар назарияси кузатувнинг кўпгина вазифалари дастлабки маълумотларнинг ноаниқлиги шароитида ҳал қилиниши кераклиги зарур бўлган, уларнинг ишончлилиги бўйича детерминистик, эҳтимолий ва норавшан каби турлардан фойдаланиш мумкин.

Энг паст даражадаги "аниқ" (ноаниқ)лик бу норавшан маълумотлардир, лекин кўп ҳолатларда бу ягона бўлиб

колмокда, айниқса табиий касалликларнинг ривожланишини башоратли баҳолашда [6, 7]

1-жадвал

Кўрсаткичлар	меъёр
X ₁ -Температура	37,5-39,0
X ₂ -Пульс бир дақиқада	50-80
X ₃ -Нафас бир дақиқада	12-25
X ₄ -Руминация икки дақиқада	3-5
X ₅ - Эритроцитлар сони млн/мкл	5.0-7.5
X ₆ -Гемоглобин г/л методом (Гемометром Сали)	99-129
X ₇ - Умумий оксил г/л (метод Рефрактометрии)	68,0-78,6
X ₈ - Умумий кальций ммоль/л (метод Вигев. Каракашова)	2.5-3.13

Норавшан мухитда ўзаро таъсир кўрсатадиган бир нечта мезонлар учун қарорларни қабул қилиш жараёнида бир қатор усуллардан фойдаланган ҳолда кўрсатиш мумкин. Норавшан маълумотни таҳлил қилиш усулларида бири норавшан тўпламлар назарияси (НТН) бўлиб, бу адекват тавсиф умуман бўлмаганда ёки имконсиз бўлганда объектлар ва ҳодисаларнинг тахминий оғзаки тавсифини старлича намоиш этиш ва тегишли хулоса чиқариш имконини беради.

Тадқиқотимизнинг мақсади остеоидстрофия ҳолатини башорат қилиш имкониятини ўрганиш ва норавшан тўпламлар назариясидан фойдаланиб, сигирларда остеоидстрофия касаллик ҳолатни башоратлаш моделини қуришдан иборат.

Материаллар ва усуллар. Қорамолчилик фермер хўжаликлари шароитида четдан келтирилган ва маҳаллий зотларга мансуб сигирлар орасида иккиламчи остеоидстрофиянинг эҳтимолини баҳолашга имкон берадиган тегишли параметрлар ҳолатида мантикий-лингвистик моделларни қуриш ва натижаларини тақдим этиб боради. Тадқиқот асосида қурилган модел Самарқанд вилоятининг худудида ўтказилган тажрибалар билан солиштирилади. Башоратлаш моделларни тузишда ўтқизилган бир қанча тажрибалар асосида олинган натижалари тўғрисидаги статистик ҳисоботлар асосида касалликларнинг авж олишига ёрдам берадиган аниқланган омилларни ҳисобга олган ҳолда норавшан тўпламлар назариясидан фойдаланилади.

Тадқиқот натижалари ва муҳокама. Норавшан тўпламлар назариясидан фойдаланган ҳолда баҳолаш ва башоратлаш моделини экспертлар тизимидан сўров олиш орқали амалга оширилади, ҳар бир қаторда "агар . . . у ҳолда . . ." норавшан қонидани ишлаб чиқиш орқали амалга оширилади. Бунда экспертга кириш лингвистик параметрларининг маълум қийматлари тўплами берилади, чунки у баъзи ҳолатларга ташхислашга мос келади.

Ушбу ёндашув миқдорий ва сифатли (оғзаки) ўзгарувчиларни ҳисобга олишга имкон беради ва математиканинг махсус бўлимларини билишни талаб қилмайди, эксперт вазиятни фақат унинг профессионал тилида баҳолаш учун қолдиради. Бундан ташқари, тажрибавий маълумотлар асосида ортогоналлик ўзгарувчиларнинг (матрица устунлари) мустақиллигини ва ўзгарувчанлигини таъминлайди - барча ўзгарувчиларда экспертнинг норавшанлиги "ўхшашлик", бу мутахассиснинг интуитив билимига мос келади ва уларни

кўпайтирилган модел кўринишида расмийлаштиришга имкон беради.

Қабул қилинган клиник амалиётга мувофиқ равишда асосий касаллик аниқланади. Берилган маълумотлар асосида ташхислар рўйхати тузилади ва ҳар бир ташхисга сонли қиймат бериб чиқамиз. Иккиламчи остеоидстрофия касаллик ташхисини ўрнатганда лаборатория шароитларида ўлчанадиган қуйидаги асосий параметрларни эътиборга оламиз (2-жадвал).

2-жадвал

Соғлом ҳайвонлардаги меърий кўрсаткичлар

X ₉ - Органик фосфор ммоль/л (метод Пульса В.Ф. Кромислов и модификация Л.А Кудряцева)	1,45-1,94
X ₁₀ - Глюкоза ммоль/л (цветная реакция с ортотолуидином)	2,22-3,33
X ₁₁ - Ишкорий захира (СО ₂) об %(методом И.П Кондрахин)	44-66
X ₁₂ -Мис моль/л	14,1-17,3
X ₁₃ -Кобальт моль/л	0,51-0,85
X ₁₄ - Марганец моль/л	2,73-4,55
X ₁₅ - рух моль/л	46,2-77,0
X ₁₆ - Катта қориндаги инфузориялар сони1000/мл	595±43
X ₁₇ - катта қорин суюқлиги рН (РА метром)	6.5-7.5

Ушбу меърий кўрсаткичлардан камайиш ва ошиши даржасига қараб касаллик белгилари келиб чиқади.

Тажрибавий маълумотлар асосида остеоидстрофия пайтида суяк тўқимаси таркибидаги кальций миқдори соғлом ҳайвонларга нисбатан қовурғида 45,5% га, сон суягида 34,4%, дум суягида 38,5% га камайиши, фосфор шунга мос ҳолда 31,4 %, 50,0%, 72,1% га, магний 27,9%, 40,8%, 8,7%, марганец 31,0 %, 74,4 %, 34,2 % га камаяди ушбу ҳолатни баҳош учун норавшан мантикий моделини қуриш жараёни кўриб чиқамиз.

Умумий ҳолатда норавшан қондалар хулосаларидан иборат қуйидаги кўринишдаги модел қуриш талаб этилсин:

$$\bigcup_{p=1}^{k_j} \left(\bigcap_{i=1}^n x_i = a_{i,jp} - w_{jp} \text{ вазн билан} \right) \rightarrow y_j = (1)$$

$$v_{j,0} + v_{j,1}x_1 + \dots + v_{j,n}x_n.$$

$v_{j,n}$ -баҳолаш коэффициентлари ва x_n -киритилувчи маълумотлар берилган бўлсин.

Модел қуриш жараёнида норавшан қондалар хулосалари

$$V = (v_{1,0}, v_{2,0}, \dots, v_{m,0}, v_{1,1}, v_{2,1}, \dots, v_{m,1}, \dots, v_{1,n}, v_{2,n}, \dots, v_{m,n}, \dots, v_{1,n}, v_{2,n}, \dots, v_{m,n}),$$

$$i = \overline{1, n}, j = \overline{1, m}$$

коэффициентларини шундай қийматларини топиш керакки, у қуйидаги ифодани минимумга эриштирсин:

$$\sum_{r=1, M} (y_r - y_r^f)^2 \rightarrow \min (2)$$

Бу ерда Y касаллик натижаси, X -кирувчи маълумотлар. Бунда $y_r^f - (X_r)$ танловнинг r - сатридаги киришларнинг V параметрли норавшан билимлар базаси бўйича чиқариш натижаси.

v_i – учбурчак кўринишидаги норавшан сонлар бўлсин [1]:

$$\mu_V(v_i) = \begin{cases} \frac{x - \beta_i}{c_i} & x > \beta_i, \\ \frac{\beta_i - x}{c_i} & x \leq \beta_i. \end{cases}$$

v_i норавшан сонни параметр кўринишида куйидагича ёзиш мумкин:

$$v_i = (\beta_i, c_i).$$

Бу ерда β_i – интервал маркази, c_i – интервал кенглиги $c_i \geq 0$.

Норавшан модел коррект бўлиши учун, у норавшан соннинг ҳақиқий қиймати куйидаги кўринишида чегараланишлари берилган интервал ноаниқликка тегишли бўлиши керак:

$$\begin{cases} \beta^T x - c^T |x| \leq y, \\ \beta^T x + c^T |x| \geq y. \end{cases} \quad (3)$$

(1) масаланинг ечимини куйидаги тарзда ифодалаш мумкин:

Норавшан коэффициентларнинг шундай (β_i, c_i) параметрларини топиш зарурки:

а) текширалаётган y_k қийматлар баҳолаш интервалига тегишли бўлсин.

б) баҳолаш интервали “кенгликлар йиғиндиси” минимал бўлсин.

Бу талабларни куйидаги чиқиқли дастурлаш масаласига келтириб ечиш мумкин [3]:

$$\begin{cases} \sum_k \sum_j c_j |x_{kj}| \rightarrow \min, \\ \sum_i \beta_i x_{ki} - \sum_i c_i |x_{ki}| \leq y_k, \\ \sum_i \beta_i x_{ki} + \sum_i c_i |x_{ki}| \geq y_k. \end{cases}$$

Мутахассисларнинг билимларига асосланиб, мумкин бўлганлар тўпламидан, ўрганилаётган ходисани мунтазам равишда намойиш этадиган омиллар майдони танланади.

Эксперт маълумотларини қайта ишлаш асосида мантикий-лингвистик модел олинади.

Қарор қабул қилиш жараёнида кўпинча кўп мезонли характерга эга бўлган масалалар билан тўқнашишга тўғри келади. Бунда мезонлар тўплами одатда тенг қийматли бўлмаган характерга эга бўлади. Башоратлаш моделлари самарадорлик кўрсаткичлари тўпламини (хусусий мақсадлар) самарадорликнинг битта баҳосига (умумий мақсад) келтириш учун қўлланилади. Яъни башоратлаш модели хусусий мақсадли функцияларни умумлашган мақсадли функцияга келтириш механизми ҳисобланади.

Хулоса. Шундай қилиб, норавшан тўпламлар назариясидан фойдаланиб норавшан модели яратилди.

Башоратлаш модели ветеринария амалиётида қўллаш орқали иккиламчи остеодинрозиясининг этиологияси Самарқанд вилоятининг худудида ветеринария-санитария тадбирларини оптималлаштиришга имкон беради. Мавжуд тажрибавий маълумотлар бўйича мавжуд билимлар норавшан экспертли тизимнинг адекватлигини ошириш имконини беради.

Ташҳиснинг мураккаб алгоритмловчи масалаларини ечишда намойиш бўлувчи норавшан экспертли

тизимларнинг содда тизимлар олдидаги устуворликларини умумлаштириш асосида регрессион таҳлил ташҳисли қарорларни қабул қилишда вазиятни моделлаштиришга имкон беради.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Юнкеров, В.И. Математико-статистическая обработка данных медицинских исследований / В.И. Юнкеров, С.Г. Григорьев, М.В. Резванцев. –3-е изд., доп. – СПб.: ВМедА, 2011. – 318 с.
2. С.Б. Эшбуриев. Сигирлар иккиламчи остеодинрозиясининг этиопатогенези ва профилактикаси //PhD диссертацияси 2011, Самарқанд, 122 б.
3. К. А. Лайшев, А. В. Прокудин, А. В. Спесивцев Прогностическое моделирование эпизоотической ситуации с применением нечетких множеств //Проблемы ветеринарной санитарии, гигиены и экологии. 2016. № 3. -С. 87-92. ISSN 2075-1818.
4. Лайшев К.А., Спесивцев А.В., Шалаев И.М. Нечеткие множества в эпизоотологическом прогнозировании //Актуальные проблемы инфекционной патологии и иммунологии животных /Всерос. науч.-исслед. ин-т эксп. ветеринарии. - М, 2006. - С. 88-89.
5. Спесивцев А.В. Управление рисками чрезвычайных ситуаций на основе формализации экспертной информации. - СПб.: Изд-во Политехн. ун-та, 2004. - 238 с.
6. Заде Л.А. Роль мягких вычислений и нечеткой логики в понимании, конструировании и развитии информационных интеллектуальных систем //Новости Искусственного Интеллекта. 2001.-№2-3. -С.7-11.
7. Алоев Р. Мухамедиева Д., Нуриллаев М.М., Абдурахмонов Т.Т. Идентификация зависимостей успеваемости студентов с помощью нечеткой базы знаний и регрессионной модели. // Совместный выпуск Узбекского журнала «Проблемы информатики и энергетики» и сборника научных трудов «Вопросы вычислительной и прикладной математики» по материалам республиканской научно-технической конференции «Моделирование и управление в реальном секторе экономики». 23-26 сентябрь. Ташкент, 2009, С.111-114.

Примова Холида Анорбоевна

т.ф.д., ТАТУ Самарқанд филиали “Ахборот технологиялари” кафедраси доценти.

Эл. почта: xolida_primova@mail.ru

Сафарова Лола Ўлмасовна

Самарқанд Ветеринария медицинаси институти катта ўқитувчиси.

Эл. почта: lola.safarova.81@inbox.ru

A prognostic model with the use of fuzzy sets for the state of osteodystrophy disease in cows is developed Primova X.A., Safarova L.U.

Good opportunities are given in the field of veterinary medicine using the theory of fuzzy sets in computer diagnostic systems to improve the quality of targeted treatment methods, determine the causes of diseases and types of diseases. This paper has developed a fuzzy model for predicting the cause, signs of development and clinical signs of secondary osteodystrophy disease.

This model allows you to simulate a solution to a regression analysis based on a generalization of the advantages of fuzzy expert systems over simple systems that can be used to solve complex diagnostic algorithms.

Key words: fuzzy models, osteodystrophy disease, decision making, prognostic models.

УДК 519.6: 556.3

Усмонов Р.Н. Далиев Ш.К.

Численное моделирование двух водоносных горизонтов

В этом исследовании на двухслойном водном слое была разработана математическая модель поглощения подземных вод, накопления воды и фильтрации солей. Двухуровневые водоохранилища составили и пронумеровали математическую модель проблемы восстановления подземных вод. Количество исследований имеет большое практическое значение, и в некоторых регионах необходимо восстановить засоленные почвы и создать чистые водные ресурсы в качестве неблагоприятной для окружающей среды ситуации.

Ключевые слова: водозаборы подземных вод, перенос солей, математическая модель фильтрации, технологические схемы распреснения, геофильтрационный процесс, высокоминерализованные подземные вод.

Введение. В последнее время успешно развивается гидрогеологическое моделирование искусственное воспроизведение на различных моделях процессов фильтрации подземных вод и связанных с ними явлений для решения гидрогеологических задач. Она используется не только для количественной оценки условий фильтрации в сложной природной обстановке, но и для более глубокого изучения общих региональных закономерностей формирования, распространения и движения подземных вод, а также научного обоснования методов и объемов проектируемых гидрогеологических исследований.

Численные решения в этом случае становятся не только способом получения количественных характеристик, но и методом установления закономерностей изучаемого процесса. Так, на базе той или иной физической модели, охватывающей основные стороны процесса, можно получить соответствующую математическую модель в виде некоторой системы уравнений, которые решаются численными методами с применением ПК (персональных компьютеров).

Успех численного решения конкретной задачи невозможен без четкой физической и математической постановки, без знания параметров и исходных данных задачи, в том числе степени их достоверности.

При численном методе решения должны привлекаться все доступные способы изучения задачи (аналитические средства): точные и автоматические решения, получаемые при специальных предположениях, асимптотические оценки, размерный анализ, а также экспериментальные факты.

В результате численного решения можно выявить существенные закономерности процесса, исследовать влияние на него различных параметров и т. п. Затем можно перейти к другим, более сложным, физическим моделям. Численные методы, которые реализуются на ПК, должны быть экономичными, т. е. затрачивать минимальное число арифметических операций; универсальными, т. е. пригодными для широкого класса прикладных задач, и просто реализуемыми на ПК. Естественно, что в круг таких свойств входят сходимость и устойчивость численного метода.

Основная часть. Результатам анализа гидрогеологических условий, территорию в геофильтрационном отношении следует считать как двухслойную по вертикали среду, состоящую из двух водоносных горизонтов (с относительно близким значением проницаемости), разделенных слабопроницаемым слоем.

Тогда движение ПВ (подземных вод) в таких условиях описывается системой дифференциальных уравнений в частных производных [1,2]:

$$\left. \begin{aligned} \mu \frac{\partial h}{\partial t} &= -k_b \frac{h-H}{m_b} + f - \omega, \\ \mu^* \frac{\partial H}{\partial t} &= -k \frac{H-h}{m} + \frac{\partial}{\partial x} \left(T \frac{\partial H}{\partial x} \right). \end{aligned} \right\} \quad (1)$$

где $h(x,t)$, $H(x,t)$ - уровни грунтовых и напорных вод; μ - коэффициент водоотдачи или недостатка насыщения; μ^* - коэффициент упругой водоотдачи; m_b , m - мощность разделяющего слоя; k_b , k - коэффициенты фильтрации нижних и верхних пластов.

Система (1) решается при следующих начальных условиях:

$$h(x,0) = h_0, \quad H(x,0) = H_0. \quad (2)$$

где: $h_0(x)$, $H_0(x)$ - уровни грунтовых и напорных вод.

Тогда из (1) введем обозначение

$$\frac{\partial}{\partial x} \left(T \frac{\partial H}{\partial x} \right) = 0, \quad A = -\frac{k_b}{\mu m_b}, \quad B = -\frac{k}{\mu^* m}, \quad \frac{(f-\omega)}{\mu} = q,$$

$$\left. \begin{aligned} \frac{\partial h}{\partial t} &= A(h-H) + q, \\ \frac{\partial H}{\partial t} &= B(H-h). \end{aligned} \right\} \quad (3)$$

$q = const$, дифференцируем 1- уравнение по t в (3).

$$\frac{\partial^2 h}{\partial t^2} = A \frac{\partial h}{\partial t} - A \frac{\partial H}{\partial t}, \quad (4)$$

Вместо $\frac{\partial H}{\partial t}$ поставим 2- уравнение системы (3):

$$\frac{\partial^2 h}{\partial t^2} = A \frac{\partial h}{\partial t} - A \cdot B (H-h), \quad (5)$$

А вместо $(H-h)$ используя 1- уравнение системы (3), получим

$$\frac{\partial^2 h}{\partial t^2} = (A+B) \frac{\partial h}{\partial t} - Bq, \quad (6)$$

$$\frac{\partial^2 h}{\partial t^2} - (A+B) \frac{\partial h}{\partial t} = -Bq. \quad (7)$$

После обозначение $\frac{\partial h}{\partial t} = Y$, $-(A+B) = K$, $-Bq = M$ уравнение (7) выглядит так:

$$Y' + KY = M. \quad (8)$$

Решение уравнение (9) будем искать следующим образом:

$$\begin{aligned} Y &= e^{-\int K dt} \left[\int M e^{\int K dt} dt + c \right] = e^{-Kt} \left[\int M e^{Kt} dt + c \right] = \\ &= e^{-Kt} \left[\frac{M}{K} e^{Kt} + c \right] = \frac{M}{K} + c e^{-Kt}, \end{aligned} \quad (9)$$

$$\frac{\partial h}{\partial t} = \frac{M}{K} + ce^{-Kt}. \quad (10)$$

В результате интегрирования (10) получится:

$$h = \frac{M}{K}t - \frac{c}{K}e^{-Kt} + c_1, \quad (11)$$

Н точно также:

$$H = \frac{M}{K}t - \frac{s}{K}e^{-Kt} + s_1. \quad (12)$$

Используем начальные условия (2) получим приведенные выше:

$$h(x,t) = \frac{Bq}{A+B}t + \left(\frac{A(h_0(x) - H_0(x)) + q}{A+B} - \frac{Bq}{(A+B)^2} \right) e^{(A+B)t} + \frac{B}{A+B}h_0(x) + \frac{A}{A+B}H_0(x) - \frac{q}{A+B} + \frac{Bq}{(A+B)^2}, \quad (13)$$

$$H(x,t) = \frac{Bq}{A+B}t + \left(\frac{B(H_0(x) - h_0(x))}{A+B} - \frac{Bq}{(A+B)^2} \right) e^{(A+B)t} + \frac{A}{A+B}H_0(x) + \frac{B}{A+B}h_0(x) + \frac{Bq}{(A+B)^2}. \quad (14)$$

Принятые условия фильтрации дают основание представить математическую модель солей переноса так[3,4]:

$$\left. \begin{aligned} n_0 \frac{\partial c_0}{\partial t} &= \frac{\partial}{\partial x} (D_x \frac{\partial c_0}{\partial x}) - V_x \frac{\partial c_0}{\partial x}, \\ n_1 \frac{\partial c_1}{\partial t} &= \frac{\partial}{\partial x} (D_x^* \frac{\partial c_1}{\partial x}) - V_x^* \frac{\partial c_1}{\partial x}. \end{aligned} \right\} \quad (15)$$

Начальные условия:

$$c_0(x,0) = c_{00}(x), \quad c_1(x,0) = c_{10}(x). \quad (16)$$

Граничные условия:

$$\left(V_x c_0 - D_x \frac{\partial c_0}{\partial x} \right) \Big|_{x=L_x} = 0, \quad \frac{\partial c_1}{\partial x} \Big|_{x=0} = 0, \quad (17)$$

$$c_0(x,t) \Big|_{x=m-0} = c_1(x,t) \Big|_{x=m+0}, \quad (18)$$

$$V_x c_0 - D_x \frac{\partial c_0}{\partial x} \Big|_{x=m+0} = V_x^* c_1 - D_x^* \frac{\partial c_1}{\partial x} \Big|_{x=m-0}. \quad (19)$$

где $c_0(x,t)$, $c_1(x,t)$ - концентрация солей грунтового и напорного водоносных горизонтов; V_x , V_x^* ($V_x = -k_b \frac{h-H}{m_b}$, $V_x^* = -k \frac{H-h}{m}$) - скорости фильтрации; D_x , D_x^* - коэффициенты конвективной диффузии солей; $c_{00}(x,t)$, $c_{10}(x,t)$ - начальные распределения солей в грунтовом и напорном водоносном горизонтах; n_0 , n_1 - активная пористость грунта в соответствующих зонах.

Решение. Для решения задачи (15)-(19) применяем метод конечных разностей [5,6,7] В области $D = \{0 \leq x < L_x, 0 \leq t \leq T\}$ вводим сетку, где Т максимальное время, в течение которого исследуется процесс. Для этого интервал $[0, a]$ разбиваем с шагом h, а $[0, T]$ с шагом τ . В результате имеем сетку:

$$\omega_{ht} = \{(x_i, t_j), i = 0, 1, 2, \dots, N \quad j = 0, 1, \dots, J; \quad (20)$$

$$x_i = ih; \quad t_j = j\tau; \quad \tau = T / J, \quad m = h \cdot n\}$$

Аппроксимируем уравнение (20), используя неявную схему на сетке ω_{ht} в виде

$$\left. \begin{aligned} n_0 \frac{C_{0i}^{j+1} - C_{0i}^j}{\tau} &= D_x \frac{C_{0i-1}^{j+1} - 2C_{0i}^{j+1} + C_{0i+1}^{j+1}}{\Delta^2} - V_x \frac{C_{0i}^{j+1} - C_{0i-1}^{j+1}}{\Delta}, \\ n_1 \frac{C_{1i}^{j+1} - C_{1i}^j}{\tau} &= D_x^* \frac{C_{1i-1}^{j+1} - 2C_{1i}^{j+1} + C_{1i+1}^{j+1}}{\Delta^2} - V_x^* \frac{C_{1i}^{j+1} - C_{1i-1}^{j+1}}{\Delta}. \end{aligned} \right\} \quad (21)$$

Разностная схема (21) приведена к системе линейных алгебраических уравнений

$$A_0 C_{0i-1}^{j+1} - B_0 C_{0i}^{j+1} + E_0 C_{0i+1}^{j+1} = -F_0, \quad i = \overline{1, I-1}, \quad j = \overline{0, J-1}, \quad (22)$$

$$A_1 C_{1i-1}^{j+1} - B_1 C_{1i}^{j+1} + E_1 C_{1i+1}^{j+1} = -F_1, \quad i = \overline{1, I-1}, \quad j = \overline{0, J-1}. \quad (23)$$

где

$$A_0 = \left(\frac{D_x \tau}{n_0 \Delta^2} + \frac{V_x \tau}{n_0 \Delta} \right), \quad B_0 = \left(\frac{2D_x \tau}{n_0 \Delta^2} + \frac{V_x \tau}{n_0 \Delta} + 1 \right), \quad E_0 = \frac{D_x \tau}{n_0 \Delta^2},$$

$$A_1 = \left(\frac{D_x^* \tau}{n_1 \Delta^2} + \frac{V_x^* \tau}{n_1 \Delta} \right), \quad B_1 = \left(\frac{2D_x^* \tau}{n_1 \Delta^2} + \frac{V_x^* \tau}{n_1 \Delta} + 1 \right), \quad E_1 = \frac{D_x^* \tau}{n_1 \Delta^2}.$$

Аппроксимация граничных условий (17), (18), (19) определяется следующим образом:

$$C_{0N}^{j+1} - C_{0N-1}^{j+1} = 0, \quad C_{0N}^{j+1} = C_{0N-1}^{j+1},$$

$$C_{11}^{j+1} = C_{01}^{j+1}, \quad C_{0n}^{j+1} - C_{1n}^{j+1} = 0, \quad C_{0n}^{j+1} = C_{1n}^{j+1},$$

$$V_z C_{0n}^{j+1} - D_z \frac{C_{0n+1}^{j+1} - C_{0n}^{j+1}}{\Delta} = V_z^* C_{1n}^{j+1} - D_z^* \frac{C_{1n}^{j+1} - C_{0n-1}^{j+1}}{\Delta}.$$

Решение систем уравнений (22) поищем следующим образом:

$$C_{0i}^{j+1} = \alpha_{0i-1} C_{0i-1}^{j+1} + \beta_{0i+1}. \quad (24)$$

если примем обозначение $i \approx i + 1$, тогда

$$C_{0i+1}^{j+1} = \alpha_{0i} C_{0i}^{j+1} + \beta_{0i} \text{ из этого после сравнения:}$$

$$\alpha_{0i-1} = \frac{A_0}{B_0 - E_0 \cdot \alpha_{0i}},$$

$$\beta_{0i-1} = \frac{F_0 + E_0 \cdot \beta_{0i}}{B_0 - E_0 \cdot \alpha_{0i}}, \quad i = N-1, \dots, n+1$$

$$\alpha_{0N-1} = 1, \quad \beta_{0N-1} = 0.$$

Решение системы (23) ищется как последовательность поиска решение системы уравнений (22):

$$C_{1i}^{j+1} = \alpha_{1i+1} C_{1i+1}^{j+1} + \beta_{1i+1}. \quad (25)$$

примем обозначение $i \approx i - 1$, тогда

$$C_{1i-1}^{j+1} = \alpha_{1i} C_{1i}^{j+1} + \beta_{1i} \text{ из этого после сравнения:}$$

$$\alpha_{1i+1} = \frac{E_1}{B_1 - A_1 \cdot \alpha_{1i}},$$

$$\beta_{1i+1} = \frac{F_1 + A_1 \cdot \beta_{1i}}{B_1 - A_1 \cdot \alpha_{1i}}, \quad i = 1, \dots, n-1$$

$$C_{0n} = c_{1n} \quad \alpha_{11} = 1, \quad \beta_{11} = 0.$$

Численные результаты расчетов для следующих безразмерных параметров приведены на рис.1,2,3:

$$q = 0, \quad \mu = 0.006, \quad \mu^* = 0.003, \quad k_b = 10.8, \quad k = 5.9, \quad m = 4,$$

$$m_b = 4.5, \quad n_0 = 0.1, \quad n_1 = 0.3, \quad D_z = 1 * \exp - 5, \quad D_z^* = 2 * \exp - 5.$$

Эти результаты показывают, что с увеличением глубины концентрация солей грунта увеличиваются в форме квадратного корня, а с течением времени это явления мало изменяются.




Рис. 1. Профили изменения (— $t=1$ сут., — $t=2$ сут., — $t=3$ сут., — $t=4$ сут.)




Рис. 2. Профили изменения (— $t=1$ сут., — $t=2$ сут., — $t=4$ сут., — $t=6$ сут.)




Рис. 3. Профили изменения (— $t=1$ сут., — $t=4$ сут., — $t=8$ сут., — $t=12$ сут.)

Заключение. При этом использование численной модели значительно сокращает объем натурных исследований, что позволяет свести к минимуму дорогие и материалоёмкие опытные работы, следовательно, снизить себестоимость подаваемой потребителю питьевой воды.

Литература

1. Усманов Р.Н., Далиев Ш. Математическое и численное моделирование задачи опреснения подземных вод в двухслойных пластах// Республиканской научной конференции «Новые результаты математики и их приложения» 14-15 мая 2018 г. 105-107 ст., Самарканд, СамГУ.
2. Усманов Р.Н., Далиев Ш. Математическое моделирование и численное решение задачи восстановления запасов подземных вод в однослойных пластах// «Ахборот коммуникация технологиялари ва сонли моделлаштиришнинг амалий масалалари» Республика илмий-техник конференцияси материаллари тўплами, Самарканд-2017 йил, 8-9-сентябр, [24-26 б.]
3. Усманов, Р. Н. Нечеткое моделирование технологических процессов водозабора в системах искусственного восполнения подземных вод / Р. Н. Усманов // Химическая технология. Контроль и управление. – Ташкент, 2007. – № 1. – С. 63–69.
4. Усманов, Р. Н. О моделировании изменений гидрогеохимического состояния гидрогеологических объектов на базе нечетко-множественного подхода / Р. Н. Усманов // Узб. журнал «Проблемы информатики и энергетики» – Ташкент, 2005. – № 6. – С. 67-72.
5. Абуталиев Ф.Б., Ходжибаев Н.Н., Умаров У.У., Измаилов И.И. Применение численных методов и ЭВМ в гидрогеологии. – Ташкент: Фан, 1976. – 67 с.
6. Усманов, Р. Н. К вопросу численного моделирования процессов формирования и эксплуатации водозаборов подземных вод в условиях нечеткой информации / Р. Н. Усманов // Вестник ТашГТУ. – Ташкент, 2006. – №2. – С. 3–6.
7. Калиткин Н.Н., Корякин П.В. Численные методы: в 2 кн. Кн. 2. Методы математической физики. – Москва: Издательский центр «Академия», 2013. – 304 с.

Усманов Ришат Ниязбекович

– доктор технических наук, профессор. Автор более 100 научных работ. Область научных исследований: искусственный интеллект, компьютерное зрение, ГИС технологии, математическое моделирование, цифровая обработка изображений.

Далиев Шерзод Каршиевич – докторант кафедры «Математическое моделирование и комплексное программирование» Самаркандский государственный университет.

E-mail: daliyev.sherzod@mail.ru

Numerical modeling of two aquifers

Annotation: In this study, a mathematical model of groundwater absorption, water accumulation and salt filtration was developed on a two-layer aqueous layer. Two-level reservoirs compiled and calculated a mathematical model of the problem of groundwater restoration. The number of studies is of great practical importance, and in some regions it is necessary to restore saline soils and create clean water resources as an unfavorable situation for the environment.

Key words: groundwater abstraction, salt transfer, mathematical model of filtration, technological schemes of freshening, geofiltration process, highly mineralized groundwater.

УДК 681.325.518.5

Бахрамов С.А. Зайнидинов Х.Н., Қўчқаров М.А.

Геофизик сигналларни моделлаштиришнинг сплайн-усули

Ушбу мақола параболик локал интерполяцион сплайн-функцияси асосида геофизик сигналларни моделлаштиришга бағишланган. Ҳар хил геофизик сигналларни рақамли ишлаш ва тиклаш масалаларида математик модел куриш учун параболик локал интерполяцион сплайн-функцияларни қўлланилиши ҳозирги вақтда амалий масалаларни ечишда долзарб ҳисобланади. Мисол тариқасида геофизик сигналларни дастлабки экспериментал маълумотлари олинди ва шу маълумотлар асосида параболик локал интерполяцион кубик сплайн модели курилди. Курилган локал интерполяцион кубик сплайн модели ёрдамида геофизик сигналларни интерполяциялаш жараёни амалга оширилди.

Калит сўзлар: Интерполяцион кубик сплайн, электромагнит, интерполяция, гравитацион майдон.

Кириш

Ушбу мушак гуруҳлари суякка пай (тендон) томонидан бириккан бўлади (3-расм) [7] У юрак ва силлиқ мушаклардан фарқли ўларок, скелет мушаклари ихтиёрий мушаклар гуруҳи ҳисобланади. Инсонлар кундалик ҳаракатланиши учун скелет мушакларининг ўрни бекиёсдир, чунки бу мушакларни асаб тизими бошқаради Уларнинг таркибий бирлиги мушак толасидир. Мушак толаси мушак хужайраларидан ташкил топган. Мушак толаси цилиндрсимон шаклга эга, унинг диаметри бир неча микро метр (10-100 мкм) ни ва узунлиги бир неча миллиметрдан бир неча сантиметргача (1.5 мм – 30 см) бўлиши мумкин [9] Кўплаб мушак толалар гуруҳи мушаклардаги тўқималар билан тарқалади. Уларнинг жойлашувига қараб ҳаракатнинг йўналиши ва кучини аниқласа бўлади.



-расм. Мушак толасининг жойлашуви

Мушаклар суякка бириккан зонада пай (тендон) билан боғланади. Ҳаракатлар қўшма мушакларда ҳосил бўлади. Пай (тендон) ҳаракатни осонлаштириш учун хизмат қилади. Пай (тендон) – бу скелет мушакларининг


бир учини қўшма мушак билан ёки суяк билан боғлайдиган ва тарангликка бордошли кучли тармоқли тўқимадир.

У кучни узатади деб қаралади, ушбу алоқа пайларга ҳаракатлар пайтида кучларни реактив равишда модуляция қилишга имкон беради, мушакларнинг дам олганда барқарорликни таъминлайди.

Пайлар асосан оёқ ва қўлларда жойлашган. Юқори иш пайтида пайлар энергияни тежашда ва қайтаришга қодир. Масалан, одам юрганда ахиллес пайи чўзилади ва қўшма тўпик суяги кенгайди. Кейин эса тўпланган энергия оёқнинг таги эгилганида чиқарилади. Пайнинг чўзилиши мушакнинг узунлиги ўзгартиради ёки ўзгармасдан ҳаракат қилганда мушакнинг кучини оширишга имкон беради. Асаб тизими ҳар бир мускулларнинг ИЗ (innervation zone – кўзғалиш соҳаси) функцияларини бошқаради. Асаб тизимининг охириги нуқтаси (ихтиёрий мушакнинг ИЗ соҳаси) мотор блоки (МУ) деб номланади [10] МУ мотор нерв толаларидан ташкил топган, ҳар бир тола ўзининг ИЗ ларига эга бўлади.


Мотор блокнинг ҳаракат поенциали (Motor unit action potential – MUAP).

Одам қўл, оёқ ёки бўйин каби тана аъзоларини ҳаракатлангирмоқчи бўлса, мианиннг бир қисми бўлган моторли контекст сигнал ишлаб чиқаради (4-расм) [11]



-расм. Мушакнинг нерв тизими орқали бошқарилиши

Ҳосил бўлган сигнални орқа мия орқали орқали маълум скелет мушакларига олиб келади. Мотор нейронлари нерв тармоғининг функционал бирлигидир. Мотор нейронлари мушак билан боғланган. Мотор нейронлари ёки мотор блоки миотолаларга бириккан. Мушак қисқаришининг кучи фаоллашган мотор блоklarининг сонига боғлиқ [11].



5-расм. Мушак толаларидан чиқувчи сигналлар

Масалан, бирор варокни столдан кўтариш учун бир нечта мотор блоклари талаб қилинади аммо қаттиқ

муковали китобни кўтариш учун кўпроқ МУ керак бўлади. МУ популяциясининг ҳажми мушакларнинг ҳажмига боғлиқ. Кичик мушаклар кичик МУ ларга эга. Баъзи майда мушакларда МУ кўрсаткичи 1:1 тенг бўлади. Камроқ назоратни талаб қиладиган уйғун ва нозик ҳаракатларни бажариш учун катта мушаклар керак. Масалан, *gluteus maximus* мушакларининг ўлчами 1:20 га тенг, бу ҳар бир МУ 20 та мушак толасининг фаоллашиши учун жавобгар дегани (5-расм).

Куч ва қувватни оширишда ушбу толалар бирлашиши керак бўлади. Аммо нозик ва кичик ҳаракатларда толаларнинг созилиши бир мунча мураккабдир.

Барча мушак толалари тахминан бир хил вақтда қисқариб бўшади [12] Бундан ташқари, агар мушак толаларининг МУ мушакнинг қисқариши учун фаоллаштирилса, толалар максимал қисқариш ҳолатида бўлади. МУ асосан мушакларнинг қисқаришини келтириб чиқарадиган миотолаларнинг функционал бирлигидир.

Юза электромиографияси

Мушакнинг қисқариши электрокимёвий жараёнга асосланган. Мушакларнинг қисқариш даражаси асаб импульсларининг частотаси билан бошқарилади.

Пулс мушак толасини фаоллаштириш учун орқа мия бўйлаб ҳаракатланади (6-расм). Натрий ва калий каналлари стимулга жавобан очилади ва шу билан асаб ва мушак толаларига кўзғалувчан мембраналарнинг фаол реакциясини бошлайди. Натрий ва калий каналларини очишда поларизация ва деполаризация қилувчи ҳаракатлар миоэлектрик сигнални келтириб чиқаради [13] Ушбу жараён мотор блокининг ҳаракат потенциали (МУАП) деб аталади (5-расм). МУАП – бу хужайралар мембранаси орқали электр потенциални тез кўпайтирадиган ва камайтирадиган миотолалардаги охириги ва энг тезкор ходиса. МУАП активланишини электродлар орқали кузатиш мумкин. СЭМГ бу – электродлардан фойдаланиб мушакларнинг электр потенциални кузатиш, тўплаш ва кузатиш услубидир.

Усул ва маълумотлар

Ушбу тахлилий мақола 1980-2017 йиллар оралиғида ўтказилган жуда кўплаб турли тадқиқотлар кўриб чиқилган ва асосан нашр этилган мақолаларда электродларнинг жойлашуви/жой алмашинувининг сигналларни қайта ишлашга таъсири, электродларнинг жойлашувини аниқлаш усуллари, шунингдек электродларнинг турли жойлардаги ўрни ҳақидаги фикрлаш келтирилган.

Электродларнинг жойлашуви


Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, электродларнинг мушак устига жойлаштирилиши СЭМГ сигналларининг спецификациясига жуда катта самарадорликни кўрсатади. Электродлар орасидаги ўзгариб турадиган масофа таъсир потенциалларига таъсир қилишини кўриш мумкин. Шу билан бирга, хужайра ичидаги ҳаракат потенциални қайд этишнинг турли вариантлари ўртасида жиддий фарқ йўқ. СЭМГ ни ёзиш пайтида сигналга жавоб ўзгариши мумкин. Шунга кўра, электроднинг юзаси микроэлектродга қараганда нисбатан бирламчи сигналга нисбатан сезгирроқдир.

СЭМГ амплитудасида электродлар жойлашувининг самарадорлиги

СЭМГ сигналнинг амплитудаси электродни жойлаштириш ёки жой алмаштиришига қараб ўзгариши мумкин. Мисол учун, Chris Jensen бошчилигидаги илмий тадқиқотчилар кўлнинг эгилиши ва букилиши пайтида *trapezius* мушагининг устига жойлаштирилган электродларнинг жойлашуви самарадорлиги ҳақида фикр билдиришган. Ушбу тадқиқотда электродларнинг силжиши натижасида сигналнинг максимал амплитудаси

пасайганлиги кўрилган [14] Яна бир тадқиқотда 22 хил мускуллар учун инвазив бўлмаган усул орқали сигналларни баҳолаш (The surface electromyography for the non-invasive assessment of muscles - SENIAM) лойихаси учун СЭМГ ўрганилаётган мушаклар устига ИЗ ва ТЗ (Tendon Zone – пай зонаси) ўртасида электродни қўйишни таклиф қилишди [15] Шу билан бирга, Сениам лойихаси билан ҳаракати учун билан мушаклари ўрганилган.

Сениам лойихасидан сўнг, Hermens ва Farina ишларида ИЗ ва ТЗ ларда электродларни жойлашуви тўғри келмайди деган хулосага келишган (6-расм).




6-расм. Электроднинг идеал жойлашуви

Чунки, СЭМГ қайд қилинаётган вақтда ИЗ ҳам, ТЗ ҳам барқарор эмас. СЭМГ сигналнинг амплитудаси ва ўлчами катталиги ўртacha ректификация қилинган қиймат (АРВ), ўртacha ва оралик частота (ЎЧ ва ОЧ) сифатида хисобланади. Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, СЭМГ сигнали турли хил электродларнинг жойлашуви ва электродлараро масофалар учун турли хил амплитуда ва спектр хусусиятларининг турли қийматларига эга (7-расм)

Бир мисол, Wong бошчилигидаги илмий тадқиқотчилар турли позициядаги электродлар орқали, турли мушакларнинг СЭМГ фаолиятини ўрганиб чиқишди нормаллаштирилди ва RMS (Root mean squared) хусусият орқали амплитудалар солиштирилди. Натижалар шуни кўрсатадики, СЭМГ электроднинг майдони СЭМГ амплитудасига сезиларли таъсир кўрсатди.

СЭМГ сигналида ИЗ ва ТЗ жойлашувининг самарадорлиги

СЭМГ сигналлари электродларнинг кичик ҳолатига жуда сезгир, айниқса аниқлаш зонаси ИЗ ёки ТЗ га яқин бўлса. Нишиҳара нинг илмий тадқиқотларида ИЗ фаолияти давомида силжиганини кўрсатди [19].



-расм. Мушакда электродларнинг жойлашуви

Электродларни 15 мм силжитиш СЭМГ нинг баҳолашдаги ўзгарувчан фаркларни аниқлаш мумкин. Жорий тадқиқотларда электрод ҳолати ва ИЗ ёки ТЗ орасидаги масофанинг таъсирини ўрганиб чиқишди. Бу электродларнинг ҳолатига ва мутлақ СЭМГ амплитудалари, ўртача қувват частотасига ИЗ ва электродларнинг жойлашуви таъсир қилиши мумкин.

Ҳозирда ўтказиладиган тадқиқотлар тўлқин усулидан фойдаланиб СЭМГ ни танишда электродлар жойлашувининг алмашинувиға қараб таъсири таҳлил қилинган [20] Электродларни ИЗ да ва ундан узокроқ жойда жойлаштириш ўртасидаги фаркларни текшириш учун тўлқинли усуллар қабул қилинди. Тадқиқотлардан кўринадики, масофадан танланган дистал электрод конфигурациясидаги барча изометрик момент даражаси 2 дан 110 Гц гача частота диапазолида ИЗ орқали қабул қилинган СЭМГ сигналларига қараганда кўпроқ интенсивлик қийматларини кўрсатди.

Бироқ натижалар шуни кўрсатдики, 110 Гц частотада сезиларли фарқ йўқ. Шундай қилиб, электродни ИЗ устига жойлаштириш паст частоталарда СЭМГ сигналларига таъсир қилиши мумкин (7-расм) [21].

СЭМГ да электродларнинг турини самарадорлиги

Электродларнинг квадрат ёки думалоқ шаклдагисида СЭМГ ёзувининг натижалари сезиларли даражада ўзгартирмади [22] Шу билан бирга, ушбу тадқиқот ўртача частота ва реак-to-реак амплитуда электроднинг ички масофасига ва электроднинг жойидаги миотолаларнинг чуқурлигига боғлиқлигини кўрсатди.

Электродларнинг жойлашуви ва кесишувчи мушакларнинг таъсири туфайли сигнал бузилишини ҳисобга олган ҳолда, ўзаро таъсирлашишни камайтириш учун электроднинг жойлашуви мушакларнинг анатомиясига тўғри келиши керак [23]

Турли электродларнинг конфигурацияси, масалан, мунтазам, бўйлама, кўндаланг ва 2D мулти электродлар мушаклар кесишиш нуқтасида турли қийматлар беради. Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, 2D мулти-электродлар конфигурацияси бошқа турларга қараганда сигналларни яхшироқ қайд қила олади [24] Бундан ташқари, мулти электродлар ёрдамида хужайраларо (миотолалардан) сигналларни олишда қўшни мушаклар орасидаги 1D, 2D электродлар орқали бир-бири билан ўзаро тортишиш эффектини намоён этиди, манба хусусиятларига қараб электрод спецификацияси аниқланмаган.

1-жадвал.

Электрод жойлашуви бўйича адабиётлар шарҳи.

Манба	Йил	Мушак	IED	Жойлашуви
[22]	2002	МУ	20 mm	ИЗ дан узокроқда
[13]	1986	Frog мушаги толаси	Моно электрод	Мушакнинг охирида конус қисмида
[14]	1993	Юқори trapezius	20 mm	Ён ва ботик нуқтада
[16]	2001	Кўлнинг юқори мушаги	5-10 mm	ИЗ дан узокроқда
[24]	2003	МУ	2 ўлчовли мулти электрод	Тендонда
[18]	2006	Кўлнинг пастки мушаги	20 mm	ИЗ дан узокроқда
[25]	2007	Кўлнинг пастки мушаги	20 mm	Қайд этилмаган

[21]	2008	Кўлнинг пастки мушаги	30 mm	ИЗ дан узокроқда
[6]	2015	Кўлнинг пастки мушаги	36 mm	ИЗ ва ТХ нинг ўртасида

Бир қатор тадқиқотларда инсоннинг юриш пайтидаги СЭМГ қийматлари 2D электродлар (4*3 ўлчамли) ёрдамида қайд қилинган [25] СЭМГ энг юқори қийматга дарҳол эришди. Натижалар шуни кўрсатдики, юриш пайтида мушакларнинг СЭМГ интенсивлиги электрод ҳолатига боғлиқ бўлди. Бундаш ташқари, СЭМГ сигнални қайд қилишда электродларнинг энг яхши ҳолати ички электрод масофаси (IED) бўлиб, икки йўналишда 20мм масофада жойлашуви ўзаро тортишиш қийматларини камайтирди.

Бир нечта СЭМГ тадқиқотларида электродлар ҳолати ва ички электродлар масофасининг билан мушакларига таъсири ўрганилган бўлсада, фақат кам сонли тадқиқотларда электродлар позициясининг услубий қийинчиликлари ҳал қилинган. Баъзи тадқиқотларда электродлар мушакнинг узунлиги ёки шакли бўйлаб жойлаштирилган специфик аъломатлари келтирилган. Бундан ташқари, электродлар орасидаги масофа турли ишларда турлича бўлган (1-жадвал).

Биланнинг ҳаракатланиши билан боғлиқ бўлган, билан мушаклари учун СЭМГ сигналдан ёзиб олиш, шу жумладан электроднинг ҳолати ва электродлар орасидаги масофани ҳисобга олган ҳолда ишлайдиган сигналнинг сезгирлигини таҳлил қилувчи тадқиқотлар жуда ҳам кам.

Хулоса

Ушбу ишда келтирилган таҳлиллар СЭМГ сигналларини тез ва тоза олишда фойдаланиладиган усулларга қўллаш учун ўтказилган. Усуллар асосида шуни хулоса қилишимиз мумкинки, сифатли СЭМГ сигнални олишимиз учун мушакнинг жойлашувиға, электродларни имкон қадар иннервацион нуқтага жойлашишиға ва IED кўрсаткичининг оптимал варианты сифатида 20 мм бўлишиға эътибор қилишимиз керак бўлади. Олинган натижалар СЭМГ нинг ўзгарувчанлигини баҳолаш учун электродларнинг жойлашуви муҳим эканлигини кўрсатади. Бир нечта тадқиқотларда электродларнинг турли позицияларидан (IED бўйича) фойдаланганда, частотаси, амплитуда ва тезликларидан бир қанча фарқланишлар вужудга келишини кўриш мумкин бўлди. Ушбу иш электродларнинг жойлашуви ва IED таъсирини ўрганишга бағишланган. Шу билан бирга СЭМГ олишда ИЗ ва ТЗ соҳаларининг ўрни кўриб чиқилган.

Адабиётлар рўйхати

Эл. почта: zaxirov91@mail.ru

Zohirov Q.R., Sharapova B.A

The purpose of this study is to investigate recent work on the location of the electrodes (EMG) for recording electromy-

g The article analyzes scientific research in the field of electrode placement in non-invasive EMG signals over the past two decades. It is worth noting that there are few studies that analyze the sensitivity of the signal affecting the position of the electrode and the distance between the electrodes.

y **Keywords:** electrode, electromyography, sensor, biosignals, prostheses, ligaments, muscle fibers, zone of innervation, human and computer communication.

E
M
G
)

s
i
g
n
a
l
s

a
n
d

f
u
t
u
r
e

r
e
s
e
a
r
c
h
.

Зоҳиров Қудратжон Рафиқович
ТАТУ, докторант
Эл. почта: zaxirov91@mail.ru
Шарапова Барно Абдунабиевна
ТАТУ Қарши филиали, талаба

УДК 621.314

Siddikov I.X., Hujamatov X.E., Hasanov D.T., Reypnazarov E.N., Toshtemirov T.Q.

Telekommunikatsiya tizimlarining avtomatik boshqariluvchi quyosh energiya ta'minotini IOT modellari asosida tadqiq etish

Ushbu maqolada telekommunikatsiya tizimlari energiya ta'minotida quyosh panelini IoT asosida avtomatik boshqarish tizimi Proteus dasturiy muhitida modellashtirilgan. IoT ga asoslangan avtomatik boshqaruvchi quyosh energiya ta'minoti tizimining harakati quyosh nurining tushish burchagiga bog'liq bo'lib, quyoshning nuri quyosh paneli yuzasiga tik tushganda u o'zidan maksimal qiymatda energiya ishlab chiqadi. Shu bilan birga avtomatik boshqaruvchi quyosh energiya tizimi yuklama talabini inobatga olgan holatda quyosh nuriga nisbatan harakatlanishi tadqiqi keltirilgan.

Kalit so'zlar: avtomatik boshqariluvchi quyosh energiya tizimi, IoT, sensorlar, Proteus dasturiy muhiti

I. Kirish. Hozirgi kunda telekommunikatsiya tizimlarini uzluksiz ishlashini ta'minlashdagi asosiy muammolardan biri barqarorlik, ishonchlilik hamda turg'unlik parametrlariga bog'liq holda energiya bilan ta'minlash hisoblanadi. Yonilg'i manbalarining cheklanganligi sababli qayta tiklanuvchi energiya manbalari ustida ilmiy izlanish olib bormoqda. Telekomunikatsiya tizimlarini uzluksiz energiya bilan ta'minlashda qayta tiklanuvchi energiya ta'minot manbalaridan bo'lib quyosh energiya manbalari hisoblanadi. Quyosh energiyasini elektr energiyasiga aylantirish usullaridan biri fotoelektrik effekt asosida quyosh nurini elektr tokiga aylantiruvchi quyosh panellardan foydalanishdir. Quyosh panellari bir nechta kichik panellarni ketma-ket hamda parallel ulash va umumiy shaklga birlashtirish orqali hosil qilinadi. Quyosh panelining samaradorligiga ta'sir qiluvchi bir nechta omillar mavjud (samaradorlik quyosh paneli hosil qilgan elektr energiyasining uning yuzasiga tushayotgan yorug'lik energiyasiga nisbati bilan aniqlanadi). Ushbu omillardan biri quyosh panelining foydali ish koefitsienti, ikkinchisi uning yuziga tushayotgan quyosh nurining intensivligi.


Quyosh panelining foydali ish koefitsienti qanchalik yuqori bo'lsa, uning yuzasiga tushayotgan yorug'likga mos energiya miqdori elektr energiyaga aylantiriladi. Quyosh paneli yuzasiga tushayotgan yorug'lik oqimi intensivligi qanchalik yuqori bo'lsa, quyosh paneli o'zining maksimal quvvatiga to'g'ri keladigan elektr energiyasini hosil qiladi. Quyosh nuri panelga tik tushganda, panelga tushuvchi yorug'lik intensivligi maksimal bo'ladi.

Quyosh panelining samaradorligini oshirishda uning tarkibiy tuzulishini takomillashtirish faqat 10-20% oralig'ida samaradorlikni ta'minlanmoqda. Shuning uchun quyosh paneli hosil qilayotgan quvvat miqdorini oshirish uchun panellar o'lchamini yoki uning yuzasiga tushayotgan yorug'lik intensivligini oshirish zarur. Quyosh panellari o'lchamini kengaytirish samarali yechim emas. Bu yechim quyosh paneli narxini oshiradi hamda kengroq maydonni talab etadi. Quvvat miqdorini oshirishning qulay va iqtisodiy yechimi quyosh panelining to'liq potensialidan foydalanib, undan maksimal energiya olishdir. Yuqori samaradorlikga quyosh paneli yuzasini quyoshga doimiy perpendikulyar ushlab turish orqali erishish mumkin. Buning uchun quyosh panelini yer atrofida aylanuvchi quyoshga mos boshqarish talab etiladi. [1]

II. MUAMMONING QO'YILISHI

Telekommunikatsiya tizimlarining boshqariluvchi quyosh energiya tizimi samarali energiya ishlab chiqishi quyosh nurlarining panel yuzasiga tushish burchagiga bog'liq. Quyosh panelining maksimal energiya ishlab chiqishi uchun uni quyosh

harakatiga mos avtomatik boshqaruv tizimi talab etiladi. Quyosh boshqarish tizimi mexatronik tizim hisoblanadi. U mexanik va elektr qurilmalari, axborot texnologiyasi hamda internet vositalarini (IoT) o'z ichiga oladi [2]



1-rasm. Ikki o'qli quyosh boshqaruvchi tizim strukturasi

Quyosh boshqaruv tizimi boshqarish o'qlari va yo'nalishlari bo'yicha bir biridan farq qiladi. Ular bir o'qli yoki ikki o'qli boshqarish tizimlariga ajratiladi. Bir o'qli boshqarish tizimi faqat bitta yo'nalish bo'yicha boshqaradi. Ular azimut burchagi bo'yicha qat'iy bir yo'nalish, quyoshning Sharq-G'arb yo'nalishi bo'yicha boshqaradi. Ikki o'qli boshqarish tizimi ikkita Sharq-G'arb hamda Shimol-Janub yo'nalishi bo'yicha burulish imkoniyatiga ega. Ikki o'qli quyosh boshqarish tizimi 1-rasmda tasvirlangan. Bunda a burchak quyosh panelining azimut burchagi, b uning qiyalik burchagi. Unda tasvirlangan motor 1 Sharq-G'arb yo'nalishi bo'yicha azimut burchagini o'zgartirsa, motor 2 esa Shimol-Janub yo'nalishi bo'yicha balandlik burchagini o'zgartiradi. [1]

III. ASOSIY QISM

Fotoelektrik quyosh energiya tizimi quyidagi afzalliklar tufayli istiqbolli qayta tiklanuvchi energiya ta'minoti manbaiga aylandi. Texnik xizmat ko'rsatishning afzalligi, ekologik muhitga ta'siri yo'qligi, energiya resurslariga talab yo'qligi, shu bilan birga, fotoelektrik panel energiya samaradorligining kamligi, hamda uni sotib olish va o'rnatish ko'p mablag' talab qilganligi undan kam foydalanilishga sabab bo'lmoqda [3] Bundan tashqari, fotoelektrik panelning nochiqli taqsimlanganligi hamda quyosh nurlanishi va haroratiga bog'liqligi, tadqiqotchilar uchun ushbu sohada izlanishlar olib borishi uchun yangi bosqichni ochib berdi [4, 11]

Ushbu kamchilikni oldini olish uchun fotoelektrik panelning maksimal quvvat nuqtasida ishlashini ta'minlash talab etiladi. Shu asosida fotoelektrik panelning maksimal quvvat nuqtasini aniqlashning maxsus algoritmini ishlab chiqish va uni modellashtirish yuqori samaraga erishish imkonini beradi.


Shu sababli bir qancha izlanuvchilar fotoelektrik panelni Matlab/Simulink yoki PSIM kabi dasturiy muhitda model-lashtirgan [5, 6, 12], ammo ushbu dasturlarda biz model-lashtiradigan tizim uchun mikrokontroller, elektron qurilmalar va uskunalari mavjud emas. Proteus muhiti mikro-kontroller va elektron qurilmalarni modellashtirishda eng yaxshi dasturiy mahsulot hisoblanadi. Ushbu dastur bugungi kunda om-malashdi, bunga sabab unda algoritmi va dastur asosida ishlaydi-gan mikrokontrollerlarning barcha turi, elektr qurilmalari va o'lovchov asboblari mujassamlashgan. Undan tashqari agar biz o'z modelimiz uchun kerakli qurilmani topa olmasak, unda yangi qurilmani yaratish imkoniyati ham mavjud. Umuman olganda biz ushbu dasturda o'z modelimizni real muhitda va qurilmalarda amalga oshirishimiz zarur. [9, 13]

IV. MODELNING UMUMIY STRUKTURASI VA BOLOK SXEMASI

4.1. Avtomatik boshqaruvchi quyosh energiya tizimin-ing blok diagrammasi

IoT asosida avtomatik xarakatlanuvchi quyosh boshqaruvchi tizimining blok diagrammasi 2-rasmda ko'rsatil-gan.

Bu yerda boshqariluvchi quyosh tizimi quyosh panelini ikki o'qli boshqaruvchi motor1 (Azimut burchagi bo'yicha boshqarish) va motor2 (Qiyalik burchagi bo'yicha boshqarish) lardan hamda motorni boshqaruvchi qurilmadan tashkil topgan. Ular mikrokontrollerdan kelgan elektr signal asosida ishlaydi. Motor driver motorlarni harakatga keltiruvchi tizim. Arduino UNO dan kelayotgan elektr signal asosida motor1 va motor2 larni elektr ta'minot manbaiga elektromexanik yoki yarim o'tkazgich asosida ulab beradi.



2-rasm. Quyosh boshqaruvchi tizim va uning energiya o'lovchi blok diagrammasi

Taklif etilgan tizimda uchta LDR (yorug'lik) sensorlar o'rnatilgan. Ko'plab ikki o'qli quyosh boshqaruvchi tizimlarda to'rt yoki beshta LDR sensorlardan foydalaniladi. Natijada ular Mikrokontroller portini band qiladi, yoki mikrokontrollerlar ulardan kelayotgan signalni qayta ishlashda murakkablikka duch keladi va bu biroz ko'proq vaqt talab etadi. Quyosh yoritil-ganligini aniqlash hamda unga nisbatan perpendikulyarlikni ta'minlash uchun uchta LDR sensor yetarli hisoblanadi, ya'ni yoritilganlikni aniqlash uchun uchta LDR sensor dan kelayotgan signalning maksimal qiymatini olish yetarli bo'ladi, ya'ni:

$$L = \text{MAX} (L1, L2, L3), [\text{lux}] \quad (1)$$

Shu bilan birga ushu uchta LDR sensorlar qiymatini solishtirilib, Sharq-G'arb yonalishi bo'yicha quyosh holatini aniqlashda LDR1 va LDR2 sensorlardan kelayotgan signallar, Shimol-Janub yo'nalishi bo'yicha quyosh holatini aniqlashda esa LDR2 va LDR3 sensorlardan kelayotgan signal solishtiri-ladi, solishtirish asosida quyosh paneli harakatga keltiriladi.

S1 va S2 lar tok kuchi va kuchlanish sensorlari. Ular quy-osh paneli hosil qilgan tok kuchi va kuchlanishni aniqlaydi va Arduino UNO platasiga uzatadi.

Arduino UNO bu mikrokontrollerdan tashkil topgan boshqaruv bloki. LCD o'lovchangan qiymatlarni ko'rsatib turuvchi ekrandan iborat.

Quyosh boshqaruvchi tizimi va uning energiya o'lovchini modellashtirishda biz proteus dasturida mavjud komponentlar, elementlar, modellar hamda mikrokontrollerlardan foydala-niladi va kerakli natijalarga erishiladi.

4.2. Proteus dasturiy muhitida foydalanilgan qurilmalar:


Boshqariluvchi quyosh energiya tizimi va uning energiya o'lovchini modellashtirishda quyidagi komponentlardan foyda-lanilgan: Arduino UNO, LDR sensor, kuchlanish sensor, Tok sensor, LCD displey, Quyosh paneli va servo motor. Biz quyida ularning ayrimlarini ko'rib o'tamiz.

4.3. Arduino UNO:

Soddalashtirilgan boshqaruv qurilmasi. ATmega328 turi-dagi mikrokontroller bilan integratsiyalashgan. Ushbu qurilman-ing narxi kam, kichik o'lovchamga ega, hamda murakkab boshqaruv tizimlarida qo'llaniladi.

4.4. LDR yorug'lik sensori modellari:

Yorug'lik sensorlari fotoelektrik qurilma bo'lib ko'zga ko'rinmaydigan yoki infraqizil yorug'lik energiyasi (foton-lar)ni elektr signalga o'zgartirib beradi (3-rasm).



3-rasm. Proteus muhitidagi LDR yorug'lik sensori

Yorug'lik sensori sifatida LDR sensor dan kuchlanish taqsimlagichning bir qismi sifatida foydalaniladi.

3-rasmda ko'rsatilgan sxema asosida R3 seriyali qarshilikda kuchlanishning pasayish miqdori, yorug'likka bog'liq bo'lgan qarshilik (LDR)ning qarshilik miqdori bilan aniqlanadi. Shu kabi turli qiymatdagi kuchlanish hosil qiluvchi zanjirlar "Potensial taqsimlovchi" yoki kuchlanishni taqsim-lovchi tarmoq deb ataladi.


Ma'lumki, o'zgarimas (R3) va LDR qarshilik orqali tar-moqlangan zanjirda kuchlanish ular o'rtasida taqsimlanadi. Bunda chiqish kuchlanishi V_{Chiq} ning qiymati LDR qarshilikka tushayotgan yorug'lik intensivligiga mos o'zgaradi. Bunda LDR qarshilik (R_{LDR})ning qiymati unga tushayotgan yorug'lik intensivligiga qarab 100Ω dan (absolyut yorug'lik) $10M\Omega$ ga-cha (absolyut qorong'ulik) oraliqda o'zgaradi. LDR qarshilikning o'zgarishi natijasida chiqish kuchlanishi V_{out} ning miqdori (A4 portga ulangan) quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$V_{\text{Chiq}} = V_{\text{kir}} * (R3/(R_{\text{LDR}}+R3)) \quad (3)$$

4.5. Kuchlanish sensori modeli

Kuchlanish sensori yuqori kuchlanishni past kuchlanishga-cha o'zgartirish uchun xizmat qiladi. Ushbu sensor dan foto-elektrik quyosh paneli kuchlanishini [0, 5] V oralig'ida ka-maytirib, Arduino portiga uzatish uchun foydalanilgan. Arduino

qurilmasi maksimum 5V gacha kuchlanishni qabul qila oladi [7], shuning uchun 4-rasmda ko'rsatilgan kuchlanish taqsimlovchi zanjirdan foydalaniladi (4-rasm).



4-rasm. Proteus muhitidagi kuchlanish sensori


Bu sxemada kuchlanish sensordan chiquvchi kuchlanish (V_s) quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$V_s = (R_4 / (R_4 + R_5)) * V_{PV} \quad (2)$$

bu yerda: V_{PV} – quyosh panel hosil qilayotgan kuchlanish. Ushbu formula mikrokontrollerga yoziladigan dasturda ko'rsatilishi zarur.

4.6. Tok kuchi sensori modeli:

Ushbu modelda ACS755 sensoridan foydalanilgan va u Hall effekti asosida ishlaydi (5-rasm).




5-rasm. Proteus muhitidagi ACS755 tok kuchi sensori

Hall effekti sensori zanjirda oqib o'tayotgan tok kuchi hosil qilgan magnit maydon asosida kuchlanish qiymatini o'zgartiruvchi qurilma hisoblanadi. Hall effekti odatda masofani o'zgartirish, holatni aniqlash, tezlikni hisoblash hamda sensorli qurilmalarda foydalaniladi. [8]

4.7. LCD ekran:

LCD ekran hisoblangan fotoelektrik panelning kuchlanishini, tok kuchini, uning quvvatini hamda yorug'lik intensivligini ko'rsatib turish maqsadida qo'llanilgan (6-rasm).




Rasm.6. Proteus muhitidagi 20x4 LCD ekran

4.8. Quyosh paneli modeli:


Quyosh paneli fotoelektrik modul hisoblanib, u Quyoshdan kelayotgan yorug'lik (foton) energiyasini fotoelektrik effekt asosida elektr energiyasiga o'zgartirib beradi. Koppina fotoelektrik modullarda silicon yupqa qatlamli bo'laklaridan foydalaniladi. Biz ushbu tizimni modellashtirishda Proteusda mavjud fotoelektrik paneldan foydalaniladi.

4.9. Servo motor modeli:

Servo motor - bu kodlangan signalni yuborish orqali chiqish o'qini ma'lum burchak holatiga o'tkazish mumkin bo'lgan motorlarning bir turi. Servo motor unga uzatilayotgan kodning qiymati o'zgartirilsa chiqish o'qining holatini saqlaydi. Agar kodlangan signal o'zgartirilsa chiqish valining burchagi unga mos o'zgaradi (7-rasm). [10]



7-rasm. Proteus muhitidagi servo motor



8-rasm. Servo motor holatini boshqarishning turli impulslari

Servo motorlar turli kenglikdagi elektr signallarni yoki PWM (pulse width modulation – impuls kenglikli modulyatsiya) signallarni simlar yordamida uzatish orqali boshqariladi. Bunda minimal impuls, maksimal impuls hamda ularning takrorlanish darajalari mavjud. Servo motor ikki yo'nalishda faqat 90° gacha buriladi, umumiy burulish burchagi 180° ni tashkil etadi. Motorga uzatilgan PWM signal chiqish o'qining holatini aniqlaydi va boshqaruv simlari orqali yuborilgan pulsning davomiyligiga asoslanib, chiqish o'qi kerakli yo'nalish va burchakka buriladi. Servo motor har 20 millisekund (ms)da impuls kengligini tekshirib turadi, impulsning kengligi servo motor nechchi gradusga burulishini belgilab beradi. Misol uchun, 1.5 msli impuls servo motor chiqish o'qini 90° gradusga o'zgartiradi. Impuls kengligi 1.5 msdan kam bo'lsa, chiqish o'qi soat miliga qarama-qarshi yo'nalishda 90° dan 0° gacha oraliqda o'zgarishi mumkin. **pulse will make the motor turn to the 90° position**, hamda impuls kengligi 1.5 msdan katta bo'lganda, chiqish o'qi soat mili yo'nalishda 0° dan 180° gacha oraliqda o'zgaradi (8-rasm). [10]


V. QUYOSH BOSHQARUV TIZIMINING ISHLASH ALGORITMI VA UNING MODELII

5.1. Quyosh paneli boshqaruv tizimining algoritmi

Quyosh boshqarish tizimini modellashtirishda, uning boshqaruv tizimi sifatida Arduino UNO ga integratsiyalashgan atmega328 mikrokontrolleridan foydalanganmiz.

Unga o'rnatilgan dastur kodi quyida ko'rsatilgan algoritm(blok sxema asosida) yoziladi. Sensorlardan analog signal o'qiladi va raqamli signalga o'zgartiriladi. Ushbu signallar asosida kuchlanish, tok kuchi hamda yoritilganlik qiymatlar hisoblanadi. LDR sensorlardan kelayotgan

yoritilganlik hisoblanadi va solishtiriladi. Qaysi birining qiymati yuqori bo'lsa, bu qiymat yoritilganlikka tenglashtiriladi.



9-rasm. Quyosh paneli boshqarish tizimi dastur kodining blok diagrammasi

Quyosh boshqaruvchi tizimi quyidagi parametrlarni inobatga olgan holda panelni harakatga keltirishi mumkin: agar yoritilganlik quyoshli kunning minimum qiymatiga teng yoki undan katta bo'lsa va quyosh paneli ishlab chiqayotgan quvvat yuklama quvvatiga teng yoki undan kichik bo'lsa.

Ikkita parametr o'zaro mos kelsa quyosh paneli quyosh yo'nalishi bo'yicha boshqaradi. O'lgan barcha qiymatlar va quyosh panelining holati LCD displeyda ko'rinadi hamda ma'lumot ko'rinishida simsiz tarmoq orqali monitoring markaziga doimiy uzatib turiladi (9-rasm).


5.2. Quyosh boshqaruv tizimi tadqiqotlari

Avtomatik quyosh boshqarish tizimini modellashtirish uchun Proteus dasturi muhitidan foydalanildi va uning yig'ilgan sxemasi 10-rasmda ko'rsatilgan.

Tizim yoritilganlik miqdori va yuklama talab qiladigan quvvatga nisbatan harakatga keladi. Tizimda quyoshli kunning minimal yoritilganligi 3000 lux, quyosh panelining naminal (maximal) quvvati 1000W (o'zgartirish imkoniyati mavjud). Agar yoritilganlik 3000 lux dan kichik, hamda yuklama quvvati quyosh paneli ishlab chiqayotgan quvvatdan katta bo'lsa quyosh paneli boshqarmaydi.

Tizimning ishlash holati tasvirlangan. Bunda LDR sensorlarga tushayotgan yorug'lik turli xil ammo yoritilganlik kichik (bulutli kun yoki tun, bunda yorug'lik teng taqsimlanadi), hamda


yuklama talab qilayotgan quvvat kam bo'lganligi sababli quyosh panelini boshqaruvchi motor1 va motor2 lar harakatsiz holati 11-rasmda berilgan.




10-rasm. Immitatsion model sxemasining Proteusdagi umumiy ko'rinishi

Buruvchi motorlarga uzatilayotgan PWM signal grafiglari

12-rasmda tasvirlangan.



11-rasm. Immitatsion modelning ishlash holati




12-rasm. Servo motorlarga uzatilayotgan PWM signal grafigi


Yoritilganlik yetarli darajada (quyoshli kun) hamda LDR sensorlarga tushayotgan yorug'lik turlicha (quyosh paneli quyoshga perpendikulyar emas). Ammo bu holatda ham quyosh paneli boshqarmaydi. Chunki quyosh paneli shu holatda ham yuklamani yetarli quvvat bilan taminlamoqda (13- rasm).

LCD da ko'rinib turgan an_a azimut burchagi, an_b qiya-lik burchagi (boshlang'ich holatda $an_a=45^\circ$, $an_b=90^\circ$).

Servo motorning PWM signal kengligi ko'rsatilgan. MOTOR1 ning PWM signali kengligi (73.20–72.00 ms) 1.20 ms ni tashkil qilgan. Shuning uchun MOTOR1 45° burchakgacha buriladi. MOTOR2 ning PWM signali kengligi (94.65–93.15 ms) 1.5 ms ni tashkil qilgan. Shu sababli u 90° burchakgacha buriladi (14-rasm).




13-rasm. Quyosh panelining harakatsiz holati




14-rasm. Servo motorlarga uzatilayotgan 1.20 va 1.5 msl PWM signal grafigi

Quyosh paneli ikki o'qli boshqarmoqda. Bunda yoritilganlik yetarli darajada (quyoshli kun yoki $L \geq 3000$ lux), LDR sensorlarga tushayotgan yorug'lik miqdori har xil (quyosh paneli quyoshga perpendikulyar emas), ammo quyosh paneli yuklamani yetarli quvvat bilan taminlay olmayapti (joriy quvvat < yuklama quvvati). Shu sababli quyosh paneli quyosh holatiga perpendikulyar bo'lguncha boshqaradi (15-rasm).


MOTOR1 ning PWM signal kengligi (468.75–467.10 ms) 1.65 ms va shu holatda 108° burcha hosil qildi. MOTOR2 ning PWM signal kengligi esa (449.70–48.50 ms) 1.20 ms va u 27° burcha hosil qiladi (16-rasm).



15-rasm. Quyosh panelining boshqarish holati




16-rasm. Servo motorlarga uzatilayotgan 1.65 va 1.20 msl PWM signal grafigi



17-rasm. Quyosh panelining harakatsiz holati


LCD da hosil bo'layotgan qiymatlardan ko'rinib turganidek, yuklama quvvati quyosh panelining maksimal quvvatidan yuqori, ammo yoritilganlik yetarli darajada bo'lmaganligi sababli (bulutli kun yoki tun, bunda yorug'lik teng taqsimlanadi) quyosh panelini boshqarish hech qanday samara bermaydi, aksincha uni boshqarish uchun yana qo'shimcha energiya talab etiladi (17-rasm).




18-rasm. Servo motorlarga uzatilayotgan 1.65 va 1.05 msli PWM signal grafigi

MOTOR1 ning PWM signal kengligi (942.45–940.80 ms) 1.65 ms va 111° burchakka burilgan. MOTOR2 ning PWM signal kengligi esa (963.45–962.40 ms) 1.05 ms va u 24° burchakka burilgan (18-rasm). Yoritilganlik yetarli darajada (quyoshli kun yoki $L \geq 3000$ lux), yuklama quvvati yuqori (joriy quvvat < yuklama quvvati), ammo quyosh paneli boshqarmayapti. Chunki barcha LDR sensorlarga tushayotgan yorug'lik miqdori bir xil, ya'ni quyosh paneli quyoshga nisbatan perpendikulyar holatda turibdi (19-rasm).

MOTOR1 ning PWM signal kengligi (968.55–967.20 ms) 1.35 ms va u 84° burchakka burilgan holatda turibdi. MOTOR2 ning PWM signal kengligi (989.55–988.35 ms) 1.20 ms va bu burchak 24° (20-rasm).



19-rasm. LDR sensorlarga tushayotgan yoritilganlik miqdori bir xil bo'lgan holat



20-rasm. Servo motorlarga uzatilayotgan 1.35 va 1.20 msli PWM signal grafigi

VI. XULOSA

Proteus muhiti elektr manbalarni modellashtirishda hamda ularni avtomatlashtirishda qulay muhit hisoblanadi. Maqolada boshqaruvchi quyosh panellarini proteus muhitida modellashtirish jarayonini ko'rib chiqildi.

Ikki o'qli quyosh boshqaruvchi tizimini real obyektlarda sinovdan o'tkazish va kerakli natijalarga erishish uchun ko'p vaqt va mablag' talab etiladi. Biz ushbu tizimni proteus muhitida modellashtirish jarayonida detallarni o'zaro bog'lash hamda uning dasturini yozish jarayonida bir necha marotaba xatoliklarga duch keldik. Ammo bu muhit virtual bo'lganligi sababli xatoliklarni oson to'g'riladik va yuqorida ko'rinib turgan natijalarga erishildi.

VII. KEYINGI ISHDA

Quyosh boshqaruvchi tizimini tadqiq qilish asosida kerakli natijalarga erishildi. Lekin quyosh energiya tizimi bir emas bir qancha hududlarda joylashganligi sababli ularni masofadan turib monitoring qilish hamda zarurat bo'lganda ularni masofadan boshqarish talab etiladi.

Keyingi ishlarda IoT texnologiyasi asosida (sensorlar, mikrokontroller, aktivator, aqilli hisoblagichlar) telekommunikatsiya tizimlari gibrid energiya ta'minoti manbalarining boshqaruv tizimini tashkil qilish bilan birga, energiya manbaini doimiy monitoring qilish, energiyani tejash va masofadan turib turli vazifalarni bajarish, masalan, nosoz holga kelgan jihozni tarmoqdan uzish yoki qo'shish, avariya xolatlarida tegishli idoralarga o'z vaqtida xabar berish, energiya resursi tugab qolganida qurilmalarni eng kam energiya sarflash holatiga o'tkazish rejalashtirilgan.

Adabiyotlar

[1] И.Х.Сиддиков, Х.Э.Хужаматов, Д.Т.Хасанов, Ш.Б. Олимова. “Телекоммуникация тизимлари гибрид энергия таъминоти манбаларини масофали мониторинг ва бoшқаруви”, “Muhammad al-Xorazmiy avlodlari” ilmiy-amaliy va axborot-tahliliy jurnal. - №3(9), 2019. -C. 55-59.

[2] S. Seme, G. Stumberger, and J. Vorsic, “Maximum efficiency trajectories of a two-axis sun tracking system determined considering tracking system consumption”, *IEEE Trans. On Power Electronics*, Vol. 26, No. 4, April 2011. pp. 1280-1290.

[3] Saad Motahhir, el ghizal Abdelaziz, Abdelilah Chalh, Aziz Derouich, “Modeling of Photovoltaic Panel by using Proteus”, Article in Journal of Engineering Science and Technology Review, June 2017

[4] Hohm, D.P., Ropp, M.E., "Comparative study of maximum power point tracking algorithms", *PROGRESS IN PHOTOVOLTAICS*, Vol. 11, No. 1, pp. 47-62, 2003

[5] H. Patel and V. Agarwal, "MATLAB-based modeling to study the effects of partial shading on PV array characteristics", *IEEE Transaction Energy Conversion.*, Vol. 23, No. 1, pp. 302-310, 2008.

[6] И.Х.Сиддиков, Х.Э.Хужаматов, Н.Ю.Амурова, Д.Т.Хасанов "Моделирование и исследование интеллектуально-адаптивных электрических сетей", "*Muhammad al-Xorazmiy avlodlari*" *ilmiy-amaliy va axborot-tahliliy jurnal.* - №2(8), 2019. -С. 105-107.

[7] И.Х.Сиддиков, Х.Э.Хужаматов, М.Т.Мақсудов, Г.Э.Саидова, М.А.Анарбаев "Телекоммуникация ва ахборот коммуникаци технологиялари объектлари ва курилмаларининг энергия манбаларини мониторинг ва бошқаруви", "*Muhammad al-Xorazmiy avlodlari*" *ilmiy-amaliy va axborot-tahliliy jurnal.* - №3(9), 2019. -С. 106-109.

[8] R. Nagalakshmi, B. Kishore Babu, D. Prashanth, "Design and Development of a Remote Monitoring and Maintenance of Solar Plant Supervisory System", *International Journal Of Engineering And Computer Science*, Volume 3, Issue 12, December 2014.

[9] "Research and Modelling Adaptive Management of Hybrid Power Supply Systems for Object Telecommunications based on IoT", *International Conference on Information Science and Communications Technologies ICISCT 2019*, Tashkent, Uzbekistan - 2019.

[10] Khujamatov Kh.E., Khasanov D.T., Reypnazarov E.N. "Modeling and Research of Automatic Sun Tracking System on the bases of IoT and Arduino UNO", *International Conference on Information Science and Communications Technologies ICISCT 2019*, Tashkent, Uzbekistan - 2019.

[11] Хужаматов Х.Э. "Телекоммуникация объектларини барқарор электр энергияси билан таъминлашда автоном куёш электр станциясини қўллаш", *ТАТУ хабарлари*" *ilmiy-texnika va axborot-tahliliy jurnal.* - №4(40), 2016. -Б. 22-31.

[12] Siddikov I.Kh., Sattarov Kh.A., Khujamatov Kh.E., Dekhkonov O.R. "Modeling the processes in magnetic circuits of electromagnetic transducers" *International Conference on Information Science and Communications Technologies ICISCT 2016*, Tashkent, Uzbekistan - 2016.

[13] И.Х. Сиддиков, Х.Э. Хужаматов, Г.С. Рахмонова. "Управляемые гибридные источники электроснабжения для объектов телекоммуникации" *«Потенциал интеллектуально одаренной молодежи: развитию науки и образованию» Материалы VI*

Международного научного форума молодых ученых, студентов и школьников. Астрахань - 2017. -С. 121-123

Сиддиков Илхомжон Хакимович

Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети Энергия таъминлаш тизимлари кафедраси мудири т.ф.д., профессор

Эл. почта: ikhsiddikov@mail.ru

Хужаматов Халимжон Эргашевич

Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети Маълумот узатиш тизимлари кафедраси мудири, PhD

Эл. почта: kh.khujamatov@tuit.uz

Хасанов Достон Тўраевич

Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети таянч докторанти

Эл. почта: dhasanov0992@gmail.com

Рейпназаров Ерназар Нуржамиевич

Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети Маълумот узатиш тизимлари кафедраси ассистенти

Эл. почта: reypnazarOvernazar@gmail.com

Тоштемиров Темирбек Қодиржон ўғли.

Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети Маълумот узатиш тизимлари кафедраси ассистенти

Эл. почта: -

Siddikov I.Kh., Khujamatov Kh.E., Khasanov D.T., Reypnazarov Y.N., Toshtemirov T.Q.

Research Automatic Controllable of Solar Power Supply of Telecommunication Systems Based on IoT Models

In the article materials of modeling in Proteus software of automatic Sun controlling system of power supply for telecommunication systems based IoT is given. IoT based automatic Sun controlling systems depend on the angle of descent of the sun's rays on the surface of the active energy is described, and when the sun's rays get perpendicular to the surface of the solar panel, it produces the maximum amount of energy. The Automatic Sun Controllable System moving in relation to solar radiation, is researched by taking into account the load requirements.

Key words: automatic controllable solar energy system, IoT, sensors, Proteus software environment.

Абдурахманов Р.П., Тожиева Ф.К.

Моделирование узла доступа мультисервисной сети с учетом самоподобия входящего трафика

Данная статья посвящена моделированию узла доступа мультисервисной сети на базе all – IP с учетом входящего трафика. Исследование вероятностно-временных характеристик узла доступа мультисервисной сети осуществлялось при помощи имитационного моделирования. Моделирование узла доступа проводилось при помощи информационной системы OPNET, которая является лидером рынка инструментов моделирования информационных систем и представляет собой мощный программный пакет, дающий возможность имитационного моделирования сетей любого масштаба и любых топологий и позволяющий заранее задавать алгоритмы управления потоками и маршрутизации, реализуются современные технологий передачи данных, и.т.д.

Ключевые слова: оптимизация сетей, дисциплины обслуживания, входящий поток, разнородный трафик, информационные системы, модель узла доступа, параметр Херста, самоподобие трафика, задержка пакетов, нагрузка, перегрузка.

В контексте решения вопросов, связанных проектированием мультисервисных сетей особая роль отводится моделированию. При рассмотрении различных стратегий перехода к ССП (сетей следующего поколения) помимо экономических аспектов, как было рассмотрено в предыдущей главе, также крайне важно заранее спрогнозировать: удовлетворит ли строящаяся сеть требованиям к качеству обслуживания, надежности, информационной безопасности, и т.д.

Моделирование представляет собой мощный метод научного познания, при использовании которого исследуемый объект заменяется более простым объектом, называемым моделью. Основными разновидностями процесса моделирования можно считать его два вида – математическое и физическое (натурное). При физическом моделировании исследуемая система заменяется соответствующей ей другой материальной системой, которая и воспроизводит свойства и событий исследуемой системы. Примером может служить малая пилотная сеть для изучения возможности построения сети на основе тех или иных компьютеров, коммуникационных устройств, ОС (операционная система) и приложений. Возможности физического моделирования довольно ограничены, т. к. оно связано не только с большими усилиями и временными затратами, но и с немалыми финансовыми затратами.

Поэтому, при оптимизации сетей во многих случаях предпочтительным оказывается использование математического моделирования. Математическая модель представляет собой совокупность соотношений (формул, уравнений, неравенств, логических условий) определяющих функционирование системы. Моделирование, манипулирующее такой совокупностью соотношений известно как аналитическое.

К сожалению, до сегодняшнего дня так и не удалось создать точные аналитические модели, способные описать разнородный трафик мультисервисной сети. Усугубляется данная проблема и тем, что мультисервисные сети передачи данных (вне зависимости от своего масштаба) представляют собой гетерогенное слияние как различных технологий обработки и передачи информации, так и аппаратно - программных средств различных производителей. Особым классом математических моделей являются имитационные модели. Такие модели представляют собой компьютерную программу, которая шаг за шагом воспроизводит события, происходящие в реальной системе.

При имитационном моделировании не требуется приобретать дорогостоящее оборудование – его работы имитируются программой, достаточно точно воспроизводящей все основные особенности и параметры такого оборудования.

На сегодняшний день, имитационное моделирование рассматривается как эффективнейший метод проектирования и оценки характеристик производительности сетей любых масштабов. В настоящее время лидером рынка инструментов моделирования информационных систем является ряд программных продуктов группы OPNET (Modeler, IT Guru, и др.) американской компании MIL3. OPNET представляет собой мощный программный пакет, дающий возможность имитационного моделирования сетей любого масштаба (LAN, MAN, WAN, GAN) и любых топологий и, позволяющий заранее задавать алгоритмы управления потоками и маршрутизации, реализуются современные технологий передачи данных.

Бесспорным преимуществом системы моделирования OPNET заключается в том, что в ней представлена линейка моделей типового сетевого оборудования целого ряда ведущих производителей, что позволяет заранее прогнозировать производительность и технику - эксплуатационные характеристики проектируемой сети с учетом использования оборудования той или иной фирмы - производителя.

Моделирование узла доступа мультисервисной сети на базе all-IP

В условиях построения мультисервисных сетей резко возрастает роль современных методов и средств проектирования и расчетов. Это связано с тем, что если ошибки в расчетах пропускной способности традиционных сетей оцениваются в 7-10%, то в сетях следующего поколения они могут составлять 20-30%. Последнее оправдывает дополнительные расходы на теоретические исследования и математическое моделирование мультисервисных сетей их проектирования и построения. Исследования показывают, что использование аналитических и имитационных моделей при проектировании сетей следующего поколения позволяют сократить соответствующие затраты примерно на 7-10%. Международный и отечественный опыт и практика показывают, что проблема проектирования сетей следующего поколения является одной из актуальных проблем построения и развития телекоммуникаций в современных условиях.

Данная работа посвящена исследованию влияния свойств мультимедийного трафика на характеристики узла доступа мультисервисной сети при различных дисциплинах обслуживания. В настоящее время на основе статистического анализа трафика со стороны ряда ученых обосновано, что суммарный трафик в сети обладает существенными самоподобными свойствами, а также является долговременно зависимым случайным процессом, что целесообразно учитывать при оптимизации сети

следующего поколения, однако очень мало исследований, посвященных количественному анализу влияния свойств мультимедийного трафика при использовании различных механизмов управления трафиком и методов маршрутизации (1-4). Исследования показали, что методы расчета рабочих характеристик мультисервисной сети (пропускной способности, задержек, потерь и т.д.), основанные на Марковских моделях, дают неоправданно оптимистичные результаты, ведут к недооценке нагрузки и, как следствие, к невозможности обеспечить гарантированное качество обслуживания (5-10). Для исследования рассмотрим задачу проектирования узла доступа мультисервисной сети. Предположим, что данный узел обеспечивает передачу пользовательского трафика в магистральную сеть (Рис. 1).




Рис. 1. Диаграмма подключения узла доступа ССП

С учетом высокой стоимости канального ресурса при подключении в магистральную сеть, будем ориентироваться на высокий коэффициент его использования, $\rho = 0,8 - 1$. Рассмотрим несколько сценариев, предполагающих как постепенное увеличение общей нагрузки на узел доступа (как следствие, увеличение ρ), так и изменение доли каждого типа трафика в общем агрегированном трафике (Таблица 1.).

Таблица 1.

Рассмотренные сценарии.						
№	ρ	Фактич. нагр., Мбит/с	ТФОП	ВЕ данные	Транзакции	Интерактивные мультимедиа услуги
1	0.8	125	90%	10%		
2		125	70%	20%	5%	5%
3		125	50%	30%	10%	10%
4		125	35%	40%	15%	10%
5	0.9	140	90%	10%		
6		140	70%	20%	5%	5%
7		140	50%	30%	10%	10%
8		140	35%	40%	15%	10%
9	1.0	155	90%	10%		
10		155	70%	20%	5%	5%
11		155	50%	30%	10%	10%
12		155	35%	40%	15%	10%

Основным конфигурационным параметром узла, влияющим на качество обслуживания мультисервисного трафика, является дисциплина управления очередями. Наиболее распространенными дисциплинами являются:

- ✓ FIFO («первым пришел-первым обслужен»);
- ✓ PQ («Приоритетное обслуживание»);
- ✓ WFQ («Взвешенное справедливое обслуживание»);

В предыдущих исследованиях было показано, что дисциплина FIFO оправдывает себя лишь в случаях с каналами с относительно низкой нагрузкой и моносервисным трафиком. В свою очередь, дисциплина PQ неэффективна в случаях, когда в сети присутствует более одного типа приоритетного трафика (например, Best Effort, голосовой и видео). В данной работе были проведены исследования по оценке эффективности дисциплины WFQ с учетом увеличения ρ и изменения удельного веса каждого типа трафика в мультисервисном трафике. Дополнительно изучено влияние свойства самоподобия на экспериментальную оценку характеристик QoS.

Влияние удельной нагрузки и изменения структуры мультисервисного трафика на временную характеристику QoS в узле доступа ССП.

С помощью моделирования узла доступа all-IP в системе OPNET были изучены сценарии 1-12, с детальным сравнительным анализом задержки для каждого типа трафика при различной нагрузке ρ . Была настроена дисциплина управления очередями WFQ. Трафик ТФОП смоделирован как высокоприоритетная передача пакетов кода G.711 (64 кбит/сек) через IP транспорт.

В результате имитационного моделирования в системе OPNET были получены следующие результаты.

Сценарии 1, 5, 9.

Как видно из рисунков 2 и 3, при росте общей нагрузки до с 80% до 100%, задержка пакетов трафика телефонии остается пренебрежительно малой, таким образом, качество голоса не ухудшается. Перегрузка негативно влияет только на низкоприоритетный трафик Best Effort, где резко возрастает задержка пакетов. Также при $\rho \sim 1$ начинается потеря пакетов, становится необходимым увеличение канального ресурса.




Рис. 2. Задержка пакетов Best Effort, сценарии 1,5,9




Рис.3. Задержка трафика телефонии, сценарии 1,5,9
Сценарии {2, 6, 10}, {3,7,11}.

В этих случаях в сети присутствует уже не один, а три типа приоритетного трафика, кроме телефонии, имеют место при низкой доле интерактивные мультимедиа услуги и транзакции (к примеру, банкинг, e-government, и др.). Как видно из графиков на Рис. 4-13, при росте общей нагрузки до с 80% до 100%, качество обслуживания по всем трем типам трафика по показателю задержки остается на высоком уровне. Перегрузка сильно влияет только на низкоприоритетный трафик Best Effort, где резко возрастает задержка пакетов.




Рис. 4. Задержка пакетов Best Effort, сценарии 2,6,10




Рис.5. Задержка пакетов мультимедиа, сценарии 2,6,10




Рис.6. Задержка пакетов транзакций Excellent Effort, сценарии 2,6,10




Рис.7. Задержка пакетов телефонии, сценарии 2,6,10




Рис. 8. Задержка пакетов Best Effort, сценарии 3,7,11




Рис. 9. Задержка пакетов мультимедиа, сценарии 3,7,11

Сценарии 4,8,12.

[11] A.s. №1019503 (SU). Ustroystva dlya preobrazovaniya postoyannogo toka v peremenniy / Zaripov M.F., Safarov A.M., Petrova I.YU. // Opublikovano "Byulleten izobreteniy" – 1983, №19

[12] Jumaboev S.X., Muxsimov Sh.S. Elektromagnitniy preobrazovatel nesimmetrichnosti trexfaznogo toka // Problemy polucheniya, obrabotki i peredachi izmeritelnoy informatsii: materialy II Mejdunarodnoy nauchno-texnicheskoy konferensii. – 2019. – S. 144-148.

[13] Plaxtiev A.M. Beskontaktnye ferromagnitnye preobrazovateli s raspredelennimi magnitnimi parametrami dlya sistem kontrolya i upravleniya.: Avtoref. dis. ... dokt. texn. nauk. – Tashkent: TashGTU, 2009. – 46 s.

[14] Amirov S.F., Safarov A.M., Rustamov D.SH., Ataullaev N. O. Elektromagnitnye preobrazovateli bolshix tokov dlya sistem tyagovogo elektroobzabjeniya. Tashkent, 2018. – 358 s.

Амиров Султон Файзуллаевич – доктор технических наук, профессор Ташкентского института инженеров железнодорожного транспорта

Жумабоев Сарварбек Хамраевич - докторант PhD Ташкентского института инженеров железнодорожного транспорта

Detection of asymmetry of the phases of the electromagnetic current transformers for magnetovariational effect

The article discusses the current state of electromagnetic converters high current non-contact type on different physical effects and their development trends, the proposed design of the electromagnetic transducer current magnetovariational effect to identify the symmetry currents in three-phase system DC and AC current, sets out the principle of its work. It is shown that the three-circuit design of the magnetic circuit and the introduction of rectangular cutouts with modulating and output windings on three adjacent rods of the magnetic circuit allows to measure the asymmetry of currents in three-phase circuits.

Keywords: three-phase current, phase current asymmetry, electromagnetic magnetomodulation Converter, modulating winding, output winding, connection diagrams of output windings.

Рахимов Т.Г., Муталова Ш.А.

Кўп сонли объектлар тоифаларига эга бўлган тасвирларни таснифлаш алгоритмлари

Ушбу мақолада кўп сонли объектлар тоифаларига эга бўлган тасвирларни таснифлаш бўйича бир нечта масала кўриб чиқилади. Объектларнинг семантик иерархиясини ҳисобга оладиган ечимлар дарахтлари ва уларнинг ансамбллари асосланган таснифлаш алгоритмларининг модификациялари тақлиф этилади. Бундан ташқари қатор маълумотлар тўпламларидаги энг яхши башоратлаш аниқлигини намоиш этадиган ҳисоблаш экспериментларининг натижалари келтирилади.

Калит сўзлар: компьютерда кўриш, машинали ўргатиш, тасвирларни таснифлаш, ечимлар дарахти, тасодифий ўрмон, семантик иерархия.

Кириш. Тасвирларни кўп сонли объектлар тоифаларига таснифлаш масаласи катта амалий аҳамиятга эга. Бу турдаги муаммолар турли соҳаларда юзага келади: масалан, калит сўзлар бўйича тасвирларни излаш, робототехника учун объектларни тўғри ажратиш ва бошқалар. Яқин вақтларгача бу масалани ечиш алгоритмлари, шу жумладан ҳисоблаш мураккаблиги туфайли жуда кам тадқиқ қилинган.

Бу турдаги Caltech-101 [1] ва ImageNet [2] тасвирлар асосида ўтказилган дастлабки ҳисоблаш экспериментларидан биринчилари кўрсатдики, ҳозирги вақтда тан олинган алгоритмларнинг қўлланиши кўп сонли объектларни аниқлигини бермайди. Бу турдаги вазифалар учун энг яхши натижаларни алгоритмларнинг иккита классификатори кўрсатди.

Улардан биринчиси тасвирларни таснифлаш учун Фишер векторларидан [3] фойдаланишга ва таянч векторларнинг чизикли машинасини [4] классификатор сифатида ишлатишга асосланган. Алгоритмларнинг иккинчи синфи тасвирларни таснифлаш учун тўғридан-тўғри пикселларнинг интенсивлигини ишлатади, классификатор сифатида эса конволюцион нейрон тармоқларини ишлатади [5].

Ажратиш аниқлигини оширишга муккобил ёндашув объектлар тоифалари орасидаги муносабатларнинг тузилмаси тўғрисидаги маълумотлардан фойдаланиш ҳисобланади. [6, 7] ишларда таснифлаш алгоритмлари сифатининг бу алгоритмлар қаралаётган тоифалар орасидаги семантик боғлиқликларни қанчалик ҳисобга олишига боғлиқлиги ғояси илгари сурилган ва экспериментал синондан ўтказилган.

Бу ишда WordNet маълумотлар омборида объектларнинг семантик иерархиясини ҳисобга оладиган ечимлар дарахтлари ва уларнинг ансамбллари асосида тасвирларни таснифлаш алгоритмларини модификациялаш тақлиф қилинади [8].

Иш қуйидагича тузилган. 1-бўлимда ўқитувчи томонидан ишлатиладиган "тасодифий ўрмон" ва "таянч вектори машинаси" билан ўргатиш алгоритмлари таснифлаш келтирилади. 2-бўлимда объектлар тоифаларининг семантик иерархиясини ҳисобга олган ҳолда, тасвирларни кўпсонли тоифаларга ажратиш учун ишлаб чиқилган усуллар таснифланган. Ҳисоблаш экспериментининг натижалари ва уларни таҳлил қилиш 2-бўлимда келтирилган.

1. Назарий асослар

1.1. "Тасодифий ўрмон" ўқитувчиси билан ўргатиш алгоритми

Тасодифий ўрмон (random forest) [9] ҳам таснифлаш масалалари учун, ҳам регрессияни қайта тиклаш масалалари учун қўлланиладиган энг универсал ва самарали ўқитувчи ўргатиш алгоритмларидан бири ҳисобланади. Усулнинг ғояси параллел ўргатиладиган мустақил ечимлар

дарахтлари ансамблини қуришдан иборат [10]. Объектни яқуний таснифлаш ансамбль таркибига киритилган барча дарахтларнинг овоз бериши йўли билан амалга оширилади.

Алгоритмнинг афзалликлари орасида башоратлашнинг юқори сифати, кўп сонли тоифалар ва белгиларга эга бўлган маълумотларга самарали ишлов бериш қобилияти, моделнинг умумлаштириш қобилиятига ички баҳолаш, юқори параллеллик ва масштабланувчанлиги каби хусусиятларни ажратиш кўрсатиш мумкин. Бу усул, шунингдек, ечимлар дарахтларнинг барча афзалликлари, шу жумладан кириш маълумотларига дастлабки ишлов бериш ваҳам моддий, ҳам тоифавий белгиларга ишлов бериш, мавжуд бўлмаган қийматлар билан ишлашни қўллаш заруратининг йўқлигига эга.

CART ечимлар дарахтини қуришнинг алгоритми [10] белгилар маконини кесилмайдиган соҳаларда рекурсив бўлиш йўли билан уни бўлишда қурилади. Дарҳақиқат, дарахтнинг ҳар бир тугунига белгилар маконининг маълум соҳаси ва уни киз баландликларга тайинланган иккита бўлиш амалга ошириладиган қоида мос келади.

Ўргатувчи танланманнинг ўлчамларига берилган чеклашларда унинг хатолигини минималлаштирадиган оптимал дарахтни қуриш масаласи NP-қийин масала ҳисобланади [11], бу моделни ўргатиш учун $I(D)$ маълумотларнинг бир жинслимаслигини таснифлайдиган функцияни максимал қамайтириш очкўз стратегияси ишлатилади, бу ерда D маълум бир тугунга мос келадиган белгилар маконида соҳа ҳисобланади.

Объектларнинг тоифалари сони $U = \{1, \dots, K\}$, бу ерда K – объектлар тоифалари сони ва D соҳа ўргатиш танланмасидан M объектларга эга бўлсин. Дарахтни бу тугунидаги нисбий тоифалар частотасини k билан белгилаймиз:

$$\hat{p}_k = \frac{1}{M} \sum_{x_i \in D} I(y_i = k) \quad (1)$$

бу ерда I – дарахт индикатор функцияси.

Энг юқори нисбий частотага эга бўлган тоифа бу тугунга қирадиган барча объектлар учун башорат қилинадиган жавобга мос келади. Тугунда маълумотларнинг $I(D)$ бир жинслимаслигини таснифлайдиган функция сифатида одатда қуйидагилар қаралади [9]:

Таснифлаш хатолиги:

$$\frac{1}{M} \sum_{x_i \in D} I(y_i \neq \tilde{k}) = 1 - \hat{p}_k \quad (2)$$

Жинс индекси:

$$\sum_{k \neq \tilde{k}} \hat{p}_k \cdot \hat{p}_{\tilde{k}} = \sum_{k=1}^K \hat{p}_k (1 - \hat{p}_k) \quad (3)$$

кросс-энтропия:

$$\sum_{k=1}^K \hat{p}_k \log \hat{p}_k \quad (4)$$

Тасодифий ўрмон моделини ўргатиш куйидаги процедура бўйича маълум дарахтлар сонини мустақил куришдан иборат:

- ўргатувчи танланмадан тасодифий кичик танланмани генерациялаш (бу кичик танланманинг ўлчами одатда бутун ўргатувчи танланманинг ҳажмидан 50-70% ни ташкил қилади)

- бу кичик танланма бўйича ечимлар дарахтини куриш (бинобарин, дарахтни ҳар бир янги тугунида бўлиш учун ўзгарувчи барча белгилардан эмас, балки уларнинг унча катта бўлмаган қувватли тасодифий танланган ним тўпламидан танланади).

1.2. "Машина-таянч векторлари" ўқитувчили ўргатиш алгоритми

Таянч векторлар усули [4] амалга энг машхур ва кенг ишлатиладиган ўқитувчили ўргатиш алгоритмларига кирди. Дастлаб бу усулик килик таснифлаш масалалари учун мўлжалланган эди, аммо уни кўп сонли синфларга эга бўлган таснифлаш масалаларига, шунингдек, регрессияни қайта тиклаш масалаларига осонликча умумлаштирилади.

Ўргатишнинг боришида куйидаги чизикли бўсағавий классификатор курилади:

$$\text{sgn}(\sum_{j=1}^n w_j x_j - w_0) \quad (5)$$

Бу ерда $(w, x) = w_0$ тенглама синфларни ажратиш турадиган гипер текисликни тавсифлайди.

Агар танланма чизикли ажратилади деб фараз қилсак, унда аёнки, ажратувчи гипер текислик ягона эмас, чунки танланманинг ўша бир бўлинишини бажарадиган бошқа ҳолатлар ҳам мавжуд.

Усулнинг гоёси w ва w_0 қийматларни маълум мезон нуқтаи назаридан оптимал усулда танлашдан иборат. Ажратадиган гипер текислик унга энг яқин бўлган ҳар иккала синфлар объектларидан иложи борича узоқроқ бўлиши талаб қилиниши мумкин.

Дастлаб, бу таснифлаш принципи эвристик мулоҳазалардан келиб чикди: синфлар орасидаги масофани (margin) максималлаштириш ишончли таснифлашга ёрдам беради деб тахмин қилиш табиий. Кейинчалик бу принцип кучли назарий асослашни олди.

Ажратадиган гипер текислик танланма нуқталардан иложи борича узоқроқ туриши учун полосанинг кенглиги максимал бўлиши керак. Кўрсатиш қийин эмаски, w векторининг нормалиминимал бўлса, полосанинг кенглиги максимал бўлади. Шундай қилиб, танланма чизикли бўлинадиган бўлса, мулоҳазалар куйидаги масалага олиб келадиган оддий геометрик мулоҳазалар етарли бўлади: маълум чеклашларда w векторининг нормали минимал бўладиган w ва w_0 параметрларининг қийматларини топиш керак. Шундай қилиб, дастлабки иккилик таснифлаш масаласик ва драстик дастурлаш масаласига келтирилади.

Алгоритми чизикли ажратилмайдиган маълумотларлар бўлганда (одатда амалда шундай бўлади) ўргатиш танланмаси объектларидаги хатоликларга жарима оптималлаштириладиган функциясига кўшиш билан осонликча умумлаштирилади. Бу масалани ечишда яна бир ёндашув мавжуд: бу X объектларининг тавсифлаш дастлабки маконидан N янги майдонга (тўғрилайдиган дейиладигани) маълум ψ тўзгартириш - $X \rightarrow N$ ёрдамида ўтиш ҳисобланади. Агар N макони етарлича юқори ўлчамлиликка эга бўлса, у ҳолда унда танланма чизикли ажратилиши мумкинлигига умид қилиш мумкин (кўрсатиш осонки, агар танланма зид бўлмаса, у ҳолда ҳар доиму чизикли ажратиладиган чеклли ўлчамлиликка эга бўлган макон топилди).

$K > 2$ синфлар сонига эга бўлган таснифлаш масаласи учун таянч векторлар усулидан фойдаланиш учун куйидаги иккита стратегиялар бўлиши мумкин:

1. "Ҳар бир ҳар бирга қарши": иккилик таснифлашнинг барча бўлиши мумкин кичик масалаларида $K(K-1)/2$ турли хил моделларни ўргатиш. Янги объект барча курилган моделлар бўйича таснифланади, ундан кейин устун синф танланади.

2. "Бир барчага қарши": K моделларни "бир синф барча қоган синфларга қарши" шаклидаги иккилик таснифлаш масалалари бўйича ўргатиш. Янги объект синфи margin максимал қиймати билан танланади.

2. Тоифаларнинг семантик иерархиясини ҳисобга оладиган тасвирларни таснифлаш алгоритми

Бу бўлимда объектлар тоифаларининг семантик иерархиясини ҳисобга оладиган таклиф этиладиган иккита тасодифий ўрмон куриш алгоритмлари тавсифланган. Улардан биринчиси модификацияланган жарима матрицасидан фойдаланади. Иккинчиси масалани иерархик таснифлашга келтиради.

2.1. WordNet маълумотлар омборининг тавсифланиши. WordNet [8] бу ҳар бири маълум бир мазмунга мос келадиган синонимлар тўпламларига гуруҳланган инглиз тилидаги отлар, феъллар, сифатлар ва атамаларнинг катта маълумотлар омбори ҳисобланади. Бу тўпламлар орасидаги уларнинг семантик ва лексик алоқаларини акс эттирадиган муносабатлар аниқланган.

Бу алоқа турлари орасидан кўпроқ умумий тушунчаларни (масалан, "мебел") янада батафсилроқ (масалан, "кабинет") тушунчаларни боғлайдиган улиниш муносабатларини ажратиш мумкин. Иккинчиси, ўз навбатида, "китоб шкафи" ва бошқалар тушунчаси билан боғланиши мумкин (равшанки, бу муносабатлар транзитивлик хусусиятига эга).

Умумий тузилмани йўналтирилган ацикллиграф шаклида тасвирлаш мумкин, унинг баландликларига тушунчалар, кирраларига эса бу тушунчалар орасидаги муносабатлар мос келади. Курилган графда бошқа барча баландликлар учун умумий авлод бўлган "мазмун" тушунчасига мос келадиган илдиз баландлигини ажратиш мумкин.

2.2. Модификацияланган жарима матрицаси ёрдамида тасодифий ўрмонни куриш. Ечимлар дарахтлар иансамблини ўргатишда объектларнинг семантик иерархиясидан фойдаланишнинг мумкин бўлган усулларида бири бир жинслимаслик функцияларини модификациялаш (Жини индекси) йўли билан ҳар бир алоҳида дарахтни куришдаунинг қўлланиши ҳисобланади.

Бу модификациялашнинг асосий мақсади семантик иерархияда бир-бирларидан жуда олисда бўлган тоифаларга эга объектлар тугунида бўлишга "жарима" ни оширишдан иборат. Шундай тарзда ҳисобланган Жини индексини куйидагича ёзиш мумкин:

$$\sum_{k \neq \bar{k}} w_{k\bar{k}} \cdot \hat{r}_k \cdot \hat{r}_{\bar{k}} \quad (6)$$

бу ерда w_{ij} вазнлар куйидаги алгоритм ёрдамида ҳисобланади.

Кириш: N – Word Net маълумотлар омборидаги тушунчалар тузилмасини тавсифлайдиган граф, h – дарахт баландлиги; $\{C_1, \dots, C_k\}$ – вазнларни ҳисоблаш керак бўлган объектларнинг тоифалари.

Барча $i = 1, \dots, K$ учун

a) $w_{ii} = 0$;

b) барча $j = i+1, \dots, K$ учун

i. N графда C_i ва C_j тоифалар учун умумий авлод ҳисобланадиган $h(i, j)$ – тугуннинг максимал чуқурлигини ҳисоблаш.

ii. $w_{ij} = h - h(i, j)$, $w_{ji} = w_{ij}$.

Барча $i = 1, \dots, K$ учун

$$\sum_{j=1}^K w_{ij} \quad (7)$$

бўладиган тарзда нормировать w_{ij} кийматни метёрлаштириш керак.

2.3. Иерархик таснифлаш. Кўп сонли тоифаларга эга бўлган объектларни таснифлаш масаласини ечишда энг машхур ёндашувлардан бири иерархик таснифлашдан фойдаланишдан иборат [12] Бу ёндашувнинг асосий ғояси ҳар бир тугунга тегишли тоифалар ҳар бири битта тугун-авлодга мос келадиган маълум кластерлар сонига бўлинадиган тарзда дарахт кўринишида ташкил этилган объектлар тоифаларининг иерархиясини куришдан иборат.

Жараён дарахтнинг ҳар бир терминал тугунида биттадан тоифага эга бўлмагунча давом этади. Дарахтнинг ҳар бир тугунида авлод тугунларига кираган тоифалар кластерларини таснифлаш моделини ўргатадиган классификатор (одатда иккилик) қурилади. Янги объектни таснифлаш учун дарахтнинг илдизидан у ёки бу синфга мос келадиган терминал тугунига олиб борувчи классификаторлар занжири ишлатилади.

Word Net маълумотлар омборида объектлар иерархиясини тавсифлайдиган дарахтни куриш учун қуйидаги алгоритм ишлаб чиқилган:

Кириш: H - WordNet маълумотлар базасидаги тушунчаларнинг тузилмасини тавсифлайдиган граф; $\{C_{i1}, \dots, C_{im}\}$ – бўлишни куриш зарур бўлган объектларнинг тоифалари.

1. Агар $m = 1$ бўлса, унда ТЎХТАШ.

2. H графдаги барча C_{i1}, \dots, C_{im} тоифалар учун умумий авлод ҳисобланадиган $h(i_1, \dots, i_m)$ – тугуннинг минимал чуқурлигини ҳисоблаш.

3. Барча $i = i_1, \dots, i_m$ учун $C(i) = h(i_1, \dots, i_m) + 1$ чуқурликдаги тугуннинг авлодини ҳисоблаш.

4. $\{C_{ij}, \dots, C_{im}\}$ тўпламини $CG_1 \dots CG_k$ ним тўплагма бўлиш, бу ерда $CG_k = \{C_{j1}, C_{jk}\}$, $C(j_1) = C(j_2) = \dots = C(j_k)$.

5. Барча CG_1, \dots, CG_k учун (1) - (4) кадамларни бажариш.

Шундай қилиб, бу алгоритмнинг чиқиши тоифалар иерархиясини тавсифлайдиган бўлиши мумкин тоифалар сонига тенг бўлган терминаллар тугунлари сонили T дарахт ҳисобланади. Бу дарахтнинг ҳар бир тугунида алоҳида классификатор (таснифлагич) (тасодифий ўрмон) қурилган, бу классификаторларнинг бирлаштириш иерархик классификаторни ташкил қилади. Куриш алгоритмини қуйидагича тавсифлаш мумкин:

Кириш: $D = \{(x^i, y^i), i = 1, \dots, n\}$ – ўргатувчи танланма; T – объектлар тоифаларининг иерархиясини тавсифлайдиган дарахт

1. Ҳар бир нотерминал тугун учун $t \in T$

а) бу тугунга мос келадиган $\{C_{i1}, \dots, C_{im}\}$ тоифалар рўйхатини олиш;

б) \bar{D} дан барча объектлар учун тоифалар белгилари $\{C_{i1}, \dots, C_{im}\}$ тўплагмага тегишли бўладиган тарзда $\bar{D} \subseteq D$ ўргатувчи танланмадан ним тўплагма танлаш;

с) $t: \{t_1, \dots, t_k\}$ тугунлар авлодлари рўйхати ва уларга мос келадиган тоифалар CG_1, \dots, CG_k тўплагмаларини олиш;

д) \bar{x}^i белгилар векторлари \bar{D} дан белгилар тўплагмага, тоифалар эса $\bar{y}^i = \{1, \dots, K\}$ га мос келадиган \bar{D} маълумотлар тўплагма классификаторини ўргатиш (\bar{y}^i қайси CG_1, \dots, CG_k тоифаларлар тўплагмага киришига боғлиқ равишда).

2.4. Ҳисоблаш тажрибаси. Ишлатиладиган маълумотлар ва алгоритмларни тавсифлаш. Ҳисоблаш экспериментини ўтказиш учун Caltech-101 [1], Caltech-256 [1] ва ILSVRC2010 [13] маълумотлар тўплагмаларидан фойдаланилган. Caltech-101 маълумотлар омборида 101 та турли тоифаларга кирадиган 9144 та тасвирларга (300 га 200 пикселгача ўлчамларли) эга, ҳар бир тоифага тасвирлар

сони 31 дан 800 гача ўзгаради (ҳар бир тоифа учун ўртача 50 та тасвирлар тўғри келади).

Caltech-256 бу Caltech-101 омборнинг кенгайтмаси (тоифалар сони - 256; тасвирларнинг умумий сони - 30608) ҳисобланади; битта тоифага кирадиган тасвирларнинг минимал сони 80 тага, максимал сони 827 тага ошди; ҳар бир категория учун тасвирларнинг ўртача сони 100 тагача). ILSVRC 2010 маълумотларомборибу ImageNet маълумотларомборитўпламибўлиб, 1000 та тоифаларни ўзичига олади (тасвирларнинг умумий сони – 1200000 та, тасвирнинг максимал ҳажми - 500 пиксел).

Тасвирларнинг белгилари тавсифлашни куриш учун bag-of-words ёндашувидан фойдаланилган [14] Дастлаб ҳар бир тасвир максимал ўлчамлилик 300 пикселлардан ошмайдиган тарзда масштабланган.

Бундай тарзда масштабланган тасвирдан SIFT белгилари ажратиб олинган (ҳисоблашларни тезлаштириш учун dense SIFT модификациялаш [15] ишлатилган, дескрипторлар 10 пикселлар қадами олинган 20×20 пикселлар ўлчамидаги қопланмайдиган патчлардан ажратиб олинган).

Олинган дескрипторлардан танланмалар тасодифий тарзда шакллантирилган (танланма ҳажми: Caltech-101 маълумотлар тўплами учун 105 та объектлар, Caltech-256 учун маълумотлар тўплами учун 106 та объектлар, ILSVRC 2010 маълумотлар тўплами учун 107 та объектлар).

Олинган танланмалар "K means" кластерлаштириш алгоритмининг киришига берилган, қурилган кластерларнинг марказлари "визуал сўзлар"га мос келди (Caltech-101 ва Caltech-256 маълумотлар тўплагмалари учун кластерлар сони 1000 та, ILSVRC 2010 маълумотлар тўплагма учун 2000 та қабул қилинди).

Тасвирни яқиний белгилари тавсифлаш бу тасвир учун асосий нуқталар дескриптори тўплагмага "визуал сўзларни" киритиш частотасини тавсифлайдиган гистограмма ҳисобланади.

Бу ерда таклиф қилинган усулдан фойдаланган ҳолда қуйидаги алгоритмларни таққослаш ўтказилди:

– модификацияланган жарима матричасига (RF_COST_MATRIX) эга бўлган тасодифий ўрмон;

– тасодифий ўрмон (RF_HIERARCHICAL) асосида тасвирларни таснифлаш иерархик алгоритми;

– таянч векторлар машинаси (SVM_NEIRARCHICAL) асосида тасвирларни таснифлаш алгоритми;

– "классик" тасодифий ўрмон (RF) алгоритмлари

– "битта барчага қарши" ечимларни қабул қилиш схемаси (SVM_ONE_VS_ALL) "таянч векторлар машина"си.

Таянч векторлар машинасидан фойдаланадиган алгоритмлар учун юқори ҳисоблаш мураккаблиги туфайли фақат чизикли ядролар ишлатилган (оптималлаштирилган LIBLINEAR кутубхонаси ишлатилган [16]).

Ҳисоблаш экспериментининг натижалари. 1-жадвалда юқоридаги тавсифланган алгоритмлар учун алгоритмларнинг ишлаш натижалари (беғона тоифага киритиш хатоликлари) келтирилган.

Кўрииб турибдики, тасодифий ўрмонга асосланган тасвирларни иерархик таснифлаш алгоритми Caltech-101 ва Caltech-256 маълумотлар тўплагмаларида энг яхши башорат қилиш аниқлигини таъминлайди. Таянч векторлар машинаси ILSVRC-2010 маълумотлар тўплагмада унча катта бўлмаган устунликни намойиш этади.

ILSVRC-2010 даги тоифалар сонига боғлиқ равишда таснифлаш хатоликлари қандай ўзгаришини кўриб чиқамиз, бунинг учун бу маълумотлар тўплагмадаги тоифалар ним тўплагма тасодифий танлаймиз (бу

тўпламнинг қувватини 100 га тенг кадам билан 100 дан 1000 гача ўзгартириш билан) ва теслаш т танланмасидаги таснифлаш хатоликларининг тоифалар сонига боғлиқлигини қурамиз (1-расмга қаранг).

1-жадвал


Теслаш танламасидаги таснифлаш хатоликлари

	ILSVRC 100 RANDOM	ILSVRC 100 HIERARCHICAL
RF	0.312	0.271
RF_COST_MATRIX	0.287	0.225
RF_HIERARCHICAL	0.275	0.151
SVM_HIERARCHICAL	0.271	0.163
SVM_ONE_VS_ALL	0.151	0.149

Графикадан келиб чиқадики, тоифалар сонининг ортиши билан RF_HIERARCHICAL ва SVM_ONE_VS_ALL орасидаги башоратлашлар аниқлигидаги фарқ камаяди, тоифалар сонининг кейинги ортиши билан (масалан, агар ImageNet маълумотлар тўпламининг тўлиқ версияси олинса), бу алгоритмларнинг бир хил башоратлаш аниқлигини кутиш керак бўлади.

Шунингдек, ишда башоратлаш хатолигининг қаралаётган маълумотлар тузилмасига боғлиқлиги тадқиқ қилинган. Экспериментни ўтказиш учун иккита турли усулларда 100 тоифаларга эга бўлган ILSVRC 2010 ним тўплами танланди:

- 1) тасодифий тарзда(ILSVRC_100_RANDOM);
- 2) Word Net омборининг тўртта юқори даражали тушунчаларига қирадиган (ILSVRC_100_HIERARCHICAL) тоифалар танланди.



1-расм. Маълумотлар тўпламида теслаш хатолигининг объектлар тоифаларига боғлиқлиги

2-жадвалда келтирилган экспериментал натижалардан кўриниб турибдики, иерархик ёндашувлардан фойдаланиш Word Net семантик тузилмасига мувофиқ ташкил этилган тоифаларда сезиларли яхшиланишларни берди.

2-жадвал

Таснифлаш хатоликларини маълумотлар тузилмасига боғлиқлиги

	Caltech-101	Caltech-256	ILSVRC2010
RF	0.181	0.325	0.497
RF_COST_MATRIX	0.172	0.317	0.523
RF_HIERARCHICAL	0.154	0.265	0.445
SVM_HIERARCHICAL	0.171	0.281	0.482
SVM_ONE_VS_ALL	0.191	0.331	0.423

Хулоса

Ҳисоблаш экспериментининг натижалари шуни кўрсатадики, тақлиф қилинган алгоритмлар айрим

маълумотлар тўпламларида башоратлашнинг энг яхши аниқлигини намойиш этади. Келгусида тақсимланган маълумотларга эга бўлган ечимлар дарахтлари асосидаги модификацияланган алгоритмларни ишлаб чиқиш режалаштирилмоқда, бу белгилар маконининг катгарок ўлчамлиликлари билан ишлашга ва башоратлаш сифатини яхшилашга имкон бериши мумкин.

Адабиётлар рўйхати

1. CaltechDatasets. URL: <http://www.vision.caltech.edu/html-files/archive.html> (дата обращения 01.03.2013).
2. Deng J., Dong W., Socher R., et al. ImageNet: A large-scale hierarchical image database // Proc. of the IEEE Conference on Computer Vision and Pattern Recognition (CVPR). 2009. P. 248–255.
3. Perronnin F., Liu Y., Sanchez J., Poirier H. LargeScale Image Retrieval with Compressed Fisher Vectors // Proc. of the IEEE Conference on Computer Vision and Pattern Recognition (CVPR). 2010. P. 3384–3391
4. Hastie T., Tibshirani R., Friedman J. The Elements of Statistical Learning. Springer, 2008.
5. Krizhevsky A., Sutskever I., Hinton G. ImageNet Classification with Deep Convolutional Neural Networks // Advances in Neural Information Processing Systems (NIPS). 2012. P. 1106–1114.
6. Deng J., Berg A., Fei-Fei L. Hierarchical Semantic Indexing for Large Scale Image Retrieval // Proc. of the IEEE Conference on Computer Vision and Pattern Recognition (CVPR). 2011.
7. Deng J., Berg A., Li K., Fei-Fei L. What does classifying more than 10,000 image categories tell us? // Proc. Of the 12th European Conference of Computer Vision. 2010. P. 71–84.
8. Fellbaum C. WordNet: An Electronic Lexical Database. MIT Press, 1998.
9. Breiman L. Random Forests // Machine Learning. 2001. V. 45. № 1. P. 5–32.
10. Breiman L., Friedman J.H., Olshen R.A., Stone C.J. Classification and Regression Trees. Wadsworth&Brooks, 1984.
11. Гэри М., Джонсон Д. Вычислительные машины и труднорешаемые задачи. М.: Мир, 1982.
12. Griffin G., Perona P. Learning and using taxonomies for fast visual categorization // Proc. of the IEEE Conference on Computer Vision and Pattern Recognition (CVPR). 2008. P. 1–8.
13. Large Scale Visual Recognition Challenge 2010 (ILSVRC2010). URL: <http://www.image-net.org/challenges/LSVRC/2010/index> (дата обращения 01.03.2013).

Рахимов Т.Г. - т.ф.н. доцент. Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги ТАТУ ТРЭТ кафедраси.

Мугалова Ш.А - Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги ТАТУ ТРЭТ кафедраси стажёр-ўқитувчиси

Classification algorithms for a large number of object categories

The problem of classifying images with a large number of categories is considered. Modifications of classification algorithms based on decision trees and their ensembles are proposed that take into account the semantic hierarchy of objects. The results of computational experiments showing the best accuracy of prediction on a number of data sets are presented.

Keywords: computer vision, machine learning, image classification, decision tree, random forest, semantic hierarchy.

Рахимов Б.Н., Ҳотамов А., Рахимов Т.Г.

Ўлчов антенналари асосида индустриал радиохалақитлар характеристикаларини аниқлаш

Мақолада асосан, радиоэлектрон воситаларнинг сони ошиши билан бирга улар бажарадиган вазифалар ҳам сезиларлича даражада мураккаблашганлиги, кўрсатадиган хизматлари турлари ҳам кўпайганлиги қайд этилган. Радиоэлектрон воситалар асосан, ягона ёки бир қатор хизматларни кўрсатиш учун биргаликда ишлашига тўғри келади. Шунга кўра радиомагнит нурланишнинг радио қабулида халақитлар радио қабул қилгичнинг занжирига таъсир этувчи сигнални тўғри қабул қилишга тўсқинлик қилади, шунингдек, радио тўлқинларни тарқатишда сигналларнинг бузилишига олиб келадиган масалар қайд этилган.

Калит сўзлар: электромагнит ҳолат, электромагнит мослашув, Радиоэлектрон воситалар, база станциялари

Ҳар қандай ҳудудда, барча турдаги ва мақсаддаги радиотармоқни қуришда, шу жумладан сотали алоқа база станциясини қуришдан олдин лойиҳалаш ишларини ўша ҳудуддаги электромагнит ҳолатни ўрганишдан бошлаш лозим. Лойиҳачилар учун сотали системанинг энг муҳим характеристикаси бу системанинг қопланишидир. Демак системада буюртмачининг истагини – мантиқий жиҳатдан белгиланган хизмат кўрсатиш зонасини яхши қопланишга эришиш зарур. Одатда сотали компания эгалари частоталардан қайта фойдаланишда ҳам ва айниқса кичик шаҳарларда яхши қопланишда ҳам маанфатдор бўладилар. Шунинг учун ҳам базавий станцияларнинг энг яхши ўрнатиш жойини танлаб олиш заруратдир. Кўпинча лойиҳанинг ана шу қисмига етарлича эътибор бўлмаслиги оқибатида, база станция ўрнатиш ҳудудидаги электромагнит ҳолатнинг етарлича таъминланмаганлиги натижасида система ишининг сифати паст бўлади.

Маълумки радиотўлқинларнинг тарқалиши табиат қонунарига мувофиқ бўлади шунинг учун янги база станциясини лойиҳалашда туман ёки шаҳар ҳудудидаги бинолар ишлаб чиқариш объектлари металл конструкцияга эга бинолар мавжудлиги ҳам ҳисобга олинishi зарур.

Шу тарика, электромагнит ҳолат характеристика белгилаш ва техник воситани эксплуатация қилишнинг турли шартларига нисбатан электромагнит халақитлар интенсивлигини даражаларини белгилашда дастлабки кадам ҳисобланади.

Ҳозирги вақтда радиочастота спектридан фойдаланувчилар сони кенг кўламда ўсиб бориши билан бирга турли радиохизматлар ҳамда турли хизматлар ўртасида радиоэлектрон воситалар электромагнит ҳолати муаммолари тобора кенг аҳамиятга эга бўлиб бормоқда.

Бу муаммони мувоффақиятли ечимини топиш учун олдиндан умумфойдаланиш радиотармоқлар сизимини ошириувчи янги спектрал самарали радиотехнологиялардан фойдаланишга боғлаш зарур.

Бу замонавий алоқа тармоғида радиомаълумотларни узатиш, уларни қайта ишлаш жараёнидаги барча маммолар ечимини топишда аҳамиятга эгадир.

Радиоэлектрон воситаларнинг электромагнит мослашувига унинг ҳар қандай шароитда ўзига бириктирилган вазифани яъни маълумотларни узатиш ва қабул қилиш қобилиятига айтилади. Бошқача қилиб айтганда радиоэлектрон воситанинг бошқа воситаларга халақит қилмай ўзига юклатилган вазифани бажара олиш қобилияти деб тушунилади.

Радиоэлектрон воситалар(РЭВ) электромагнит мослашувини баҳолаш умумий вазифа ҳисобланиб, РЭВ ишлаш жараёнини шароитларини келишиш учун ажралмас қисм ҳисобланади.

РЭВни электромагнит ҳолатини баҳолашда Электромагнит мослашув(ЭММ) критерия шартларни қониқтирувчи шароитлар яратилади.

Бу шартлар станцияни жойлаштиришда ҳудудий чекланиш, халақит манбаси, РЭВ ишига халақит қилувчи сигналлар, химоя полосалари, частотавий чеклов ва РЭВни жойлашувини ўзгартириш ва антенна нурланиш йўналишларини ўзгартиришдир.

Радиоэлектрон воситанинг электромагнит мослашув муаммолари ечимини топиш учун ташкилий ва техник усуллар қўлланади.

Электромагнит мослашувни техник таъминлаш усули деб РЭВни техник таснифини ўзгартиришга масалан: полосадан ташқари ҳамда ёндош нурланишларни сатҳини камайтириш ва танлаш қобилиятини кўтариш деб тушуниш мумкин. Шу билан бирга узатувчи антенналардан тарқалаётган йўналтирилган нулланиш диаграммалар ён барглари (боковых лепестков)камайтириш йўли билан ҳам. Бу усуллар жуда самарали бўлиб янги технологияларни қўллашда ўз самарасини беради.

Фойдаланишда бўлган РЭВни электромагнит мослашувини таъминлашда энг самарали усуллардан бири ташкилий усулларни қўллашдан иборатдир.

Бу хизматга РЭВга частотавий ҳудудий, вақтинчалик ва чекланган бўшлиқ ресурсларни юкланиши ҳамда ҳудудий частоталанишни қўллаш баробарида мобил алоқадан радиочастота спектридан самарали фойдаланиш қиради.


РЭВ ЭММни таҳлил қилишда асосий ташқи омиллар ҳисобланган радиотўлқинлар узатилишда радиохалақитлар ҳисобига йўқотишлар олиб келадиган омилларни ҳисоблаш зарур.

Пассив радиомониторинг тизимида, радионурланиш манбаларининг координаталарини аниқлайдиган узоқ ўлчовли тарқатма усули кенг қўлланилади, бунда ушбу усулнинг нуқсони тақсимланган тизимни ҳар бир қабул қилиш пунктида сигналнинг келишини турлича вақтининг аниқ ўлчашга боғлиқ. Сигналнинг келиш вақтининг турлича ўлчов аниқлигини ошириш усулларидан бири – бу қабул қилинадиган шовқин/сигнал муносабатининг кўпайиши.

Радиомониторингнинг шу каби тизимларида маълум бўлмаган кутбланиш билан радионурланиш манбаи координатини аниқлаш вазифаси вужудга келади. Ўхшаш манбаларнинг муваффақиятли топилиши учун ортогонал кутбланиш бўйича икки киришли антеннали тизимли сигналлари алоҳида қабули қўлланилади. Шундай қилиб, сигнал/шовқинга максимал муносабатни таъминлаш мақсади билан қабул қилинган сигналларни ҳамкорликда ишлаб чиқиш талаб қилинади. Сигналларни қабул қиладиган электромагнит майдонининг кутбланиши қабул қилувчи антенна йўналиши диаграммаси билан мос келмаслиги мумкин. Бунинг сабаби шундаки кутбланиш олдиндан маълум бўлмаслиги мумкин, шунингдек тарқатишда акс этиш сабабли тасодифий характерга эга бўлган ноқутбланиш самараси натижасида ўзгариши

мумкин. Бир қутбланишда қабул олиб борилаётган ҳодиса учун сигналнинг келиш вақти фарқини аниқлаш усули мақоласида тасвирланган. Икки ортогонал қутбланишда икки киришли антеннали тизими ёрдами билан сигналларни қабул қилиш олиб борилади, қабул қилинган сигналлар ҳамкорликда ишлаб чиқишни талаб қилади. Ундай бўлса, икки киришли антенна чиқишлари билан ҳар бир қабул қилиш пунктида иккитадан сигнал мавжуд. Бизнинг ҳолатимизда ҳар бир космик кичик апаратида (ККА) ортогонал қутбланиш бўйича шартли равишда горизонтал ва вертикал қутбланиш дейилади. Шундай қилиб, тизим сигналларини иккита қабул қилиш пункти учун ҳар бир пунктида иккитадан жами тўртта сигнал қабул қилинади.

Радиолокацион маълумотларга қўйиладиган бир қанча талабларда тақдим этилган, айримлари эса (ρ - θ) навигацион бир йўналишларнинг қўпчилиги учун улар кирилиши мумкин эмас. Координатларнинг юқори даражадаги аниқлик билан аниқланиши кузатувнинг қўп томонлама тизими ёрдамида эришилиши мумкин. Ўзгарадиган номаълум сигналларни ўлчаб аниқлаланганда, тенгламалар сони ўзгарувчилар сонидан кам бўлмаслиги керак. Тенгламалар (ўлчовлар) сони ва мақсадли маълумотлар сони балан оралик фарқи шартлар сони деб аталади.



1- расм. Икки акс этувчи антенна намунаси

Бу билан шундай хулосага келинадики, бизга керак бўлган радиотўлқин радиохалакит бардошлиги таъминланади.

Радиомагнит нурланишнинг радио қабулида халакитлар радио қабул қилгичнинг занжирига таъсир этувчи сигнални тўғри қабул қилишга тўсқинлик қилади ва маълум бўлган функционал боғлиқлик бу сигнал билан боғлиқ бўлмаган, шунингдек, радио тўлқинларни тарқатишда сигналларнинг бузилишига олиб келади. Радио тўлқинларни қабул қилишда радиохалакитлар табиий ва техник бўлиши, телеграмм матнларини қабул қилишда, телевизор экранида акс этиш шакллари бузилишида, радиоэшиттиришда рухсат берилмаган товушларни (қўзда тугтилмаган) бузилишларида кузатилади.

Маълум берилган йўналишда нолли даражадаги нурланиш олишни икки аксли антенна мисолида қўриш мумкин. У бирида антенна, бошқарилувчи фаза ўзгартиргич ва аттенюатор жойлашган икки каналдан иборат. Иккала каналнинг чиқишлари бирлаштирилган икки аксли антенна намунаси (1-расм). АТ1 ва АТ2 аттенюаторларни созлаш орқали, 1 ва 2 каналларда θ_n йўналиш орқали келаётган радиохалакит даражасини тўғрилаш, фаза ўзгартиргичлар билан улар орасида 180° га тенг фаза силжишини ҳосил қилиш мумкин.

Қўрилаётган мониторинг ҳолат тизимига ўлчовнинг камида учта пункти кириши керак. Улардан бири марказий (бош) деб ҳисобланади. Марказий пункт қизиқтираётган сигнални топиш ва қабул қилишни, периферия пунктларидаги (ПП) маълумотларни тўплаш ва ишлаш, радионурланиш манбаи (РНМ) координатлари ҳисобини амалга оширади. Мониторинг ҳолати амалга ошириладиган сигналларни қабул қилиш, ПП ташқари, хизмат маълумотларини узатиш ва ретрансляция қилиш учун марказий пункт билан икки томонлама алоқани таъминлаш керак. Ўлчовнинг барча пунктлари шахсий координатлар ва соатларнинг синхронизацияси учун навигация тизими билан ишлашни таъминлаш керак. Ушбу тизимнинг структуравий чизмаси 2-расмда келтирилган.

Қўриб чиқилаётган мониторинг ҳолат тизимига қуйидаги талаблар қўйилади:

- кўчириладиган универсал модул базасида қўрилиши керак;
- жуда юқори частота, ультра юқори частоталар диапазонида ишлаётган тизим радионурланиш манбаининг мониторинг ҳолатни таъминлаш керак;
- марказий пункт ва РНМдан 4 км масофадаги пунктларни максимал узоклаштиради;
- бир вақтнинг ўзида тизим 80 МГц гача бўлган частоталар полосасида ишлаши керак;
- ПП периферия пунктлар аппаратураси автоматик равишда ишлаши керак;
- аппаратура ПП - универсал модули;
- марказий пунктнинг аппаратураси-универсал модул, планшет қўринишида қўшимча ҳисоблаш воситалари билан тўлдирилади;
- ён-атрофдаги ҳолатга минимал талаблар билан ерда аппаратнинг яширин жойлашуви таъминланиши керак.

Ушбу тизимнинг ишлаши принципи шундаки, приёмник сигнални аниқлаши ва қабул қилиши керак бўлади. Ундан сўнг сигнал қайд қилинади, чунки корреляцион функцияда «қотиб қолган» сигнал бўйича қўриш керак. Ундан сўнг, абонентлар орасида кечикишлар ҳисоблаб чиқилади ва масофа қайтадан ҳисобланади. Шундай қилиб, радионурланиш манбаининг жойлашган ўрни аниқланади.



2- расм. РНМ ўрнини аниқлаш узок ўлчовли таркатма структурали схемаси

Жойларда РЭВ ўрнатилган ҳудудларда электромагнит ҳолатни таъминловчи энг асосий талабардан асосий РЭВ радиоблокларини ва антенна иншоатларини тегишли лаборатория синовларидан ерга уланиш тизимини бўлиши. Шу билан бирга фойдаланилаётган барча турдаги радиоэлектрон воситалар радиочастота органлари томонидан рухсат этилган параметрларига риоя этиш билан жойлардаги электромагнит ҳолатни таъминланишига ва радиотармок олдига қўйилган асосий вазифа узатилаётган маълумотларни сифатли узатилишига сабаб бўлади.

Хулоса: Мақолада асосан радиоэлектрон воситаларда электромагнит мослашувни таҳлил қилишда асосий ташқи омиллар ҳисобланган радиотўлкинлар узатилишда радиохалақитлар ҳисобига йўқотишлар олиб келадиган омилларни ҳисоблаш зарурлиги ёритилган.

Бугунги кунда бутун дунё миқёсида булаётганидек, Ўзбекистон Республика ҳудудида ҳам электромагнит мослашув муаммолари ҳамон тўлалигича ҳал этилмай келинмоқда. Табиий ва индустриал радиохалақитлар бугунги кунда фаолият кўрсатаётган телекўрсатувлар, радиоэшиттиришлар, уяли алоқа телефонлари ва шу каби бир қанча симсиз ва симлик алоқа воситаларига ўз таъсини ўтказиб келмоқда.

Ушбу мақола мазмунан шунда муаммоларни ҳал этишга ҳисса қўшишга қаратилган.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Абдуазизов А., Давронбеков Д. Радиоузатиш ва қабул қилиш қурилмалари. Ўқув қўлланма. Т.: "Fan va technology", 2011, 272 бет.
2. Бузов А.Л., Казанский Л.С., и др. Антенно-фидерные устройства систем сухопутной подвижной связи. - М.: Радио и связь, 1998 г.
3. Ерохин Г.А., Чернышев О.В., Козырев Н.Д., Кочержевский В.Г. Антенно-фидерные устройства и распространение радиоволн. - М.: Радио и связь, 1996 г.
4. Айзенберг Г.З. и др. Коротковолновые антенны. М.: Радио и связь, 1985 г.
5. Сазонов Д.М. Антенны и устройства СВЧ. - М.: Высшая школа, 1988 г.
6. У.Х.Арипова. Радиотўлкинларнинг тарқалиши ва

антенна-фидер қурилмалари. 2- қисм. Ўқув қўлланма. -Т: ТАТУ, 2010,-98 б

Рахимов Бахтиёржон Нематович. т.ф.д. доцент.

Ахборот-коммуникация технологиялари ва алоқа харбий институти бошлиқ ўринбосари.

Абдугафур Ҳотамов, PhD.

ТАТУ Самарқанд филиали доценти, abdugafur

hotamov@mail.ru

Рахимов Т.Г. т.ф.н., доцент. ТАТУ

Телерадиоэшиттириш тизимлари кафедраси профессори.

Raximov B.N., Hotamov A., Raximov T.G. Determination of the characteristics of industrial radio interference on the basis of measuring antennas

The articles notes that with an increase in the number of electronic devices, the tasks they perform are much more complicated, and the range of services they provide increases. Radio electronics basically needs to work together to provide one or a number of services. Accordingly, the interference in the radio reception of the electromagnetic radiation interferes with the correct reception of the signal affecting the circuit of the radio receiver, and also lead to distortion of signals during propagation of radio waves which cause distortion of the signal during propagation of radio waves.

Keywords: electromagnetic environment, electromagnetic compatibility, electronic equipment, base stations

U

Beknazarova S.S., Kurbanov S.K.

K

478.812.35

Binolarni rekonstruksiya qilishning lazerli skanerlash usulidan foydalanishda yuzaga keladigan muammolar

Insoniyat ma'lumotlarni qayd etib borishda papirus, pergament va ipak kabi materiallardan foydalanishni boshlagan vaqtdan buyon, biz 3D dunyosini 2D ko'rinishida tasvirlashga harakat qildik. Lekin dunyo yaralibdik, biz 2D olamda emas, aynan 3D olamda yashaymiz. 2D ko'rinishda tasvirlash uchun ko'plab texnologiyalar, shu jumladan bo'yash va xaritalar tuzish texnologiyalari ixtiro qilingan. Axborot davri kelguniga qadar biz 3D dunyosi ma'lumotlarini osongina saqlashimiz, boshqarishimiz va ulardan foydalanishimiz mumkin edi. Biroq hozirgi kunda insoniyat uchun 3D olamni aynan 3D ko'rinishida tasvirlash juda muhim jihat hisoblanib qoldi. Sababi, ko'pgina ma'lumotlarni tasvirlashda 2D ko'rinishdan ko'ra 3D ko'rinishdan foydalanish ko'proq samara bermoqda. Masalan, raqamli 3D texnologiyasi toshqin xavfni boshqarish, infratuzilmani qurish va boshqarish, suv ta'minoti va sifati, tabiat resurslarini saqlash, geologik resurslarni baholash va xavflarni kamaytirish, navigatsiya va boshqa sohalarida muhim rol o'ynaydi [1] Aniq va to'g'ridan-to'g'ri 3D ma'lumotni taqdim etish imkoniyatiga ega LiDAR (Light Detection And Ranging) texnologiyasi bizga aniq 3D ma'lumotlarni to'plash imkonini beradi. LiDARning moslashuvchanligi shundaki, bu texnologiya sun'iy yo'ldoshdan olingan tasvirlar, yer ustini lazer skanerlash ma'lumotlariga asoslangan holda ko'p qirrali va ko'p masofali aniq o'lchovlarni taqdim etishi mumkin. So'nggi 10 yil ichida lazerli skanerlar jadal rivojlanmoqda, bu yuqori zichlik, yuqori aniqlik va to'lqin shaklining to'liq ma'lumotlarini beradi.

Kalit so'zlar: LiDAR, lazerli skanerlash, segmentatsiya, topografik xarita, rekonstruksiya.

Hozirgi kunda LiDAR asosida ma'lumotlarni qayta ishlash va 3D xaritalarni qayta qurish algoritmlari mavjud, biroq ma'lumotlarni olish texnologiyasi uchun texnik vositalarni rivojlantirish borasida rivojlanish deyarli mavjud emas. Binolar shaharlarning asosiy qismi bo'lganligi sababli ularni rekonstruksiya qilish fotogrammetriya va axborot texnologiyalari sohalarini tadqiqotchilarining e'tiborini tortdi. Garchi ko'plab olimlar ushbu yo'nalish bo'yicha izlanishlar olib borgan va so'nggi yigirma yil ichida ancha salmoqli natijalarga erishgan bo'lishsa-da, biroq ular hali ham nisbatan oddiroq shakldagi binolar bilan cheklangan. Ko'plab murakkab binolar qo'lda rekonstruksiya qilinmoqda. Umumiy va nisbatan sodda binolar so'nggi texnologiyalar yordamida avtomatik ravishda qayta rekonstruksiya qilinishi mumkin. Shunga qaramay, hozirgi kunda murakkab tuzilishga ega yoki to'liq bo'lmagan ma'lumotlarga ega bo'lgan me'morchilikni qayta qurish va bu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb masala bo'lib hisoblanmoqda. Ushbu murakkab binolarning ulushi yuqori bo'lganligi sababli, katta shaharni modellashtirish hozir ham qimmat va ko'p vaqt talab etadi.

Bino shakllari muntazam, ammo har xil. Tabiiy obyektlarni taqqoslaganimizda, masalan daraxtlar, binolar inson qo'li bilan yaratilgan obyektlar bo'lib, o'ziga xos shakl qonuniyatlariga ega. Ammo boshqa obyektlarni o'zaro taqqoslanganda, masalan, chiroq, svetofor bunday takroriy naqshlar deyarli ko'zga tashlanmaydi. Ushbu shakl qonuniyatlarini bizga binolarni izohlashda va qayta qurishimizda yordam beradi. Bilimlarga asoslangan algoritmlar 3D binoni avtomatik qayta qurish uchun eng yaxshi yechimdir. Insonlar binolar va shahar atrof-muhitlari to'g'risida boy ma'lumotga egadirlar. Ushbu bilim va tajriba geometriya topologiyasi, semantik ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Inson miyasi ushbu bilimlarni ma'lumotlarni qayta ishlashning turli bosqichlarida birlashtirishi va hatto binolar haqida yangi kashf etilgan ma'lumotlarni qo'shib bilimlar bazasini rivojlantirishi mumkin. Izohlash jarayonida inson tomonidan o'rganilgan obyektlar uning miyasida shu paytgacha saqlangan modellar va ortirilgan bilimlarga mos keladi. Qayta qurish va izohlash jarayonining intellektual tizimda o'zaro ta'siri tufayli, 3D modelni egallash bo'yicha bilimlardan foydalanish nafaqat 3D arxitektura modelini qayta qurishni yaxshilaydi, balki inson aqlini tushunishni chuqurlashtiradi.


Shu o'rinda binolarni lazerli skanerlash bu - lazer nuri chizig'idan foydalangan holda binolarning shaklini raqamli

ma'lumotga, ya'ni uch o'lchovli ko'rinishga aylantirish texnologiyasidir. 3D lazerli skanerlar obyekt yuzasidan ma'lumotlarning sirt qismini yaratadi. Boshqacha aytganda, 3D lazerli skanerlash bu fizik jihatdan mavjud obyektning aniq hajmi va shaklini raqamli olamning raqamli o'lchovli vakili sifatida kompyuter dunyosiga tushirish usulidir.

So'nggi paytlarda qurilishni qayta tiklash texnikasini rivojlantirish borasida sezilarli darajada izlanishlar olib borilgan bo'lasada [2-6], ammo ko'p muammolar haligacha o'z yechimini kutmoqda. Ushbu muammolar lazerli skanerlash ma'lumotlari xususiyatlariga, shuningdek binolar va atrof-muhit tuzilishining murakkabligiga bog'liq. Keyingi izlanishlarni aniqlash uchun muammolar va ularning omillarini aniqlab tahlil qilgan maqsadga muvofiqdir.

Murakkab sahna


Butun bir shaharni modellashtirish jarayonida shahar sahnasida turli xil obyektlar mavjud. Ular orasida transport vositalari, piyodalar, daraxtlar, ko'cha chiroqlari va boshqalar shular jumlasidan, binoni rekonstruksiya qilishning birinchi bosqichi - qurilish nuqtalarini boshqa nuqtalardan ajratib olish. Ushbu vazifani bajarish uchun 2D topografik xaritasi juda foydali. Biroq, topografik xaritalar har doim ham mavjud emas. Ko'p holatlarda biz binoning rekonstruksiyasini xaritasiz amalga oshirishimiz kerak. Boshqa tomondan, binolarga yaqin obyektlar binolarni tasniflash va qurilish modelini qurish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan muhim kontekst ma'lumotidir. Masalan, binoning o'lchamlarini aniqlash uchun yer usti sathidan foydalanish mumkin [7]



1-rasm. Shahar holatida kerakli binoni boshqa binodan ajratib olib skanerlash jarayoni

Ma'lumotlarning yetishmasligi

Lazerli skanerlash usulida olingan ma'lumotlar ko'p hollarda bino uchun optimal hisoblanmaydi, sababi bino sirtining materiali va uning atrof-muhiti turli xil ko'rinishda bo'ladi. Lazerli skaner akslanmaydigan materiallar bilan qoplangan tomlar va devorlardan ma'lumotlarni qabul qila olmaydi. Obyektlar turli xil materialdan tashkil topganligi sababli ularga nisbatan lazerli skanerlash usuli qo'llanganda turli xil natijaga erishish mumkin [8] Masalan, lazer nuri oynali obyektlarni kesib o'tadi, shifer va suv yuzasiga singib ketadi va faqat silliq yuzalar bilan qoplangan obyektlarda akslanadi. Bundan tashqari, ba'zi yuzalar tik qiyaliklarga ega yoki boshqa obyektlar bilan to'silgan. Shuning uchun ham ularni lazerli skaner orqali skanerlash deyarli imkonsiz yoki skanerlash ma'lumotlari har doim ham yetarli emas. Qolaversa, vertikal holatda joylashgan devorlarning katta qismi qisman skanerdan o'tkaziladi, shuning uchun ushbu bino devorlarini rekonstruksiya qilish 2D xaritalariga bog'liqdir. Masalan, 2-rasmda ko'rsatilgan binolarning ba'zi joylarida signal nuqtalar mavjud emas.



2-rasm. Binolarni lazerli skanerlashda signal nuqtalar joylashuvi

Murakkab shakldagi binolar

Ko'pgina binolar murakkab shaklga ega bo'lib, ularni topologik ma'lumotlar bazasiga kiritish qiyin.

Binolarning bir qismi egri yuzalar bilan qurilgan, masalan ko'pgina klassik ko'rinishda qurilgan binolarda umumiy tashqi devorlar va tom qismi ko'p qirrali shakllardan iborat (3-rasm). Shu sababli ushbu turdagi binolar ko'rinishi haqida ma'lumot olish qiyinchilik tug'diradi.




3-rasm



3-rasm. Murakkab shaklga ega bo'lgan binolar

Murakkab chegaralar

Ikki tomonlama bog'langan qirralarni aniqlash oson va sodda. Ularning parametrlari ikkita qo'shni tomonlarni kesish orqali o'rnatiladi. Shunga qaramay, bino chekka qismlaridagi o'ziga xos shakldagi chegaralarni aniqlash murakkab jarayon hisoblanadi. Lazer skanerining ishlash prinsipiga ko'ra binoning chegaralarini aniqlashda lazer tekshiruv chegara nuqtalari beqarorlashadi. Oldingi xato filtrlash va segmentatsiya kabi ma'lumotlar shovqini bundan mustasno, ishlov berish qopqoq nuqtalari tomonidan chegara tavsifining yomonlashishiga olib keladi. 4-rasmlardan ko'rinib turibdiki, chegara shaklini aniqlash va binafsha nuqtalar bilan belgilangan segment uchun mos keladigan chegaralarni aniqlash qiyin. Natijada, tomoning yuz chegaralarini aniqlashga yordam beradigan tashqi qirralarning geometriyasi haqida qo'shimcha ma'lumotga muhtojmiz.



4-rasm. Murakkab chegaralarning mavjudligi

Skanerlash jarayonida texnik vositalar imkoniyatlari

Skanerlash jarayonida skaner kamerasini to'g'ri nuqtaga o'rnatish va kamera xususiyati kabi parametrlar skaner qilina-yotgan obyektning modeli sifatli chiqishiga sabab bo'luvchi omillardan hisoblanadi. Skaner qilish uchun kamera o'rnatilgan nuqtadan to' obyektgacha masofani R deb belgilab olsak, bu masofa quyidagi formulalar orqali hisoblanadi:

$$R = \frac{\delta f}{k d_{x,y}}, \quad (1)$$

bu yerda:

δ - yer tasviri o'lchami;

$d_{x,y}$ - kameradagi analog-integral mikrosxema o'lchami (ПЗС-матрица);

f - raqamli kamera fokus masofasi;

k-rasmda mavjud eng kichik obyekt o'lchamining qabul qilish koeffitsenti. [8] uning hisoblashicha, vizual tasvirni tanib olishda k koeffitsent ixcham obyektlarda 3,5 va chiziqli obyektlarda esa 1,5 ga teng.

Yerda turgan holda lazerli skanerlash usulidan foydalanganda raqamli kameralarni obyektgacha bo'lgan masofalari hisob-kitoblari 1-jadvalda keltirilgan. Ishlab chiqarish materiallar tarkibini tahlil qilish natijasida shuni xulosa qilishimiz mumkinki, skaner ma'lumotlar aniqligini oshirish muammosi faqat ekspert va yuqori aniqlikdagi vazifalarni hal qilish jarayonida yuzaga keladi. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, faqatgina uzoq fokusli raqamli kameralardan foydalanilganda aniqlik yaxshilanadi. Ushbu turdagi kameralarning o'ziga xos xususiyati shundaki, skaner ko'rish maydonini to'liq raqamli tasvirlash uchun ko'p sonli tasvirlar talab etiladi. Skanerlash maydonini to'liq qamrab olish uchun talab etiladigan rasmlar soni raqamli kamerani ko'rish maydonining gorizontal va vertikal burchaklariga bog'liq. Bu burchaklarni formulalar yordamida hisoblash mumkin:

$$\left. \begin{aligned} \varphi_{RK} &= 2 \arctg \frac{l_x \cdot d_{x,y}}{2f} \\ \theta_{RK} &= 2 \arctg \frac{l_y \cdot d_{x,y}}{2f} \end{aligned} \right\} \quad (2)$$

Bu yerda $\varphi_{RK}, \theta_{RK}$ - raqamli kamerani ko'rish maydonining gorizontal va vertikal burchaklari; l_x, l_y - mikrosxema o'lchami (ПЗС-матрица).

